JAHON TARIXI

7

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinflari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Yangi nashr

Toshkent – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K 78(075.3)
ББК 85.31я72
Н 79

MUALLIFLAR:

Tursun Salimov, Laziz Nasrullayev,
Nurhayot Hakimov, Sanjar Kushbekov, Bahodir Mahmudboyev

TAQRIZCHILAR:

Sh. Ergashev – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi;

D. Urakov – O'zMU Tarix fakulteti "Jahon tarixi" kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori;

Y. Tayronov – TDPU Tarix fakulteti "Jahon tarixi" kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi;

A. Biykuziyev – O'zMU Tarix fakulteti "Jahon tarixi" kafedrasi o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

A. Ismailov – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi Ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

J. Mustafoyev – NDPI "Tarix o'qitish metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi;

Z. Bozorov – Toshkent viloyati, Piskent tumani 5-IDUM 1-toifali tarix fani o'qituvchisi

SHARTLI BELGILAR:

Siz bilib olasiz.

Tarix yon daftar-changizga kiriting!

Eslab ko'ring!

Mening tarixiy tadqiqotlarim.

Tarixiy mushohada!

Bilag'onlar uchun!

Buni yodda saqlang!

Atamalar izohi.

O'ylab ko'rib, xulosa qiling!

Savol va topshiriqlar.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-7813-8-2

© Respublika ta'lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

KIRISH

Aziz o‘quvchi, Siz 6-sinfda minglab yillar davom etgan jahon va O‘zbekiston xalqlarining qadimgi tarixini o‘qib o‘rgandingiz. Insoniyat tarixini davrlashtirish tamoyiliga ko‘ra, G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan jahon tarixida O‘rta asrlar davri boshlanadi. Bu davr V asr oxiridan XV asr oxiriga qadar davom etadi. Unda yer egaligi jamiyatining qanday vujudga kelgani, qay tariqa rivoj topgani, xalqlarning turmush tarzi, mehnat munosabatlari, ozodlik uchun olib borilgan kurashlar bilan bir qatorda, bosqinchilik va talonchilik yurishlari haqida ham hikoya qilinadi.

O‘n asr davom etgan o‘rta asrlar davrida Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerika qit’alarida ko‘plab muhim voqealar yuz berib, madaniyat taraqqiyotida ajoyib yutuqlar qo‘lga kiritildi. Markazlashgan yirik davlatlarning vujudga kelishi hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, savdo, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Sharq va G‘arb mamlakatlari xalqlari diplomatik, savdo va madaniy aloqalar tufayli ishlab chiqarish, ilm-fan va madaniyat yutuqlaridan o‘zaro bahramand bo‘ldilar. Dunyoning turli hududlarida o‘ziga xos o‘rta asrlar sivilizatsiyalari vujudga keldi. Yevropada asosan xristianlik, Osiyoda esa islom va buddaviylik dinlari tarqalib, ular jamiyat, ilm-fan va madaniyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

O‘rta asrlar davrida shakllangan yer egaligi munosabatlari insoniyat tarixida muhim o‘rin tutib, u Yevropada feodal, Osiyoda esa yer egaligi jamiyati deb ataladi. Hukmdorlarning o‘z yaqinlari, amaldorlar va ruhoniylarga yer-mulklar taqdim qilishi natijasida yer egaligi munosabatlari vujudga kelib, aholi feodallar (yirik yer egalari) va qaram dehqonlar toifalariga bo‘linadi. In’om etilgan yerlarning merosiy mulkka aylanishi feodallar hokimiyatining kuchayishiga, bu esa, o‘z navbatida, mamlakatlarda siyosiy tarqoqliklar hukm surishiga olib keladi.

Aziz o‘quvchi, o‘rta asrlar tarixi haqidagi ma’lumotlarni biz moddiy va yozma manbalar orqali olamiz. Moddiy manbalarga tarixiy muzeylardagi mehnat va jang qurollari, kiyim-kechak va taqinchoqlar, tangalar, haykallar, suratlar, shuningdek, uy-joylar, saroylar, qasrlar, ibodatxonalar ham kiradi. Yozma manbalarga esa tarixiy yilnomalar, soliq, jarima, sud, oldi-sotdi, qarz majburiyatlari bilan bog‘liq rasmiy hujjatlar, imperator, qirol va sultonlarning farmon-farmoyishlari, sayyoh olimlar va elchilarning kundaliklari, tarixchi olimlarning asarlari misol bo‘ladi, bular bizga tarixiy jarayon va voqealar haqida aniq ma’lumotlar olish imkonini beradi. O‘rta asrlarda dastlab barcha hujjat va kitoblar xattotlar tomonidan bitilgan, XI asrda Xitoyda, XV asr o‘rtalarida Yevropada kitob bosish dastgohlarining yaratilishi yozma manbalar sonining keskin ko‘payishiga olib keladi. Bu esa o‘rta asrlar tarixi haqida ko‘proq ma’lumot olish imkonini yaratadi.

Ushbu davrda yuz bergan voqealarning ahamiyatli jihatlari hisobga olinib, qo‘lingizdagi mazkur darslikka o‘rta asrlar davrining V–XIII asrlar tarixi kiritildi. Siz o‘rta asrlar tarixining keyingi davrlarida yuz bergan muhim voqealar haqida 8-sinf jahon tarixi darsligida ma’lumotlarga ega bo‘lasiz.

DARSLIK BILAN ISHLAYMIZ

Qadrli o‘quvchilar! Darslikning har bir mavzusi “Siz bilib olasiz”, “Eslab ko‘ring!”, mavzuning asosiy matni va “Savol va topshiriqlar” kabi qismlardan iborat. Jumladan, “Siz bilib olasiz’’ qismida Siz mavzuga doir tayanch tushunchalar bilan tanishasiz. “Eslab ko‘ring!” qismi Sizga o‘tgan darslardagi ma’lumotlarni takrorlab, yangi bilimlarni o‘zlashtirishingiz uchun zarur vaziyatni yaratadi.

Mavzuning asosiy matniga “Tarix yon daftarchangizga kiriting!”, “Mening tarixiy tadqiqotlarim” kabi qismlar ilova qilinadi. “Tarix yon daftarchangizga kiriting!” qismida qiziqarli qo‘shimcha ma’lumotlar jamlanadi. “Mening tarixiy tadqiqotlarim” orqali Siz turli mamlakatlarga oid tarixiy voqealarni tahlil etishni, qiyoslashni hamda ularga nisbatan fikr bildirishni o‘rganasiz.

Mavzularning asosiy matnida “Tarixiy mushohada” qismini ham uchratasiz. Unda Siz e’tiboringizni qaratishingiz zarur bo‘lgan mavzuning eng muhim ma’lumotlari, shuningdek, yorqin voqea-hodisalarga urg‘u beriladi.

Har bir mavzu so‘ngida “Savol va topshiriqlar” berilgan bo‘lib, ularni bajarish orqali yangi mavzuni qanchalik yaxshi o‘zlashtirganingizni aniqlashingiz mumkin.

Bu qismda avvalo muhim g‘oya va xulosalar keltiriladi. So‘ngra savollarga javob berish uchun esa faqat darslik matni emas, balki qo‘shimcha, masalan, internet ma’lumotlari, yozma manbalar, ilmiy-ommabop asar va risolalardan foydalanish zarur bo‘ladi.

I BOB

O‘RTA ASRLARDA YEVROPA XALQLARI

(V–XIII asrlar)

1-
mavzu

German qabilalari va Rim imperiyasi

German qabilalari jang maydonida

SIZ BILIB OLASIZ:

- **german qabilalari, ularning joylashuvi va xo‘jaligi;**
- **urug‘-qabilachilik an’analari, diniy e’tiqodlari, qabilalar ittifoqining vujudga kelishi;**
- **Rim imperiyasining ikkiga bo‘linishi, inqirozga uchrashi va uning sabablari;**
- **german qabilalarining Rim imperiyasi hududiga uyushtirgan bosqinlari va ularning oqibatlari haqida.**

ESLAB KO‘RING!

- **Rim imperiyasi o‘zining kuch-qudrat cho‘qqisiga qachon va qanday erishgan?**
- **Qadimgi dunyoning qanday imperiyalarini bilasiz?**

GERMAN QABILALARI

Rim imperiyasining shimoliy hududlarida yashagan german qabilalarining ko‘chishlari (milodiy IV–VI asrlar) Yevropa tarixida muhim voqealardan biri bo‘ldi. Bu qabilalar haqidagi ilk yozma ma’lumotlar Yuliy Sezarning “Galliya urushi haqida xotiralar” va Rim tarixchisi Korneliy Tatsitning “Germaniya” asarlarida keltirilgan.

German qabilalari Yevropaning shimolida hamda Reyndan Elba daryosigacha bo‘lgan hududlarda yashashgan. Ular baland bo‘ylari, ko‘k ko‘zlari, qizg‘ish sochlari, jangovarlik va uddaburonliklari bilan janubiy xalqlardan ajralib turardi. Germanlarning mustahkam hamda bir-biriga yaqin qurilgan qishloqlari bo‘lmagan. Har bir oila o‘tloq va to‘qaylar bilan o‘ralgan alohida xo‘jalikda yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Urug‘chilik jamoasi darajasida yashagan germanlarda yerga nisbatan jamoa yer egaligi mavjud bo‘lib, urug‘ jamoalari hamkorlikda o‘rmondagi daraxtlarni kesib, yangi yerlar ochganlar. Yerga avval oddiy yog‘och so‘qa yordamida

German qabilalari hayoti

ishlov berishgan, yerni o‘g‘itlashmagan. Keyinchalik almashlab ekish usuli hamda omochdan temir plugga o‘tilishi mehnat unumdorligining oshishi, hosilning ortishiga olib kelgan. Ular hayvonlar terisidan kiyim tikib kiyishgan, qilich, qalqon, bolta va nayzalar bilan qurollangan, urush va ov qilishni yaxshi ko‘rishgan. Kundalik hayotlarida esa nondan ko‘ra sut, pishloq va go‘shtni ko‘proq iste’mol qilganlar. Hunarmandchilikda asosan qurol-yarog‘, asbob-uskunalar, kiyim-kechak va idishlar ishlab chiqarganlar. Shu tariqa ularda kulolchilik, to‘quvchilik, zargarlik, teri va yog‘ochga ishlov berish sohalari rivojlangan. Ular temir, oltin, kumush, mis, qo‘rg‘oshin qazib olishni ham bilishgan. Qadimgi Rim bilan savdo-sotiq qilish german qabilalarining hayotida muhim rol o‘ynagan. Ular rimliklarga qullar, chorva mollari, teri, qahrabo yetkazib berishgan bo‘lsa, rimliklar ularni sopol, shisha, bronza idishlar, oltin va kumush taqinchoqlar, qurollar va qimmatbaho matolar bilan ta’minlaganlar.

Germanlar jamoasi davlat vujudga kelguniga qadar urug‘chilik bosqichini boshdan kechirgan. Shu bois siyosiy tuzilishining asosini qabila tashkil etib, qabilani xalq yig‘inida saylab qo‘yilgan **konunglar** (zodagon shaxslar) boshqarganlar. Ular o‘z qabiladoshlarini buyruqdan ko‘ra shaxsiy namuna, ishontirish orqali boshqarganlar. Qabilaning barcha qurollangan erkin vakillari ishtirok etadigan ***xalq majlisi*** oliy hokimiyat organi hisoblangan. U vaqti-vaqti bilan chaqirilib, eng muhim masalalarni: qabila boshlig‘ini saylash, qabila ichidagi nizolarni bartaraf

etish, urush e'lon qilish va tinchlik o'rnatish kabilarni hal qilgan. Qabilani yangi joylarga ko'chirish masalasi ham qabila majlisida hal qilingan.

Germanlar jamiyatida bora-bora harbiy bo'linmalar (drujina), ularning sarkardalari tobora yuksak nufuzga ega bo'la boshlaydilar. Ushbu jarayonda mulkiy tabaqalanishning kuchayishi (IV–V asrlar), o'zaro va tashqi urushlarning ko'payib borishi asosiy rol o'ynaydi. Natijada siyosiy tuzumda ham o'zgarishlar boshlanib, IV–V asrlarda alemann, got, franklarning yirik qabila ittifoqlari shakllanadi.

Qadimgi germanlar dinida alohida e'tiborga ega kohinlar, muhtasham ibodatxonalar, dabdabali marosimlar bo'lmagan. Ular tabiat kuchlari – osmon, momaqaldiroq, shamol va yerni ilohiylashtirganlar. German qabilalarining ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar hamda Rim imperiyasi bilan doimiy aloqalari ularning diniy e'tiqodining o'zgarib borishiga olib keladi. Qabilalar orasida targ'ibot orqali xristianlik dini tarqalib, ijtimoiy taraqqiyot yanada tezlashadi.

German jangchilari

GERMANLARNING G‘ARBIY RIM IMPERIYASIGA BOSQINLARI

IV asrdan Rim imperiyasi o‘zining avvalgi qudratini yo‘qota boshlaydi. Bu jarayonning qator sabablari bo‘lib, ulardan eng asosiysi qullar mehnatining past darajasi edi. Tarixdan ma’lumki, qullar ishlab chiqarish sur’atlarining o‘sishidan manfaatdor bo‘lmaganlar. Imperiyaning inqirozi, qullar sonining ko‘payishida asosiy o‘rin tutgan tashqi istilochilik urushlarining bo‘lmasligi muammoni yanada jiddiylashtirgan.

Boshqaruv hokimiyatini, shuningdek, qo‘shinni oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, jang qurollari bilan ta’minlash zaruriyati soliqlarning yildan-yilga oshishiga olib keladi. Bu esa oddiy shaharliklar va dehqonlar orasida ham norozilik kayfiyatini kuchaytiradi. Inqiroz 395-yili Rim imperiyasining ikkiga: G‘arbiy va Sharqiy qismlarga bo‘linishi bilan yakun topadi. Kuchli inqirozni boshdan kechirayotgan G‘arbiy imperiyaga german qabilalari: vandallar, vestgotlar (g‘arbiy gotlar), ostgotlar (sharqiy gotlar), angllar, sakslar, franklar va boshqa qabilalarning hujumlari kuchayadi.



Rimlik jangchilar

Xalqlarning buyuk ko‘chishlarini sharqdan Yevropaga yurish boshlagan ko‘chmanchi xunn qabilalari tezlashtiradi. Xunnlar ta’qibidan qochib Rim imperiyasi hududiga o‘tgan vestgotlar imperiya qo‘shinlarini tor-mor etadi. Ushbu mag‘lubiyatdan so‘ng imperiya o‘zini o‘nglay olmadi. Shu sababli vestgotlar 410-yil sarkardalari Alarix boshchiligida “boqiy shahar” nomini olgan Rimni egallaydi. Vestgotlar shaharni uch kun talashadi. Aholining qarshiligi hamda oziq-ovqat zaxiralarining tugashi varvarlarni shaharni tashlab, janubiy Galliyaga chekinishga majbur etadi. Aynan vestgotlar 418-yili janubi-g‘arbiy Galliyada ilk varvar qirolligi – Vestgot qirolligini tuzadilar. Ko‘p o‘tmay vandal va alan qabilalari shimoliy Afrikada, ostgotlar – Italiyada, franklar – Galliyada, anglosakslar – Britaniya orollarida joylashib, o‘z davlatlarini barpo etadilar.



German qabilalarining Rim imperiyasiga bostirib kirishi

BILAG‘ONLAR UCHUN!

G‘arbiy Rim imperiyasidagi harbiy sarkardalardan biri Odoakr 476-yili o‘z qo‘shini bilan isyon ko‘tarib, so‘nggi imperator – Romul Avgustulni taxtdan ag‘darib, monastirga yuboradi. Imperatorlik nishonlarini Konstantinopolga yuborishni buyuradi. Ushbu sana tarixda Yevropada qulchilik jamiyatidan yer egaligi munosabatlariga (feodal jamiyatga) o‘tishning boshlanganligini anglatadi.

Ostgotlar Italiyada poytaxti Ravenna bo‘lgan kuchli qirollik tuzganlar. Ularning qiroli Teodorix antik madaniyatni saqlash va Rimni qayta tiklashni maqsad qilgan. Uning bosh vaziri rimlik zodagon, yetuk faylasuf Boetsiy edi. Boetsiy o‘zaro urushlarni to‘xtatishga harakat qilishiga qaramasdan, ostgotlar va rimliklar o‘rtasidagi ixtilofni bartaraf etishning iloji bo‘lmaydi. Ziddiyatlar faqat ostgotlar eng yaxshi yerlarni egallab olganliklari uchun emas, eng avvalo, din, urf-odatlar, tildagi tafovutlar tufayli bo‘lgan. Ostgotlar va rimliklar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, Vizantiya istilolari VI asr o‘rtalariga kelib, Ostgot qirolligining qulashiga sabab bo‘ladi. Lekin tez orada Shimoliy Italiyaga yana bir german qabilasi – langobardlar bostirib kiradi. Ular Langobard qirolligini tuzadilar.

ATAMALAR IZOHI

Konung – qabila boshlig‘i, zodagonlarning oliy vakili.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **German qabilalari haqida qanday tasavvurga ega bo‘ldingiz? Ular haqida kimlar ma’lumot yozib qoldirganlar?**
2. **Rim imperiyasining zaiflashuviga qaysi omillar sabab bo‘lgan?**
3. **O‘ylab ko‘ring: nima uchun german qabilalari Rim imperiyasining boy madaniyatini vayron qilgan?**
4. **German qabilalari qayerlarda o‘z davlatlarini barpo etganlar?**

2–3-mavzu

Franklar davlati: qirollikdan imperiya sari

Franklar qabilasi

SIZ BILIB OLASIZ:

- **frank qabilalari, qirollikning tashkil topishi va qirol Xlodvig;**
- **davlat boshqaruvi hamda xristianlikning qabul qilinishi;**
- **Karl Martell va Pipin Pakana davrida o‘tkazilgan islohotlar;**
- **Buyuk Karlning harbiy yurishlari, keng hududlarni istilo qilib, imperiyaga asos solishi;**
- **“Yangi Rim imperiyasi”ning parchalanishi va Kapetinglar sulolasi haqida.**

Buyuk Karl tomonidan qabilalarning bo‘ysundirilishi

ESLAB KO‘RING!

- **Xalqlarning buyuk ko‘chishlari qanday boshlangan?**
- **German qirolliklari qayerda va qanday tuzilgan?**
- **“Imperiya” atamasi nimani anglatadi?**

FRANK QABILALARI

German qabilalari barpo etgan davlatlar orasida mustahkam va uzoq yashagani Franklar qirolligi bo‘ldi. Frank qabilalari dastlab Reyn daryosining quyi qismida yashaganlar. Ular ham boshqa german qabilalari singari urug‘-qabila tuzumida yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Talonchilik urushlari franklarning ham mulkiy tabaqalanishini tezlashtirib, harbiy zodagonlar va drujinalarning ta’sirini kuchaytiradi.

Franklar tangasi

Xlodvigning vorislari

FRANKLAR QIROLLIGI

Franklarning V asr o‘rtalaridan Rim imperiyasining ularga qo‘shni hududlari – Sena va Luara daryolari havzalariga tahdidlari kuchaya boradi. Franklar davlati Shimoliy Galliyada barpo etiladi. Uning asoschisi Meroveylar urug‘idan chiqqan, Sali franklari yo‘lboshchisi **Xlodvig** bo‘lgan. Uning qo‘shini 486-yili Suasson shahri yaqinida Rim qo‘shinini yengadi, so‘ngra vestgotlarni bo‘ysundirib, Janubiy Galliyani ham egallaydi.

Meroveyning nabirasi Xlodvig franklarning ilk qirolligi – Merovinglar sulolasiga asos soldi. U taxtga da’vogarlarning barchasini bartaraf etib, xalq yig‘inlarini chaqirmay qo‘yadi. Qirol saroyi boshqaruv markazi hisoblangan. Qirollikning harbiy kuchi ko‘p sonli drujina bo‘lgan. Viloyatlarni boshqarish graflarga topshirilgan.

Franklar Galliyani istilo qilar ekanlar, mahalliy rim-gall zodagonlarining yer-mulklariga tegmaydilar. Ko‘p sonli bo‘lmagan franklarga Rim imperatoriga tegishli va bo‘sh yotgan yerlar bo‘lib beriladi. Natijada franklar hokimiyatini tan olgan mahalliy aslzodalar Xlodvigga mamlakatni boshqarishda yordam berib, asta-sekin frank zodagonlari bilan qo‘shilib ketadilar. Franklarda davlat aholisi aralash – lotin-german tilida so‘zlashganlar, u keyinchalik fransuz tilining asosiga aylanadi. Yozish uchun faqat lotin tili qo‘llanilgan.

TARIXIY MUSHOHADA!

Xlodvigning buyrug‘iga ko‘ra, Sali franklarining eski odat-qonunlari to‘planib, lotin tilida “Sali haqiqati” bitiladi. Unda keltirilishicha, yer-mulk faqat erkaklar tomonidan meros sifatida avloddan-avlodga o‘tgan, jinoyatlarning turiga qarab turli xil jarima va jazo choralari qo‘llanilgan. Qonunlarda ijtimoiy tengsizlik o‘z aksini topgan bo‘lib, zodagonlar, erkin franklar, qaram kishilar yoki qullar sodir etgan jinoyatlariga qarab turlicha jarimalarga tortilganlar.

XRISTIANLIKNING QABUL QILINISHI

Franklarning majusiylik (ko‘p xudolik) dinlari ularni Galliyada hukmronlik qilishlariga deyarli yordam bermagan. Aholi orasida yuqori nufuz va ta’sirga ega bo‘lgan xristian cherkovining Frank yetakchilariga katta yordam berishi mumkinligini anglashgan. Cherkovning har qanday hokimiyat xudodan degan aqidasi ham qirolga ma’qul kelgan. Xlodvig yangi dinni qabul qilishi orqali davlat boshqaruvida rim-gall aholisini birlashtirish mumkinligini tushungan. Qirol 496-yili Rim cherkovi tartiblari bo‘yicha xristian dinini qabul qiladi. So‘ngra qirol drujinasi va oddiy franklar ham qabul qilishadi. Bu tadbir qirol hokimiyati va Rim papasi (katolik cherkovining boshlig‘i) boshchiligidagi g‘arbiy cherkov ittifoqini ta’minlaydi.

Xlodvigni xristianlik dini ta’limotini tushunib qabul qilgan va namunali dindor bo‘lgan deyish mushkul. Lekin amalga oshirilgan ushbu tadbir kelajakka xizmat qilishga mo‘ljallangan edi. Shu paytdan franklar va rim-gallar sekin-asta bir-birlari bilan yaqinlashib, yagona xalqqa aylana boradi. Xristianlik bilan tanishuv franklarga Rim madaniyatining turli sohalarini, turmush tarzini o‘zlashtirish imkonini beradi.

Xlodvigning mamlakat hududlarini o‘g‘illariga taqsimlab berishi keyinchalik davlatning parchalanib ketishiga sabab bo‘ladi.

BUNI YODDA SAQLANG!

Franklar tuzgan davlat dastlab uni boshqargan sulolalar nomi bilan atalgan. X asrda poytaxt Parij atrofidagi viloyat – Il-de-Frans nomidan kelib chiqib, Fransiya deb atala boshlanadi. O‘tmishda yurtimizda uni Farangiston, aholisini esa faranglar deyishgan.

Karl Martell
Puate jangida

KARL MARTELL

Karl Martell davrida frank qirolligiga xavf solgan nizolarga barham beriladi. Franklar hududlariga Pireney tog‘lari ortidan Arab xalifaligi qo‘shinining bosqini boshlanadi. Yetti kun davom etgan 732-yilgi Puate jangida Karlning otliq qo‘shini arablarning hujumini to‘xtatishga muvaffaq bo‘ladi. Bu g‘alaba sharafiga Karlga “Martell” (Bolg‘a) laqabi beriladi.

Tashqi dushmanlar hujumlarini qaytarish uchun franklar qo‘shinni isloh etish hamda kuchli otliq qo‘shin tuzishga majbur bo‘lganlar. Jang maydonlarida otliq qo‘shin asosiy rol o‘ynaganligi bois, piyoda xalq lashkari esa urushda keyingi o‘rinda turgan.

BENEFITSIY ISLOHOTI

Hamisha urushga tayyor otliq qo‘shin tuzish maqsadida Karl Martell o‘ziga xizmat qiladigan harbiy kishilar sonini ko‘paytiradi. U otliq qo‘shin jangchilariga dehqonlar foydalanayotgan ijara yoki jamoa yer maydonlaridan taqsimlab bera boshlaydi. Harbiy xizmat uchun taqdim etilgan yerlar ***benefitsiy*** (“ehson”, “yaxshilik”) – ilk o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada qirol yoki yirik feodal tomonidan vassalga muayyan ishni bajarish, ko‘pincha harbiy xizmatni o‘tash sharti bilan in’om qilinadigan yer deb nomlangan. Bunday yerlar merosiy bo‘lmay, harbiy xizmat bajarish muddatiga berilgan. Agar jangchi harbiy xizmatni bajarmay qo‘ysa, benefitsiy olib qo‘yilgan.

Feodni olish bilan bog‘liq barcha shartlar taqdim etuvchi va oluvchi o‘rtasidagi shartnoma bilan mustahkamlangan. Feod egalarini ***feodal*** deyish odat tusiga kirgan. Benefitsiy islohoti oqibatida davrlar o‘tib feodallar toifasi shakllanib, o‘rta asr ritsarligi asoslari yaratiladi.

TARIXIY MUSHOHADA!

Davrlar o‘tib benefitsiy harbiy xizmatni o‘tash sharti bilan merosga o‘tkazila boshlanadi. Natijada X asrda benefitsiy ***feod****ga – shartnomaga ko‘ra harbiy xizmat va boshqa majburiyatlarni bajarish sharti bilan berilgan merosiy yer-mulkka aylanadi.*

MENING TARIXIY TADQIQOTLARIM

1. **Benefitsiy islohotining maqsad va sabablarini aniqlang.**
2. **Islohotning mazmunini tavsiflang.**
3. **Olingan natijalarni tarix yon daftarchangizga jadval tarzida kiriting.**

Karl Martellning o‘g‘li Pipin Pakana otasi yuritgan cherkov yerlarini musodara qilish siyosatidan voz kechishga qaror qildi hamda cherkov bilan yaqinlashish siyosatini amalga oshirdi. Chunki Meroving qirollarini taxtdan tushirib, o‘zi qirol bo‘lishi uchun papalar yordamiga muhtoj edi. Va nihoyat Pipin Pakana o‘zining maqsadiga erishadi: Merovinglar sulolasidan bo‘lgan so‘nggi qirolni taxtdan tushirib, Rim katolik cherkovi papasiga qirol bo‘lish istagini bildiradi va undan qo‘llab-quvvatlashini so‘raydi. 751-yil Suasson shahridagi frank zodagonlarining yig‘ilishida Pipin franklar qiroli deb e’lon qilinadi. Shunday qilib, Karolinglar sulolasi rasman (751–987-yillar) hukmronlik qila boshlaydi. Aslida sulolaning asoschisi Pipin Pakana bo‘lsa-da, davrlar o‘tib tarixchilar uni avlodining eng mashhur vakili Karl nomidan sulolani Karolinglar sulolasi deb nomlaganlar.

Ko‘p o‘tmay germanlarning langobard qabilalari Rimni qamalga olganida, papa Pipinga yordam so‘rab murojaat qiladi. Pipin Italiyaga yurish boshlab, langobardlar qirolini avval bosib olgan shaharlari va markaziy Italiyani papaga berishga majbur etadi. Ushbu hududda 756-yili papaning dunyoviy davlati (hozirgi Vatikan) vujudga keladi.

BILAG‘ONLAR UCHUN!

Franklar Pipinni “pakana” deb ataganlar – uning bo‘yi haqiqatdan ham past bo‘lgan (135 cm), ammo, aytishlaricha, qirol jismoniy jihatdan kuchli bo‘lib, uzun shamshirdan mohirona foydalangan.

Buyuk Karlning toj kiyish marosimi

BUYUK KARL

Buyuk Karl Pipinning o‘g‘li bo‘lib, franklar davlatini (768–814) 46 yil boshqargan. Karl barvasta, kuchli va bardoshli inson bo‘lgan. O‘rta asrlarda Buyuk Karl haqida ko‘plab rivoyatlar va qo‘shiqlar bitilgan. Adib va solnomachilar uning harbiy jasoratlari, adolatparvar va donishmandligini madh etishgan. Uning lotincha ismi-(Karolus)dan Yevropa mamlakatlari hukmdorlari o‘zlarini *korol* (qirol) deb atay boshlaganlar. Ko‘plab harbiy yurishlarga boshchilik qilib, yirik saltanat tuzgani, davlatda yangi qonunlar ishlab chiqib, maorif va madaniyatga homiylik qilgani uchun tarixchilar tomonidan Karlga “Buyuk” nomi berilgan.

Karlning hukmronlik yillarida 53 ta harbiy yurishlar olib borilgan. U katta qo‘shin bilan uzoq yurishlar boshlab, Rim papasiga ko‘maklashish uchun ikki marta Alp tog‘laridan oshib, Italiyaga bostirib kirgan. Karl langobardlarni mag‘lub etib, ularning qirolini asirga oladi. Italiyaning katta qismi Franklar davlati mulkiga aylantiriladi. Karl arablar hukmronligidagi Ispaniyaga bir necha bor yurishlar qilgan. Bosib olingan kichik hududda Ispan markasi tuziladi.

Frank qo‘shinlarining eng uzoq davom etgan va og‘ir urushlari Reyn va Elba daryolari oralig‘ida yashagan saks qabilalariga qarshi (772–804) olib borilgan. Karl



shafqatsizlik bilan ma'lum darajada sakslarning xristian dinini qabul qilishlariga hamda o'z hokimiyatini tan oldirishga erishadi. Saksoniyani bir necha grafliklarga bo'lib, ularni boshqarishga frank va saks zodagonlarini tayinlaydi. Zodagonlar, yepiskoplar va monastirlar zabt etilgan mamlakatda katta yer-mulklarga ega bo'lishadi.

KAROLINGLAR IMPERIYASI

Buyuk Karl hukmronligining so'nggi yillarida frank qirolligini sobiq Rim imperiyasi hududlari bilan qiyoslasa bo'lar edi. Bu holat Karl maslahatchilari orasida uni, qadimgi rimliklarga taqlid qilib, imperator deb e'lon qilish g'oyasining tug'ilishiga olib keladi. Bunday imkoniyatga esa 800-yilda mahalliy Rim zodagonlari tomonidan papa Lev III ga qarshi ko'tarilgan isyondan foydalanib erishiladi. Rimliklar tomonidan hujumga uchragan papa katolik cherkoviga sodiqligini namoyish etgan Karl saroyiga boshpana izlab borishga majbur bo'ladi. U Buyuk Karldan yordam so'raydi. Papaning iltimosiga rozi bo'lgan Karl qo'shin yuborib isyonni bostiradi.

Rim papasi minnatdorchilik sifatida 800-yilning dekabrida Rimga kelgan Karlga avliyo Pyotr ibodatxonasida imperatorlik tojini kiygizadi. Shu tariqa Karlning muhrida ko'rsatilgan "Yangi Rim imperiyasi" tashkil topadi, uning markazi Axen shahrida bo'lgan.

DAVLAT BOSHQARUVI

Karlning saroy a'yonlari va amaldorlari ayni paytda vazirlar vazifasini ham o'taganlar. Qirol saroyi yuqori lavozimlari qatorida moliya, soliq, harbiy soha, oshxona, otxona va hokazolar bo'lgan. Yirik qabilalarni *gersoglar* (nemischa, "saylangan harbiy yo'lboshchi", keyinchalik merosiy qabila boshlig'i) boshqargan. Davrlar o'tib gersog eng yuksak zodagonlik unvoniga aylanadi. Yirik bo'lmagan hududlarni imperator tayinlagan *graflar* (nemischa, "qirol tayinlangan amaldor") boshqargan, ushbu atama ham zodagonlar unvoniga aylangan. Karl o'z davlati chegaralarini mustahkamlash maqsadida *markalar* (nemischa, "chegara viloyati") tuzgan, ularni *markgraflar* (nemischa, "chegara viloyati hokimi") boshqargan.

Karl saroy a'yonlari bilan mamlakatni aylanib, joylardagi haqiqiy vaziyatni kuzatib, shu orqali davlatni boshqargan. Imperator yiliga ikki marta – dunyoviy va ilmiy zodagonlar oliy kengashini o'tkazgan, ularning roziligi bilan farmonlar chiqargan. Joylarda graflar boshqaruvi davom etgan, lekin ularni nazorat qilish uchun imperiyaning barcha hududlariga o'zi ishongan kishilar – "hukmdor vakillari"ni yuborgan. Imperiyaning asosiy qo'shini otliq bo'linmalar bo'lgan.

Cherkov yepiskoplari, yirik monastir abbatlari imperator farmonlarining joylarda amalga oshirilishida jonbozlik ko'rsatganlar. Karl safarlari paytida graflar, yepiskoplarning faoliyatini shaxsan tekshirgan. Agar suiiste'molliklar aniqlansa, javobgarlar darhol lavozimidan chetlatilgan. Imperiya hududining behad yirik bo'lishi uni muntazam nazoratda saqlashni qiyinlashtirgan. Qolaversa, graflar ham o'z viloyatlarida yakkahokimlikni o'rnatishga, lavozimlarini merosiy bo'lishiga intilganlar. Bu jarayon esa davrlar o'tib markazlashgan boshqaruvning zaiflashuviga, imperiyaning inqirozga yuz tutishiga yo'l ochadi.

Yevropa hukmdorlari orasida Karlning mavqeyi yuqori bo'lgan. Uning saroyiga uzoq-yaqin mamlakatlar elchilari kelib turishgan. Tarixiy yilnomalarda yozilishicha, xalifa Horun ar-Rashid elchilari orqali Karlga qimmatbaho tuhfalar qatorida Quddusdagi Iso payg'ambar qabri joylashgan yerni ramziy taqdim etgan.

IMPERIYANING PARCHALANISHI

Istilolar orqali tuzilgan Buyuk Karlning Yangi Rim imperiyasi taraqqiyotning turli darajasidagi qabilalardan tashkil topgan bo‘lib, uzoq hukm surishi mushkul edi. Karlning vafotidan ko‘p o‘tmay imperiyaning parchalanishi boshlanadi. Uning nabiralari davrida Verden shahrida 843-yili tuzilgan shartnomaga muvofiq imperiya uchga bo‘linib, ularning asosida uchta – Fransiya, Germaniya va Italiya davlatlari tashkil topadi. Verden shartnomasidan so‘ng Karolinglar imperiyasining g‘arbiy qismi Buyuk Karlning nabirasiga beriladi, natijada G‘arbiy Frank qirolligi vujudga keladi. Bu hududdagi aholining asosiy qismi shimoliy roman tilida so‘zlashuvchi rim-gallardan iborat bo‘lganligi uchun fransuz xalqining shakllanish jarayoni jadallashib, hudud Galliya emas, balki Fransiya (“franklar mamlakati”) deb atala boshlanadi. Ushbu davrda Karolinglar hokimiyatining zaifligi boshqa xalqlarning tinimsiz hujum qilishlariga imkon berdi. Natijada yirik feodallar birlashib, mamlakatni bosqinchilardan himoya qila boshlaydilar. Karolinglarning so‘nggi vakili Lyudovik V vafot etgach, zodagonlar va ruhoniylar 987-yilda Robertinlar xonadonidan bo‘lgan graf Gugo Kapetni Fransiya qiroli deb e’lon qiladilar. Shu tariqa Fransiyada Kapetinglar sulolasiga asos solinadi. Ammo Kapetinglarning hokimiyati dastlab kuchli bo‘lmasdan, qirollik IX–X asrlardayoq bir qator mustaqil mulklar – Normandiya, Akvitaniya, Burgundiya gersogliklari, Tuluza, Shampan, Flandriya grafliklariga bo‘linib ketadi. Ularning har biri mustaqil bo‘lib, ba’zan qiroldan ham kuchliroq qo‘shin va katta yer-mulklarga ega edi. Qirol o‘z domeni (yer-mulk) – Parij va Orlean shaharlarini o‘z ichiga olgan Il-de-Frans gersogligidagina hukmronlik qilardi.

Fransiyada X–XI asrlarda qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo rivojlana boshlaydi. Mehnat taqsimotining o‘sib borishi tufayli viloyatlarning o‘z holicha yashashi tugaydi. Savdo-sotiq ularni bir-biriga bog‘lab qo‘yadi. Viloyatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish ehtiyojlari feodal tarqoqlikni tugatishni taqozo eta boshlaydi. Cherkov va feodallarning o‘zboshimchaliklaridan jabr ko‘rgan shahar aholisining qo‘llabquvvatlashi natijasida qirolning qudrati ortib boradi. Bu kuchlarga tayangan kapetinglar XII asr boshlarida o‘z domenida tartib o‘rnatib, mulklarini ko‘paytirdilar va asta-sekin Fransiyani birlashtira boshlaydilar. Qirol Lyudovik VI qirollik yerida turgan baron qal’alarini o‘ziga bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ladi. Uning o‘g‘li Lyudovik VII (1108–1137) esa Akvitaniya gersogligining merosxo‘ri – Eleonoraga uylanish orqali o‘z domenini yanada kengaytiradi. XIII asr boshlariga kelib Fransiyaning deyarli butun hududida Filipp II ning hukmronligi o‘rnatilib, qirol hokimiyati ancha mustahkamlanadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Frank qirolligining tashkil topish jarayonini aytib bering.**
2. **Franklarning xristianlikni qabul qilishlarini Siz qanday baholaysiz?**
3. **Yangi Rim imperiyasi, Sizningcha, nega uzoq yashamadi?**
4. **Verden shartnomasidan keyin qanday siyosiy o‘zgarishlar ro‘y berdi?**

4-
mavzu

Britaniyadan – Angliyaga

Anglosakslar

SIZ BILIB OLASIZ:

- **Britaniyaning tub aholisi;**
- **anglosakslar: himoyachilikdan istilochilikka tomon;**
- **normannlar bosqinlari va ularga qarshi kurash;**
- **qirol Alfred va uning faoliyati;**
- **normandlarning XI asrdagi istilolari haqida.**



BRITANIYANING TUB AHOLISI HAQIDA

Buyuk Britaniya Yevropaning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan. Bu hududda mil. avv. I ming yillikda kelt qabilalari – brittlar yashagan. Milodiy 43-yildan boshlab Britaniya orollarining katta qismini rimliklar bosib oladi, shu bilan Janubiy Britaniya ustidan ularning deyarli 400 yillik hukmronligi boshlanadi. Rim imperiyasi Britaniya orollarini istilo qilganida, orolning janubida kelt, britt, shimolida – hozirgi Irlandiya va Shotlandiyada – skott, pikt qabilalari yashagan.

TARIX YON DAFTARCHANGIZGA KIRITING!

London milodiy 43-yili orolni Rim imperiyasi istilo qilganidan keyin Temza daryosi sohilida barpo etilgan hamda to‘rt asrga yaqin rimliklarning bosh shahri bo‘lgan.

ANGLOSAKSLAR BOSQINI

Rimning Britaniyadagi legioni 407-yilda Italiyaga qaytganidan so‘ng, oroldagi rimlik aholi ham qit’aga qaytadi. Bu paytda oroldagi britt, keltlarning o‘zaro urushlaridan foydalangan shimoliy hududlardagi pikt va skott qabilalari ularga qarshi hujum boshlaydilar. Ulardan himoyalanish maqsadida brittlar Germaniyaning ichki (shimoliy) qismida joylashgan angl, saks, yut va friz qabilalari (umumiy nomi anglo-sakslar)dan yordam so‘raydilar. Germanlar dastlab uchta kemada kelishadi. Lekin ma-

halliy aholining harbiy jihatdan ojizligidan foydalanib, anglosakslar yuzlab, minglab qabiladoshlarini “himoyachilardan” “istilochilarga” aylanishga undaydilar.

QIROL ARTUR

Dumaloq stol ritsarlari

Oroldagi so‘nggi rimliklardan Amvrosiy Avrelian VI asrning boshlarida brittlarni birlashtirib, anglosakslarga qarshi deyarli yarim asr kurashadi. Kelt qabilalari xotirasida bu g‘alabalar haqidagi ma’lumotlar asrlar davomida saqlanib kelindi. Lekin rivoyatlarda bosqinchilarga zarba bergan qahramonning ismi o‘zgargan. Dostonchilar uni Artorius yoki Artur deb atashgan.

ILK FEODAL DAVLATLAR

Amvrosiy Avreliandan so‘ng brittlarda munosib yo‘lboshchining bo‘lmaganligi anglosakslar tomonidan orolning katta qismi bosib olinishiga imkon beradi. Orolda joylashgan anglosaks qabilalari esa V–VI asrlarda mahalliy brittlarning qolgan qismini bo‘ysundirib, o‘zlarining ilk feodal qirolliklarini tuzishadi. Mahalliy brittlar orolning shimoli-g‘arbiy qismiga surib chiqariladi. Istilo dahshatidan ko‘pgina brittlar va keltlar franklar davlatining Armorika viloyatiga ko‘chib o‘tib, bu yerga Bretan nomini berishadi. Brittlarning bir qismi urushda halok bo‘ladi, qolganlari keyinchalik germanlar bilan aralashib ketadi. Britaniyada kelt, britt tillari emas, istilochi *angllar tili* ustunlikka erishadi. Ular turli lahjalarda so‘zlashgan, lekin yillar o‘tib angllar yashagan Mersiya shevasi tobora keng qo‘llanila boshlaydi. Shu tariqa keyinchalik istilochilar

muomalasidagi til ingliz, mamlakat esa **Angliya** nomini oladi. Bosqinchilarning ko‘plab qabilalari va bo‘ysundirilgan aholining qolgan qismi yagona xalqqa birlasha boshlaydi. Tarixda ular anglosaks nomini oladi.

DAVLAT BOSHQARUVI

Anglosaks qirolliklari monarxiya davlatlari bo‘lsa-da, ammo ularda qirol hokimiyati zaif edi. Qirol zodagonlardan iborat “Donolar kengashi”ga qaram edi. Kengash qonunlarni tasdiqlardi va mamlakatning oliy sud organi hisoblanardi. Hatto kengash qirolni saylashi va uni taxtdan mahrum qilishi ham mumkin edi. Mamlakatda grafliklar tashkil etilib, ularni qirol vakili – sheriflar idora qilishar edi. Shu tariqa ingliz jamiyati asta-sekin feodal tus oladi. Unda yirik yer egalari – *lord*lar paydo bo‘ladi. Yangi tashkil etilgan qirolliklar doimo bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan. 829-yilda Uesseks hukmdori Ekbert oroldagi barcha qirolliklar aholisini yagona davlatga birlashtirib, o‘zini qirol deb e’lon qiladi. Shu tariqa IX asr boshlarida anglosaks davlatlari birlashtirilib, mamlakat umumiy nom bilan **“Angliya”** deb atala boshlandi.

BILAG‘ONLAR UCHUN!

DUMALOQ STOL AFSONASI

Afsonaga ko‘ra, qirol Artur majlislarda ishtirokchilar bir-birlari bilan eng yaxshi joy masalasida bahslashmasliklari va o‘zlarini teng his qilishlari uchun davra stolini o‘ylab topgan. Chunki feodallar o‘rtasida yuqori o‘rindiqqa o‘tirish uchun tez-tez tortishuvlar bo‘lib turar, bu hatto qurolli to‘qnashuvlarga aylanib ketardi. Davra stoli Kamelot qal’asidagi eng katta zalda edi. Uning atrofidagi o‘rindiqlarda ritsarlardan o‘z jasorati bilan olijanob va halol insonlar davrasiga kirish huquqini qo‘lga kiritgan hamda yuqori ritsarlik ordeniga sazovor bo‘lganlari o‘tirgani aytiladi. Manbalarda ritsarlarning soni turlicha keltiriladi, ularning aksariyatida 24 ta bo‘lgani yozib qoldirilgan.

Hozirgi kunda Vinchesterda aynan 24 a’zodan iborat davra suhbati hali ham o‘tkaziladi, bu an’ana yuzlab yillar davomida uzluksiz davom etib kelmoqda.

Qirol Artur davra stolida ritsarlar bilan davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar, mamlakat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarni bosqinchilardan himoya qilish kabi muhim masalalarni muhokama qilgan.

NORMANNLARGA QARSHI KURASH

Birlashgan anglosaks qirolligi tashkil topishi bilanoq normannlarga qarshi qattiq kurash boshlashga majbur bo‘ladi. Normannlarning yo‘lboshchilari jangariligi bilan ajralib turgan.

BUNI YODDA SAQLANG!

Vikinglar *– VIII asr oxiri–XI asr o‘rtalarida Yevropa mamlakatlarida dengiz yo‘li orqali savdo-sotiq bilan shug‘ullangan, shuningdek, qaroqchilik va bosqinchilik yurishlari olib borgan skandinaviyaliklar (Daniya, Norvegiya hududlarida yashagan qabilalar). G‘arbiy Yevropada ularni* ***normannlar****, Rusda* ***varyaglar*** *deb atashgan.*

838-yilda Ekbert bosqinchilarning Angliyaga qilgan hujumlaridan birini qaytara oladi. Ammo ichki nizolardan zaiflashgan anglosaks qirolliklari istilochilarni to‘xtata olmaydi. Oqibatda normannlar 842-yilda Londonni bosib olib, talaydilar va yondirib yuboradilar. Shundan so‘ng juda ko‘plab skandinaviyaliklar shimoli-sharqiy Angliyaga o‘rnashib olib, bu o‘lkaning taraqqiyotiga ta’sir etadi. Daniyaliklar ancha zich joylashgan bo‘lib, ular kelib o‘rnashib qolgan hudud butun o‘rta asrlar davomida *Daniyaga qarashli mintaqa* degan nom bilan yuritilgan.

Vikinglarning Angliyaga hujumi

QIROL BUYUK ALFRED

Normannlar hujumi qirol Buyuk Alfred (871–900) davrida qaytariladi. U ko‘plab qal’alar bunyod ettirib, chegaralarni mustahkamlaydi, dengiz kemalaridan harbiy flot tuzib, qo‘shinni isloh qiladi. Xalq lashkarini normannlarga qarshi tura oladigan, yaxshi harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan jangchilar bilan almashtiradi. Angliyada birinchi marta alohida doimiy soliq olishni joriy qiladi, bu soliq *“daniyaliklar puli”*, ya’ni daniyaliklarga qarshi kurashish uchun yig‘iladigan soliq deb ataladi. Qirol Alfred 879-yilda normannlarni o‘z hukmronligi ostidagi ingliz yerlarining daxlsizligini tan olganliklari haqidagi shartnomani tuzishga majbur etadi. Qirol Alfred zamonida ingliz yerlarida tinchlik qaror topib, ilm-fan rivojlanadi, madaniy yuksalish boshlanadi.

Qirol Alfred juda bilimli, o‘qimishli kishi bo‘lib, ilm-ma’rifatga homiylik qiladi. Uning davrida savodli ruhoniylar tayyorlash uchun yepiskopliklar qoshida yangi maktablar tashkil qilinadi. Shuningdek, *“Anglosakson solnomasi”* tuzilib, muhim voqealar yilma-yil qayd etib borilgan. Agar 250 yil davomida bitilgan ushbu solnoma bo‘lmaganida, tarixchilar Angliyaning o‘rta asrlar tarixi haqida cheklangan ma’lumotlarga ega bo‘lishardi. Alfred tomonidan anglosaks qirolliklarining qadimgi qonunlari, haqiqatlari yig‘ilib, bitta to‘plam qilib chiqarish buyuriladi. Keyinchalik unga *“Alfred haqiqati”* nomi beriladi. Alfred lotin mualliflarining asarlarini anglosaks tiliga tarjima qildirgan, o‘z mamlakati aholisini savodli qilishga intilgan hukmdor hisoblanadi.

DENLONING QAYTARILISHI

Qirol Alfredning o‘limidan so‘ng uning vorislari Denlo (Daniya qonunlari viloyati)ga hujum boshlaydi va uni qo‘shib oladi. Bu davrga kelib, Denloga o‘rnashgan daniyaliklar mahalliy aholi bilan ancha yaqinlashib, aralasha boshlagan edilar. Keyinchalik Angliyada yana ichki nizolar boshlanib, davlat zaiflashadi. Bu davrda Daniya qirolligi tez yuksala boshlaydi.

BIRLASHGAN QIROLLIK

XI asr boshlarida normannlar Angliyaga qayta hujum boshlaydilar. Daniya qiroli Kanut 1013-yili ingliz sohiliga qo‘shin tushurib, uni katta qiyinchiliklarsiz zabt etadi. Kanut ayni paytda Angliya qiroli deb ham e’lon qilinadi. U Angliya bilan birgalikda Shotlandiya, Norvegiya va Shvetsiyani o‘z ichiga olgan yirik davlat barpo qiladi. Lekin uning vafotidan so‘ng tuzgan yirik davlati parchalanib ketadi. Shundan so‘ng ingliz taxtiga Eduard keladi va anglosakslar hukmronligini qayta tiklaydi.

Qirol Vilgelm I

VILGELM ISTILOCHI

1066-yilda Fransiyaning shimolidagi Normandiya gersogi Vilgelm I normand va fransuz ritsarlaridan iborat qo‘shin bilan Angliya qirg‘oqlariga tushadi. U anglosakslarni daniyaliklardan ozod qilmoqchi ekanligini da’vo qilsa-da, lekin aslida Angliyani egallashga intiladi. Shuning uchun u ingliz cherkovida o‘z ta’sirini kengaytirishni orzu qilgan papa tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, anglosaks qo‘shinlarini mag‘lub etadi va o‘zini Angliya qiroli deb e’lon qiladi.

Normandiyaliklar hukmronligi o‘rnatilgach, ko‘plab anglosakslar o‘z mulklarini yo‘qotadilar. Hamma joyda yangi zodagonlarning tosh qal’alari quriladi. Vilgelm I eng yaxshi yerlar va o‘rmonlarni qirol qo‘riqxonalari deb e’lon qiladi. Inglizlar qo‘zg‘olon ko‘tarib, ingliz emas, balki eski fransuz tilida gapiradigan qirolga qarshilik ko‘rsata boshlaydilar.

1066-yildagi Vilgelim I va anglosakslar o‘rtasidagi Gastings jangi

Vilgelm I ning vorislari qirol hokimiyatini mustahkamlashni davom ettiradilar. Xususan, kenja og‘li Genrix I davrida qirollik sudi kuchayadi, shuningdek, qirollik moliya boshqarmasi ham tashkil topadi.

Genrix I ning o‘g‘il farzandi bo‘lmaganligi sababli uning vafotidan so‘ng taxt uchun kurash avj oladi. Uzoq davom etgan bu kurashda qizining o‘g‘li Genrix II (1154–1189) g‘alaba qozonadi.

Genrix II davrida moliyaviy va harbiy islohotlar o‘tkaziladi. Baronlarga harbiy xizmat o‘rniga xazinaga “qalqon puli” solig‘i to‘lashlariga ruxsat beriladi. Bu islohot qirolga muntazam yollanma qo‘shin tuzish imkonini beradi. Shu tariqa Angliyada qirollar hokimiyati kuchaya bordi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Britaniyaning tub aholisi va u yerga bosqinchilik yurishlari qilgan german qabilalari haqida so‘zlab bering.**
2. **Qirol Artur kim, u haqida nimalarni bilasiz?**
3. **Buyuk Alfred faoliyati haqida nimalar yodingizda qoldi?**
4. **Normannlar istilolari haqida bilganlaringizni so‘zlab bering.**
5. **Nima sababdan Britaniya keyinchalik Angliya deb atala boshlandi?**

5-
mavzu



Muqaddas Rim imperiyasi

Genrix I va Karl III uchrashuvi

SIZ BILIB OLASIZ:

- **german qirolligining tashkil topishi;**
- **Otton I ning qiroldan imperatorga aylanishi;**
- **nima uchun yangi davlat Muqaddas Rim imperiyasi deb atalishi;**
- **german imperatorlari va katolik cherkovi: raqobat va kurashi haqida.**



GERMANIYA QIROLLIGI

Karolinglar sulolasining Sharqiy Frank qirolligidagi boshqaruvi 911-yilda yakun topadi. Bu paytga kelib qirol hokimiyati zaiflashib qolgan edi. Mahalliy zodagonlar 919-yili gersoglardan eng qudratlisi bo‘lgan Saksoniya gersogi Genrixni Sharqiy Frank davlati hukmdori etib saylashadi. Bu sana Germaniya qirolligining paydo bo‘lgan yili hisoblanadi.

Bu paytda Germaniyaga shimoldan normannlar, janubdan ko‘chmanchi vengerlar hujumlar qilib turgan. Uzoqni ko‘zlab, aql bilan ish boshlagan Genrix mamlakatni kuchaytirishga harakat qiladi. Vengerlar bilan 9 yilga tinchlik sulhi imzolab, kuchli otliq qo‘shin tuzishga kirishadi. Uning buyrug‘iga binoan, qishloqlardagi har 9 xo‘jalikdan bittadan kishi jangchilikka tayyorlanish uchun burglarga (qal’alarga) ko‘chiriladi. Shu zaylda otliq qo‘shin kuchaytirilib, Genrix I ning vorisi Otton I 955-yili Lex daryosi sohilidagi jangda vengerlarning otliq qo‘shinini yengadi. Shundan so‘ng vengerlar o‘z hujumlarini to‘xtatib, o‘troq turmush tarziga o‘tadilar, xristianlikni qabul qiladilar hamda nemislarning ta’siriga o‘ta boshlaydilar. Keyinchalik venger feodallari nemislarning slavyanlarga qarshi olib borgan kurashlarida bir necha marta ittifoqchi bo‘lganlar.

Qirol Otton I

MUQADDAS RIM IMPERIYASINING TASHKIL TOPISHI

Vengerlarni mag‘lub etgan Otton I eng qudratli qirolga aylanadi. U qirollik unvoniga qanoatlanmay, 962-yili Italiyaga yurish qilib, Rim papasi Ioann XII tomonidan imperator deb e’lon qilinishiga erishadi.

Otton I asosiy e’tiborini sharqqa emas, balki Italiyaning janubiga qaratadi, chunki Italiya german imperatorlarining “dunyoga hukmron bo‘lish” rejalarida asosiy o‘rin tutar edi. Buyuk Karl kabi Otton ham o‘z imperiyasini Rimning davomchisi hisoblab, uni Rim (keyinchalik Muqaddas Rim) imperiyasi deb atagan.

BUNI YODDA SAQLANG!

*Muqaddas Rim imperiyasi 962-yildan 1806-yilgacha hukm surgan. Xristian katolik cherkovi homiyligi ostida bo‘lgani uchun unga **“muqaddas”** nomi berilgan.*

Imperatorlar, ayniqsa Otton I ning nabirasi Otton III o‘z hokimiyati ostida butun xristian dunyosini birlashtirish orzusida bo‘lgan. U Rimni Muqaddas Imperiyaning doimiy poytaxtiga aylantirishga harakat qildi va hatto qadimgi Rim imperatorlari saroyi o‘rniga o‘ziga saroy qurdiradi. Biroq rimliklar unga qarshi bosh ko‘tarib chiqishadi va imperator saroyini qamal qiladilar. Shundan keyin Otton III Rimda qolishdan qo‘rqib, Ravennaga ko‘chib o‘tadi. Muqaddas Rim imperiyasida hech qachon hukumat o‘tiradigan doimiy bitta poytaxt bo‘lmagan. Bu paytda imperiya tarkibiga Germaniya va Shimoliy Italiya kirgan. Ammo imperatorlarning Italiyadagi hokimiyatlari zaif bo‘lganidan, barqarorlikni ta’minlash uchun har bir yangi qirol bu yerga yurish qilib, Rimda imperatorlik tojini kiygan, hokimiyat ramzlarini qabul qilgan.

MADANIY YUKSALISH

Otton I davrida Germaniyada madaniy yuksalish boshlanadi, bu odatda “Otton Uyg‘onish davri” deb ataladi. Imperator saroyida adabiy faoliyat keng olib boriladi, qo‘lyozmalar tayyorlanadi, skriptoriya (ustaxona)lar ochiladi, lotin tilini o‘rganish rivojlanadi. Otton I ning o‘g‘li Otton II Vizantiya malikasiga uylanib, Vizantiya bilan madaniy aloqalarni mustahkamlashga hissa qo‘shadi. Mamlakatda o‘g‘il va qiz bolalar maktablari paydo bo‘ladi. O‘qituvchilar orasida bilimdon rohib Gerbert ajralib turardi. U bo‘lajak qirol Otton III ga ustozlik qiladi.

TARIXIY MUSHOHADA!

Zamondoshlari “dunyo mo‘jizasi” deb laqab qo‘ygan Otton III davrida tantanali saroy marosimlari ishlab chiqilgan, imperator hokimiyatining timsollari: toj, but shakli solingan oltin shar, saltanat hassasi yaratilgan.

DAVLAT VA CHERKOV MUNOSABATLARI

Imperatorlar o‘z faoliyatida nemis cherkovi ko‘magiga tayanganlar, unga homiylik qilish bilan birga nazoratda ham ushlab turganlar. Cherkovga ko‘plab yer-mulk va imtiyozlar berilgan. Shuningdek, hukmdorlar o‘zlariga sodiq bo‘lgan ruhoniylar orasidan yepiskop va abbatlarni tayinlaganlar. Imperatorlar hatto Rim papalarini tayinlab, kerak bo‘lsa, ularni chetlashtirganlar. Shu tariqa cherkov qirollik xizmatiga o‘tkazilgan va uning asosiy tayanchiga aylangan. Imperatorlarning cherkovni davlat apparatining bir qismiga aylantirishga urinishlari ko‘p o‘tmay uning kuchi dunyoviylikdan yuqori deb hisoblagan papalarning noroziligiga sabab bo‘ladi. XI asrdan papalar xristian cherkovi ustidan nazoratni qayta qo‘lga olish uchun imperatorlarga qarshi kurash boshlaydilar. Xristian dunyosiga hukmronlik qilish uchun imperator va papalar o‘rtasida uzoq davom etgan bu kurash imperiyaning zaiflashib borishiga olib keladi.

Otton III

TARIX YON DAFTARCHANGIZGA KIRITING!

Otton I Rimda ko‘plab yepiskoplar ishtirokida o‘ziga ma’qul kelmagan papalardan birini sud qilib, lavozimidan chetlashtirgan. Otton III esa o‘zining ustozi rohib Gerbertni Silvester II nomi bilan Rim papaligiga saylanishiga erishgan. Manbalarda yozilishicha, Gerbert kambag‘al oiladan bo‘lib, bilimga chanqoqligi tufayli arablar Ispaniyasidagi Qurdoba (Kordova) va Ishbiliya (Seviliya) shaharlariga borib tahsil olgan. Imperator xonadoniga yaqinlik unga arxiyepiskop, so‘ng papalik lavozimlariga yo‘l ochadi.

FEODAL TARQOQLIK

Har bir yangi qirol imperatorlik tojini kiyish uchun Rimga safar qilishni zarur deb bilgan. Ko‘pincha bunday safarlar uzoq davom etgan urushlarga aylanib, qirollar uzoq vaqt Germaniyani tark etishlari kerak bo‘lgan. Masalan, 996-yilda Rimga borib toj kiygan imperator Otton III o‘z hayotini Rim imperiyasini tiklashga bag‘ishlab, shu yerda umrbod qolishga qaror qiladi.

Imperatorning uzoq vaqt Germaniyada bo‘lmaganligi yirik feodallarning mustaqillikka intilishining kuchayishiga va sulolaviy nizolarga olib keladi.

Saksoniyaliklar sulolasiga mansub bo‘lgan oxirgi imperator Genrix II (1014–1024) ancha ehtiyotkorlik bilan siyosat yurgizadi. U Italiyadagi katta feodallar va shaharliklarning o‘ziga vassalligi bilan kifoyalanadi. O‘zi esa Germaniyada yashab, turli yon berishlar orqali nemis gersoglarini itoat ettirib, 1018-yilda Rimda imperator sifatida toj kiyadi. Ko‘p o‘tmay yangi imperator Germaniyaga qaytib keladi va Italiya shaharlarini nemis yepiskoplari boshqara boshlaydi. Uning vafotidan so‘ng Italiyaning asosiy qismi nemis qirollari tasarrufidan chiqib ketadi.

SIYOSIY TARAQQIYOT

1137-yilda Germaniyada Shtaufenlar sulolasi hokimiyat tepasiga keladi, uning eng taniqli vakili Fridrix I Barbarossa (1152–1190) edi. Uning davrida Muqaddas Rim imperiyasi siyosiy jihatdan o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga va harbiy qudratiga erishadi. Fridrix I jasur va shafqatsiz sarkarda bo‘lishi bilan bir qatorda, iqtidorli siyosatchi, davlat boshqaruv ishlarini juda yaxshi o‘zlashtirgan hukmdor edi. Fridrix I Vengriya, Chexiya, Polsha va Daniya qirollariga o‘z hokimiyatining ustunligini tan oldirishga intiladi. Hatto Angliya va Fransiyadan ustunlikka erishishni orzu qiladi. Imperator turli diplomatik usullar orqali Germaniyadagi gersog va graflarning o‘zaro urushlariga chek qo‘yib, mamlakatda tinchlik o‘rnatish hamda imperiya hududlarini kengaytirishga ham erishadi.

Dastlab Fridrix I diqqat-e’tiborini salib yurishlari tufayli boyib ketgan Italiya shaharlariga qaratadi: u yerlarga besh marotaba yurish qilib, o‘z hokimiyatini o‘rnatishga intiladi. Imperatorga Rimda shahar aholisi va papa o‘rtasida boshlangan kurash qo‘l keladi. Bundan foydalangan Fridrix I 1155-yilda Rimga borib toj kiyadi va imperator deb e’lon qilinadi. Imperator Italiyani batamom bo‘ysundirish va o‘ziga tobe viloyatga aylantirish siyosatini yurita boshlaydi. 1158-yilda katta qo‘shin bilan yurish boshlab, Italiyaning shimoliy shaharlarini bo‘ysundiradi. Ammo Milan shahri boshchiligida Lombardiya shaharlari bosqinchilarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Fridrix I qo‘zg‘olonni bostirish davomida Milan aholisini qatl ettirib, shaharni vayron qiladi. Lekin Milan XII asrning 60–70-yillarida qayta tiklanib, yangi jangga hozirlik ko‘ra boshlaydi. 1176-yil Lenyano jangida imperator qo‘shini italiyaliklardan mag‘lubiyatga uchraydi. Fridrix I Shimoliy Italiya shaharlariga erkinlik huquqini berishga va mustaqilligini tan olishga majbur bo‘ladi. Italiyaning shimolidagi katta yer-mulklar qo‘ldan ketgan bo‘lsa-da, Fridrix I o‘g‘li Genrixni Sitsiliya malikasi Konstansiyaga uylantirish orqali, Sitsiliya orollaridan tashqari, Italiyaning janubiy qismini ham o‘z ichiga olgan kuchli qirollikni qo‘lga kiritadi. Keyinchalik uning vorislari Sitsiliyada qolib, shu yerdan turib imperiyani boshqara boshlaydilar. Bu esa Germaniyada nemis gersoglarining o‘zboshimchaliklarini kuchaytirib, sulolaning inqirozini tezlashtiradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Karl Martell, Buyuk Alfred va Genrix I lar o‘tkazgan harbiy islohotlarning sabablarini taqqoslang, o‘xshash tomonlari va tafovutlari haqida so‘zlab bering.**
2. **Nima sababdan Otton I tuzgan imperiya “Muqaddas Rim imperiyasi” deb nomlangan?**
3. **Sizningcha, nima uchun Otton III ni “dunyo mo‘jizasi” deyishgan?**

6-mavzu

Vizantiya: G‘arb va Sharq orasida

Imperator Konstantin forumi

SIZ BILIB OLASIZ:

- **395-yilgi bo‘linishdan so‘ng Sharqiy Rim imperiyasining taqdiri qanday kechgani;**
- **Vizantiyaning ilk o‘rta asrlar Yevropasidagi o‘rni qanday bo‘lganligi haqida.**

ESLAB KO‘RING!

- **Nima sababdan Rim imperiyasi G‘arbiy va Sharqiy qismlarga bo‘linib ketgan?**

Vizantiya deyarli ming yil davomida Yevropaning eng qudratli davlati bo‘lib qolgan hamda antik davr va Rim imperiyasi an’analarini davom ettirgan.

VIZANTIYANING PAYDO BO‘LISHI

Imperator Feodosiyning o‘g‘illari 395-yili Rim imperiyasini ikki mustaqil davlatga bo‘lib olishadi: biri – poytaxti Rim shahri bo‘lgan G‘arbiy Rim imperiyasi, ikkinchisi – poytaxti Kanstantinopol shahri bo‘lgan Sharqiy Rim imperiyasi (uni yunonlar koloniyasi nomidan Vizantiya deb ham atashadi). Katta o‘g‘il Arkadiyga imperiyaning nisbatan boy hududlari tegadi, unga Bolqon va Kichik Osiyo yarimorollari, Suriya, Falastin, Misr kirgan. Aholisi asosan yunonlar, suriyaliklar, armanlar, yahudiylar, misrliklardan iborat bo‘lgan. Yunonlar nisbatan ko‘pchilikni tashkil etgani uchun, yillar o‘tib imperiyada lotin tili o‘rnini yunon tili egallaydi. Yevropada Vizantiya aholisini yunonlar deb atashgan, lekin ular o‘zlarini yunoncha romeylar – rimliklar deb nomlar edilar. Vizantiyada qulchilik saqlanib qolgan bo‘lsa-da, aholisining katta qismini soliq to‘laydigan erkin dehqonlar tashkil etishi, sun’iy sug‘oriladigan maydonlardan mo‘l hosil olinishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlagan. Imperiyada VI asrda ham Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Edessa singari yirik savdo va hunarmandchilik markazlari gullab-yashnagan. Bu omillar xalqlarning buyuk ko‘chishlari davrida ham iqtisodni, kuchli qo‘shinni, Rim an’analariga tayangan davlatchilik va antik ma-

daniyatni saqlab qolish imkoniyatini beradi. Konstantinopol va Aleksandriyani muhtasham binolar, ko‘p qavatli uylar, haykallar va favvoralar o‘rnatilgan maydonlar bezab turgan. Shaharlarda hunarmandchilikning shishasozlik, movut, ipak gazlamalar to‘qish, zargarlik, me’morchilik sohalari yuksalgan. Ispaniyadan Xitoyga qadar bo‘lgan hududlardagi mamlakatlar savdogarlari romeylar bozorlariga shoshilganlar. Konstantinopolni ramziy ma’noda Osiyo va Yevropani bog‘laydigan “oltin ko‘prik” deb ataganlar. Vizantiyalik savdogarlar G‘arbning bozorlarida hashamli kiyimlar-u zeb-ziynatlar, qurol-yarog‘lar-u kamyob idishlar va cherkov jihozlarini xarid qilishgan. Konstantinopol Yevropaning eng yirik shahriga aylangan, Vizantiya oltin tangasi (numisma) asrlar davomida ishonchli xalqaro pul hisoblangan.



VASILEVS HOKIMIYATI

Sharqiy Rimni ***vasilevs*** (yunoncha, “podsho”) boshqargan. Vasilevslar Yevropa, Old Osiyo va Shimoliy Afrikani boshqarish huquqini rimliklardan olgan. Imperator (vasilevs) amaldorlarni tayinlagan, qonunlar chiqargan, qo‘shinni boshqargan, urush e’lon qilib, tinchlik sulhi tuzgan. Lekin u amaldorlar va qo‘shin bilan hisoblashishga majbur bo‘lgan, qolaversa, imperator unvonining merosiyligi to‘liq kafolatlangan emasdi. Unvonning muqaddasligi imperatorning daxlsizligini anglatmagan: imperiyaning ming yillik tarixida ularni taxtdan ag‘darib tashlashlar va hatto qatl etishlar tez-tez uchrab turgan.

Ayo Sofiya (Avliyo Sofiya)

YUSTINIAN DAVRI

Vizantiya o‘z qudrati cho‘qqisiga Yustinian I (527–565) davrida erishadi. U aslida kambag‘al dehqon oilasida tug‘ilgan. Amakisi Yustin qo‘shinda oddiy askarlikdan sarkarda darajasiga ko‘tarilib, imperatorlik taxtini egallaydi. Yustin jiyani Yustinianni saroyga keltirib, uning yaxshi ta’lim olishini ta’minlaydi. Amakisining vafotidan so‘ng Yustinian taxtga o‘tiradi. U atrofiga iqtidorli sarkardalar, huquqshunoslar, tarixchilarni to‘playdi. Uning davrida me’morchilikning ajoyib namunalari: Konstantinopoldagi Ayo Sofiya (Avliyo Sofiya), Ravennadagi (Italiya) San-Vitale ibodatxonalari bunyod etilgan. Imperatorning buyrug‘iga

Yustinian I

Vizantiya tangasi

binoan, huquqshunoslar qadimgi Rim qonunlari majmuini yaratishadi. Lekin imperator shafqatsiz va chaqimchilikka o‘ta ishonuvchan edi.

Yustinianning orzusi Rim imperiyasining 395-yildan oldingi chegaralarini tiklash bo‘lgan. Bu orzusini ro‘yobga chiqarish uchun u Shimoliy Afrikani, uzoq urushlardan so‘ng Italiyaning katta qismini istilo qilsa-da, uning bosib olingan o‘lkalarda qullikni tiklashga bo‘lgan intilishi mahalliy aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydi. Uning g‘arbga qilgan harbiy yurushlari, sharqda Eron bilan janglari natijasida xazinaning bo‘shab qolishi aholini xonavayron qilib, qo‘shinni holdan toydirgan.

DUSHMANLAR QURSHOVIDA

Yustinianning vafotidan so‘ng Vizantiya hududlari sekin-asta qisqarib boradi. Langobardlar deyarli butun Ispaniyani tortib oladilar. Imperator Irakliy I Eronga qarshi kurashib, Xusrav II qo‘shinini mag‘lub etsa-da, urush har ikki tomonni zaiflashtiradi, bu esa oradan ko‘p o‘tmay arablarning Misr, Suriya, Falastinni bosib olishiga, Bolqon yarim orolida Bulg‘oriya podsholigining vujudga kelishiga imkon beradi. Imperiyaga keyingi asrlarda slavyanlar, avarlar, pecheneglar (bijanaklar), vengerlar, bolgarlar, normannlar, saljuqiy turklar bosqinchilik yurishlari qilishgan, Konstantinopol ham bir necha bor qamal qilingan.

Imperiyaning ahvoli qancha og‘irlashsa, “diplomatiya san’ati” – muzokaralar olib borish, ittifoqlar tuzish mahorati muhim ahamiyat kasb eta borgan. Shuning uchun zamonaviy diplomatiya asoslariga aynan Vizantiya diplomatiyasining ko‘plab qoidalari kirgan.

TARIXIY MUSHOHADA!

Vizantiya imperatorining saroyi o‘zining salobati va hashamatliligi bilan xorijdan kelgan mehmonlarni lol qoldirgan. Dabdabali qabullar paytida vasilevs durlar bilan kashtalangan hashamatli kiyimlarda bo‘lgan; to‘q qizil rangni faqat imperator o‘z liboslarida qo‘llashi mumkin bo‘lgan. Tantanali marosimlar imperatorni o‘z aholisi va xorijiy mehmonlar nazdida erishib bo‘lmaydigan mavqe, nufuzga ko‘targan.

Konstantinopol katta saroyi (qayta tiklangan)

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Vizantiya imperiyasi qanday vujudga kelgan?**
2. **Sharqiy Rimni inqirozdan asrab qolgan omillarni aytib bering!**
3. **Vasilevs hokimiyatni qanday boshqargan?**
4. **Yustinian I ning imperatorligi haqida nimalarni bilasiz?**
5. **Sharqiy Rim imperiyasining keyingi taqdiridan nimalar yodingizda qoldi?**

7-
mavzu

Slavyan davlatlarining tashkil topishi

Slavyan qabilalari

SIZ BILIB OLASIZ:

- **qadimgi slavyanlar;**
- **slavyan yozuvining yaratilishi;**
- **ilk slavyan davlatlarining paydo bo‘lishi;**
- **Kiyev Rusi davlati tashkil topishining shart-sharoitlari;**
- **Kiyev Rusiga xristianlikning kirib kelishi;**
- **Yaroslav Donishmand islohotlari hamda Kiyev Rusi mamlakatida madaniyatning yuksalishi haqida.**

Slavyan davlatlari VII–X asrlarda tashkil topdi. Xristian dinining qabul qilinishi slavyanlarni Yevropa xalqlari oilasiga qo‘shilishini ta’minlab, ularning hukmdorlari – knyazlari hokimiyatining mustahkamlanishiga, madaniyatining yuksalishiga olib keldi.

QADIMGI SLAVYANLAR

Slavyan qabilalarining ajdodlari Elba daryosining yuqori oqimidan Dneprning o‘rta havzasiga qadar bo‘lgan hududlarda yashaganlar. Bu hududlardan slavyanlarning bir qismi Elba bo‘ylab shimoli-g‘arbga, yana bir qismi Sharqiy Yevropaga, uchinchi qismi janubga siljib, VI asrda Dunay daryosi sohiliga yetadi. Ularning barchasi bitta tilda so‘zlashib, o‘zlarini slavyan (sloven) deb ataganlar, bu “tushunarli bir xil tilda so‘zlashuvchilar” degan ma’noni anglatadi.

Slavyan jangchilari

TARIXIY MUSHOHADA!

Turli yo‘nalishlarda harakatlanish davomida slavyan qabilalari g‘arbiy, sharqiy va janubiy guruhlarga ajralganlar: ***g‘arbiy slavyanlarga*** *polyaklar, chexlar va slovaklar kirgan;* ***sharqiy slavyanlar*** *– rus, ukrain va belarus xalqlarining ajdodlari;* ***janubiy slavyanlarga*** *bolgarlar, serblar, xorvatlar, chernogorlar, slovenlar, shimoliy makedoniyaliklar mansub bo‘lganlar.*

Slavyanlarning asosiy mashg‘ulotlari dehqonchilik edi. Chorvachilik, baliqchilik, ovchilik, asalarichilik (yovvoyi asal yig‘ish) ham xo‘jalikda muhim o‘rin tutgan. Mo‘yna, asal va asalari mumini qo‘shni qabilalarga sotganlar.

Slavyanlarning ijtimoiy hayoti qadimgi germanlarniki bilan ko‘plab o‘xshash jihatlarga ega bo‘lgan. Jumladan, jamiyatdagi urug‘-qabilachilik tuzumi, xalq majlisining muhim o‘ringa ega ekanligi, harbiy drujinaga tayangan knyaz hokimiyatining kuchayishi, shuhrat va harbiy o‘ljalarga erishish uchun qo‘shnilari ustiga bosqinchilik urushlari uyushtirish kabilar. Tarixiy taraqqiyot davrida slavyanlarda dastlab qabila ittifoqlari, keyinchalik ilk davlatlar vujudga keladi.

Kirill va Mefodiy

SLAVYAN YOZUVINING YARATILISHI

Hozirgi Chexiya davlati o‘rnida IX asr boshlarida Buyuk Moraviya davlati paydo bo‘ladi. Uning ilk knyazi nemis yepiskopidan xristian dinini qabul qiladi, ammo uning vorisi nemis ruhoniylarining ta’siridan qutulish maqsadida provaslav cherkovi patriarxidan Vizantiyadan din bo‘yicha ustozlar yuborishini so‘raydi. Moraviyaga 863-yili ikki rohib – Kirill va Mefodiylar keladi. Ular slavyan alifbosini yaratib, Injilni slavyan tiliga tarjima qila boshlaydilar. Yunon yozuvi asosidagi slavyan yozuvi keyinchalik “kirill yozuvi” nomini oladi.

Birodar-rohiblarning izdoshlari ularning faoliyatini Bolgariya, Serbiya, Xorvatiyada davom ettiradilar. Kirill yozuvi Rusga ham yoyiladi. Slavyan yozuvining yaratilishi, Injilning tarjima qilinishi slavyanlar madaniyatining yuksalishiga ulkan hissa qo‘shdi.

Buyuk Simeon I

BOLGARIYA

Itil (Volga) daryosi bo‘yida yashagan turkiy bulg‘or qabilalari xalqlarning ko‘chishlari davomida g‘arbga siljib, Dunay daryosining janub tomonidagi Vizantiya hududlarida yashagan slavyanlarni o‘zlariga bo‘ysundiradi. Ilk slavyan davlati bo‘lgan Bulg‘or podsholigiga 681-yili podsho Asparux tomonidan asos solinib, hukmron sulola nomini istilochilardan olgan. Ammo son jihatidan kam bo‘lganliklari bois, bulg‘orlar sekin-asta slavyanlar bilan aralashib ketadilar. Bolgarlar Vizantiyaning ta’siri ostida xristianlikni qabul qilganlar. Bolgariya eng kuchaygan davrda podsho Simeon (893–927) qo‘shni Vizantiya imperiyasi bilan muvaffaqiyatli urushlar olib borgan. Lekin XI asr boshlarida zaiflasha boshlagan Bolgariyani Vizantiya istilo qiladi. Mamlakat faqat XII asr so‘ngidagina mustaqillikka erishadi.

CHEXIYA VA POLSHA

Buyuk Moraviya parchalangach, uning hududidagi slavyanlarni chex qabilasi bo‘ysundirib, X asr boshlarida Chexiya davlatiga asos soladilar. Tez orada Chexiyada nemis yepiskoplari ta’sirida xristian dini tarqaladi. Mamlakat XI asrda Muqaddas Rim imperiyasi tarkibiga kiritilgan bo‘lsa-da, ammo o‘z mustaqilligini sezilarli darajada saqlab qoladi. Keyinchalik german imperatori Genrix IV (1085) Rim papasiga qarshi kurashdagi yordami uchun chex knyaziga qirollik tojini in’om etadi. Shu

Polsha knyazi Meshko I

tariqa mamlakatda qirol hokimiyati kuchayib borib, XIII asrda Chexiya davlati Yevropada eng kuchli davlatlardan biriga aylanadi.

Polsha davlati X asr o‘rtalarida vujudga kelgan. Knyaz Meshko I 966-yili xristianlikni nemis yepiskoplaridan qabul qiladi. Polsha cherkovi 1000-yili arxiyepiskoplik rutbasini olib, nemis cherkovidan mustaqillikka erishadi. Meshko I ning vorisi Boleslav I Jasur hukmronligi paytida qirollik tojiga erishiladi. Xristianlikning Rim yoki Konstantinopoldan qabul qilinishi slavyanlarning keyingi siyosiy yo‘nalishi, yozuvi va madaniyati an’analarining shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Jumladan, Polsha, Chexiya, Xorvatiyada Rimning ta’siri va lotin yozuvi ustunligi qaror topgan bo‘lsa, Bolgariya, Serbiya va Kiyev Rusida Konstantinopol ta’siri va kirill alifbosi yetakchilik qilgan. Ushbu ta’sir san’at va me’morchilikda ham yaqqol namoyon bo‘lgan.

KIYEV RUSI DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

Sharqiy slavyan qabilalari yerlarida tashkil topgan davlat Rus deb nomlangan. Yilnomalarda yozilishicha, sharqiy slavyan qabilalari yetakchilari IX asrning ikkinchi yarmida mamlakatni boshqarish uchun Ryuriklar xonadonidan knyaz chaqirishga qaror qiladilar. Bu taklif o‘sha davrda Yevropada keng bosqinlar uyushtirayotgan vikinglarga qarshi chora sifatidagina emas, shuningdek, slavyan qabilalari orasidagi raqobatni tugatishga qaratilgan edi. Taklifga binoan kelgan aka-ukalar dastlab Novgorod, Beloozero va Izborskda knyazlik qilganlar. Ma’lum muddatdan so‘ng ulardan faqat Ryurik qolib, uning vorislari Rusni ko‘p asrlar davomida boshqarganlar. Ryurikning davomchisi Oleg 882-yili Kiyevni egallab, Kiyev Rusi davlatiga asos soladi va Dnepr havzasidagi slavyan qabilalarini bo‘ysundirishda davom etadi. Knyazlar Igor va Svyatoslavlar davrida ularning harbiy drujinalari pecheneg, xazar qabilalariga qarshi, shuningdek, janubda Vizantiyaga qarshi mudofaa janglari va bosqinchilik urushlari olib borganlar.

Svyatoslavning vorisi Vladimir davrida knyazlik ichki va tashqi dushmanlariga qarshi kurashni davom ettirgan. Vladimirning nomi Rus tarixida alohida o‘rin tutadi. Buning sababi esa uning harbiy faoliyati bilan emas, balki 988-yili Vizantiya provaslav cherkovi udumlariga binoan xristianlikni qabul qilib, aholiga ham shu dinni qabul qildirishi bilan bog‘liq.

RUS YAROSLAV DONISHMAND DAVRIDA (1019–1054)

Vladimirning vafotidan so‘ng vorislar o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurashda to‘ng‘ich o‘g‘li Yaroslav ustun keladi. Knyazning harbiy sohadagi ilk muvaffaqiyati bijanaklarni (pecheneglarni) uzil-kesil mag‘lub etishi bo‘lgan. Lekin uning “Donishmand” nomiga sazovor bo‘lishi bunyodkorlik bilan bog‘liqdir. U Volga bo‘yida Yaroslavl shahriga asos solgan. Uning davrida davlat hududlari ancha kengayadi.

Knyaz me’morchilik inshootlari qurilishiga alohida e’tibor qaratib, Kiyevdagi Avliyo Sofiya ibodatxonasini bunyod ettirgan. U hozirga qadar yaxshi saqlangan. Keyinchalik shu nomdagi ibodatxonalar Polosk va Novgorod shaharlarida ham quriladi. Monastirlar huzurida maktablar ochiladi. Novgorod va Kiyevda yilnomalar tuzila boshlanadi. Lotin va yunon tillaridagi asarlarni rus tiliga tarjima qilish ishlari yo‘lga qo‘yiladi. “Rus haqiqati” nomli qonunlar tuzilib, Yaroslavning vorislari davrida unga yangi moddalar kiritiladi. Yaroslav va uning vorislari davrida Kiyev Rusi knyazligining asosiy tashqi dushmanlari qipchoq qabilalari (ruslar ularni “poloveslar” deyishgan) bo‘lib qoladi. Qipchoqlar Yoyiq (Ural) daryosidan Dunaygacha bo‘lgan hududlarni egallaganlar. Dnepr daryosi havzasidagi qipchoqlar birlashib, XI asrning so‘ngida Rus knyazi Vladimir Monomax qo‘shinlariga qarshi urushlar olib borganlar. Monomax Kiyev Rusi knyazi hukmdori bo‘lgach (1113–1125), urush harakatlarini qipchoqlar yashaydigan hududlarga ko‘chirgan. Knyazning vafotidan so‘ng qarama-qarshiliklar qaytadan boshlanib, knyazlik siyosiy tarqoqlikka yuz tutadi.



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Kirill va Mefodiylar faoliyati slavyan madaniyatining yuksalishida qanday o‘rin tutgan?**
2. **Nima uchun Bulg‘or podsholigi Bolgariyaga aylangan?**
3. **Chexiya va Polsha davlatlari taraqqiyotidagi umumiylikni aniqlang.**
4. **Rim yoki Vizantiya hayotining qanday jihatlari slavyan davlatlariga ta’sir etganligini tavsiflab bering.**
5. **Sizning fikringizcha, Rus aholisining xristianlikni qabul qilishi qanday ahamiyatga ega?**

Buyuk Xitoy devori

"Changcheng" so‘zi xitoy tilida "uzun devor" degan ma'noni anglatadi. Bu devor sayyoramizdagi eng uzun devor bo‘lib, uning qurilishi miloddan avvalgi IV asrdan boshlanib, ko‘p asrlar davomida, ya'ni 1644-yilga qadar qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilgan.



Machu-Pikchu

U Perudagi balandlikda joylashgan bo‘lib, ink-larning yo‘qolgan shahri hisoblanadi. Shahardagi barcha binolar an'anaviy ink texnologiyasidan foydalanib barpo etilgan: silliqlangan turli o‘lchamdagi toshlar bir-biriga jips yopishtirilgan, ularning orasiga biror aralashma qo‘shilmagan.

O‘rta Osiyodagi saljuqiylar haqida

Tarixchi va geograf olim Hamdulloh Qazviniy Abul-Ala Axvalaning “Tarix” asariga murojaat qilgan holda, saljuqiylarning IX asrda Buxoro va Samarqand shaharlariga kelib joylashganligini aytib o‘tadi.

II BOB

V–XIII ASRLARDA OSIYO VA AMERIKA

8-
mavzu

Yangi din beshigi

SIZ BILIB OLASIZ:

- arablarning turmush tarzi;
- dunyoda yangi din – Islomning vujudga kelishi;
- Islom dinining arkonlari haqida.

ARABISTON VA UNING AHOLISI

Arab qabilalari Arabiston yarimoroli va unga tutash hududlarda yashab kelganlar. Ular somiy (semit) tilli xalqlardan bo‘lib, bu til oilasida arablardan tashqari, yahudiylar, ossuriylar, finikiyaliklar va oromiylar ham so‘zlashganlar. Bu xalqlar uzoq o‘tmishda Sharqning eng qadimgi davlatlari: Akkad, Bobil, Isroil podsholiklarini tuzganlar.

Ko‘chmanchi arablar – badaviylar (sahroyilar) boshqa chorvador qabilalar kabi tuyachilik, qo‘ychilik va yilqichilik bilan shug‘ullanganlar. Ular cho‘l-u dashtlarda, o‘t-o‘lanlar o‘sadigan yaylovlarda mollarini boqib, ko‘chib yurganlar. Arabistonning katta qismi odamlar tuyasiz yura olmaydigan hududlardan iborat edi. Badaviylar tuya suti va go‘shtini iste’mol qilgan, junidan mato hamda chodir uchun kigiz tayyorlagan, tuyani minib jang qilgan va harakatlanganlar.

Arablar hayoti

Yarimorolning janubi va g‘arbidagi o‘troq dehqonchilik aholisi soy, jilg‘alar, quduqlar bo‘ylarida xurmo bog‘lari va uzumzorlar barpo etganlar. Shimoldan janubga – Vizantiyadan Afrikaning sharqiga, Hindistonga karvon yo‘llari aynan shu hududlar orqali o‘tgan. Buyuk Ipak yo‘li bo‘yidagi mamlakatlarda tinchlik paytlarida karvon yo‘llari Arabistonga siljigan. Zamonlar o‘tib karvon yo‘llari bo‘yida aholi manzilgohlari, shaharlar vujudga keladi. Ularda yashagan aholi savdo karvonlari va sayyohlarga xizmat ko‘rsatganlar. Ulardan biri – Makka shahri ko‘chmanchilar va mahalliy aholining mol ayirboshlash hamda savdo markazi bo‘lgan. Arabistonning yuksak rivojlangan viloyatlari Yaman va Xijoz bo‘lgan. Yaman unumdor yerlari, mevali bog‘lari, xurmozorlari bilan nom qozongan. Arablarda Yaman “haq”, “baxtli” ma’nolarini bildirgan. Hindistondan Vizantiyaga ziravorlar, ipak gazlamalar, marvarid va boshqa narsalar tashiladigan yo‘l ustida joylashganligi bois, Xijoz va Yamanning dengiz sohillarida shaharlar vujudga kelgan. Qurg‘oqchilik davrida cho‘ldagi ko‘chmanchilar o‘troq aholi yurtlariga, xususan, Xijoz va Yamanga talonchilik bosqinlarini ham uyushtirib turganlar. Arablarning ko‘pchiligi ko‘p xudolik dinlariga sig‘inganlar. Ular quyosh, oy va yulduzlarga e’tiqod qilganlar. Har bir qabila turli ilohlarni e’zozlaganlar. Makkadagi Ka’ba umumiy ziyoratgoh bo‘lib, unda qabila ilohlari, but va sanamlari saqlangan. VI–VII asrlarda aholi soni ko‘payib, qabilalar orasida suv manbalari va yaylovlar uchun kurash kuchayadi. Urushlarda olingan harbiy o‘ljalar qabila sardorlari va harbiy yo‘lboshchilarning boyishini, mulkiy tabaqalanish kuchayib, urug‘chilik tuzumining inqirozini tezlashtiradi.

BILAG‘ONLAR UCHUN!

Badaviylar qadim zamonlardan bir o‘rkachli tuyalarni boqqanlar. Tuyalar bir necha kun suvsiz yurishlari, oziq sifatida yantoqlar bilan qanoatlanishi va ayni paytda yelkasida bir necha yuz kilo yukni tashishi mumkin edi. Tarixchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, teridan tayyorlanadigan suv saqlaydigan mesh (sanoch)ni badaviylar ixtiro qilganlar. Tuyalar va meshlar ularga olis yaylovlarga yetib borish hamda uzoq safarlarga karvonlarni tayyorlash imkonini bergan.

Arablarda savdo-sotiq

PAYG‘AMBAR MUHAMMAD (S.A.V.)

Islom tarixchilari uning asoschisi – bo‘lajak payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) ni 570-yili Makkada quraysh qabilasining hoshimiylar urug‘iga mansub, uncha boy bo‘lmagan, lekin zodagonlarga yaqin oilada tavallud topganini yozadilar. Muhammad (s.a.v.) ona qornida ikki oylik homila paytida otasi Abdulloh – bu paytda savdo ishlari bilan Suriyada edi – Makkaga qaytishda to‘satdan vafot etadi. An’anaga ko‘ra, Makka ahli jazirama issiqdan asrash uchun har yili go‘daklarni tog‘dagi yaylovlarda yashovchi Banu Sa’d qabilasiga mansub ayollarga berib yuborganlar. Muhammad (s.a.v.) ham olti oyligidan banu sa’dlik Halima ismli ayol tarbiyasiga o‘tib, ko‘chmanchilar orasida to‘rt yil yashaydilar. So‘ngra Makkaga qaytib, onalari bilan birga yashaydilar. Olti yoshlarida onalari Omina ham vafot etib, uni bobosi Abdulmuttalib o‘z qaramog‘iga oladi. Bobosi Abdulmuttalib ham ko‘p o‘tmay vafot etadi, shundan keyin tarbiya qilishni amakisi Abu Tolib o‘z zimmasiga oladi. 12 yoshlarida Muhammad (s.a.v.) bir muddat Abu Tolibning chorvasini boqadilar, keyin tijorat ishlariga jalb qilinadilar. Savdo ishlari bilan Suriyaga safar qiladilar, xususan, Xalab va Damashq shaharlariga boradilar. Muhammad (s.a.v.) qirq yoshida payg‘ambar bo‘lib, yigirma uch yil davomida odamlarni Islom diniga da’vat qiladilar. Muhammad (s.a.v.) 632-yili Madina shahrida vafot etadilar va shu yerga dafn etiladilar.

QUR’ONNING NOZIL BO‘LISHI

Islom dini manbalarida qayd etilishicha, Muhammad (s.a.v.)ga 610-yildan boshlab Alloh taolodan ilohiy oyatlar nozil bo‘la boshlaydi. U qudratli yakka-yu yagona Xudodan, ya’ni Alloh taolodan o‘zga hech qanday iloh yo‘q, deya, o‘zini Rosulullоh – “Allohning elchisi, payg‘ambari” deb e’lon qiladi.

BUNI YODDA SAQLANG!

Qur’on *(arabcha “qiroat”, “o‘qish”) islom diniga e’tiqod qiluvchilarning muqaddas kitobi bo‘lib, Alloh taolo tomonidan Muhammad (s.a.v.)ga vahiy orqali nozil qilingan. Qur’on yigirma uch yil davomida nozil qilingan bo‘lib, 114 suradan iborat.*

Savdogarlar majusiylikdan yakkaxudolik diniga o‘tish ularga moddiy zarar keltirishidan qo‘rqib, Muhammad (s.a.v.)ning va’zlarini adovat bilan qarshi oladilar. Makkaning ko‘pchilik aholisi, ayniqsa, quraysh qabilasining zodagonlari uning targ‘ibotlariga ochiqdan-ochiq qarshi chiqadilar. Natijada u o‘zga yerlarda tarafdorlar izlashga majbur bo‘ladi. Shu tariqa Muhammad (s.a.v.) va uning sahobalari milodiy 622-yili Yasribga hijrat (ko‘chish) qiladilar hamda shaharga Madina (payg‘ambarlik shahri) nomini beradilar. Hijrat nomini olgan bu voqea islom tarixida burilish yasadi. Milodiy 622-yil hijrat – “ko‘chib o‘tish” musulmon yil hisobining boshlanishi deb qabul qilinadi. Ko‘chib o‘tgan kishilar muhojirlar (ko‘chib kelganlar), Madinada islomni qabul qilganlar ansorlar (tarafdorlar) deb ataldilar. Yasriblik arablar yakkaxudolik ta’limotiga xayrixoh munosabatda bo‘ladilar. Muhammad (s.a.v.) shaharning egasiga aylanib, u yerda ilk masjidni qurdiradilar. Allohga ibodat qilish tartibini joriy etadi, sudxo‘rlik, ichkilik, qimor o‘yinlarini taqiqlaydi. Shu tariqa buddaviylik va xristianlikdan keyingi yana bir jahon dini vujudga keladi.

ISLOM TA’LIMOTI

Islom (arabcha - “itoat etish”, “bo‘ysunish”, “o‘zini Alloh irodasiga topshirish”) VII asrning boshlarida Arabiston yarimorolida yagona Allohga e’tiqod asosida shakllanib, jahonda keng tarqalgan dinlardan biri hisoblanadi. Islom diniga e’tiqod qiluvchilar arabcha “muslim” (“islomni qabul qilgan”, “itoatli”, “sadoqatli”) – musulmon deb ataladi.

Islom dini beshta asos yoki ustun (arkon ad-din al-islomiy)ga ega:

1) Allohning birligiga, Muhammad (s.a.v.) Uning payg‘ambari ekanligiga iymon keltirish;
2) aqlan sog‘lom va voyaga yetgan har bir musulmonning besh vaqt namoz o‘qishi;
3) voyaga yetgan va sog‘lom kishining Ramazon oyida bir oy ro‘za tutishi;
4) moli nisobiga yetgan kishining zakot berishi;
5) yo‘liga va puliga qodir bo‘lsa, haj (Makka va Madina shaharlariga ziyorat) qilishi.

Musulmonlar uchun eng katta bayram – Ramazon hayiti bir oylik ro‘zadan keyin nishonlanadi. Undan yetmish kun o‘tib Qurbon hayiti o‘tkaziladi. Musulmonlar haftaning juma kunini “sayyid al-ayyom va haj al-masakiyn” – “kunlarning ulug‘i va miskinlar uchun haj” deb hisoblaydilar.

Muhammad (s.a.v.) Madina va uning atrofidagi shaharlar aholisini islomga o‘tkazgach, 630-yili Makka shahrini jangsiz egallaydi. Uning buyrug‘i bilan sahobalar Makka aholisiga omonlik berib, Ka’badan barcha but va sanamlarni chiqarib tashlashadi. Ka’bada saqlanayotgan Qora tosh Allohning “haq din”dagilarga in’omi deb e’lon qilinadi. O‘shandan buyon Ka’ba barcha musulmonlar uchun asosiy ziyoratgohga aylanadi.

Arabiston shaharlari va ko‘chmanchi qabilalar keyingi yillarda islomni qabul qilib, VII asrda yagona davlatga birlashadi.

O‘rta asrlarda Makka shahri

ISLOMDAGI MAZHABLAR

Mazhab so‘zi arabcha “yo‘nalish”, “oqim”, “yo‘l” ma’nolarini bildirib, Islom dinida biror diniy masala, muammo bo‘yicha muayyan ulamo fikriga ergashish, “uning yurgan yo‘nalishidan borish”ni bildiradi.

Islomda asosan ikki yo‘nalish – sunniylik va shialik (Ali tarafdorlari) mavjud bo‘lib, ularning har birida bir qancha mazhablar bor. Uchinchi yo‘nalish – xorijiylar (xavorij – “ajralib chiqqanlar”) VII asrning ikkinchi yarmida parchalanib, keyinchalik yo‘qolib ketgan.

Sunniylik deb, diniy qonun-qoida va tartibotlarga rioya qilishda Qur’oni karim va payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) hadislari – “Sunna”ga birdek amal qilishga aytiladi. Sunniylik yo‘nalishi tarafdorlari “Ahli sunna val jamoa” deb ataladi. Bu nomda Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning sunnatlariga og‘ishmay amal qilish va musulmonlarning asosiy ko‘pchilik jamoasi ma’nolari o‘z aksini topgan. Bugungi kunda musulmonlarning asosiy qismi sunniylik yo‘nalishida bo‘lib, u to‘rtta fiqhiy mazhab: Hanafiy, Shofe’iy, Molikiy, Hanbaliy hamda ikkita Ash’ariy va Moturidiy aqidaviy ta’limotlaridan iborat. Mazhablar sekta (firqa)lardan farq qiladi. Sunniylikdagi to‘rtta mazhab ham teng hisoblanadi. Mazhablar umuman an’anaviy diniy huquq doirasidan chiqmagan holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladi. O‘rta Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda hanafiylik mazhabi keng yoyilgan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Arablarning tili, mashg‘ulotlari haqida nimalarni yodda saqlab qoldingiz?**
2. **Badaviylar ijtimoiy tuzumining o‘zgarishiga qanday omillar sabab bo‘ldi?**
3. **Muhammad (s.a.v.)ning hayoti va faoliyati haqida nimalarni eslab qoldingiz?**
4. **Arab qabilalarining birlashish omillarini gapirib bering.**

9-
mavzu

Arab xalifaligi: islom dunyosining barpo etilishi

SIZ BILIB OLASIZ:

- Xulafoi roshidinlar faoliyati;
- aholini islomlashtirish yo‘llari;
- Umaviylar va Abbosiylar sulolasi;
- Arab xalifaligining inqirozi haqida.

Arablar olib borgan fathlar VII–VIII asrlarda ulkan hududlarni qamrab olgan Arab xalifaligi davlatining tashkil topishi bilan yakunlandi. Xalifalikni avval xulafoi roshidinlar – “to‘g‘ri yo‘ldan boruvchi xalifalar”, so‘ng Umaviylar (661–750) va Abbosiylar (750–1258) sulolalari boshqargan. Xalifalik tarkibidagi mamlakatlarda boy madaniyat yaratilib, u turli xalqlar yutuqlarining jamlanishi natijasida vujudga kelgandi. Xalifalik hududlarida ilm-fan, adabiyot va san’at yuksak rivojlandi.

CHORYORLAR DAVRI

Muhammad (s.a.v.) vafotidan so‘ng barcha arablarni birlashtirgan davlatdagi hokimiyat uning eng yaqin sahobalari qo‘liga o‘tadi. Xulafoi roshidinlar davrida mamlakat rahbari – xalifa (“o‘rinbosar”), davlat esa Xalifalik deb atala boshlandi. Arablar birlashtirilganidan so‘ng, islom dinining umumiy maqsadi g‘ayridinlarni Islomga o‘tkazish bo‘ladi. Dastlab **Abu Bakr** (632–634) xalifalikka saylanadi. Uning boshqaruvi davrida Arabiston yarimoroli aholisi Islomni to‘liq qabul qiladi, arab qabilalarining hokimiyatga qarshi ko‘targan qo‘zg‘olonlari bostiriladi. Uning xalifaligi davrida arablar Iroq va Suriyani fath etishadi. Abu Bakr Islom davlati boshqaruvini takomillashtirdi. Xususan, mamlakatni boshqarish uchun Maslahat kengashi tashkil qilindi, har bir viloyatga voliy (hokim) tayinlandi.

Keyingi xalifa **Umar** (634–644) davrida Vizantiya qo‘shinlari mag‘lub etilib, bir necha yilda Suriya, Falastin, Misr, Eronning katta qismi va O‘rta Yer dengizining Afrika sohillari zabt etiladi. Uning davrida soliq-o‘lpon tizimi ishlab chiqilib, devon ro‘yxatiga kiritilgan barcha davlat xizmatchilariga maosh to‘lash joriy etiladi. 637-yil aprelda yangi musulmon yil hisobi – hijriy yil taqvimi joriy etiladi. Musulmonlar Umarni – taqvodor, din masalalarida adolatli bo‘lgani uchun – “Umari odil”, hukmronlik davrini esa islomning “oltin asri” deb tavsiflashgan.



Islohotlarning amalga oshirilishi

TARIXIY MUSHOHADA!

Manbalarda yozilishicha, xalifa Umar ibn Xattob davrida islomiy fathlar nihoyatda kengayadi. Musulmonlar Fors yerlarini fath qilar ekan, Tustar degan qal’ani ishg‘ol qilishga to‘g‘ri keladi. Sa’d ibn Abu Vaqqos boshchiligidagi arab lashkarlari qal’ani uzoq muddat qamal qilib, olti oyda ham egallay olishmaydi. Qo‘shinning jangovar ruhi tushib ketadi, qurol-yarog‘ va oziq-ovqat zaxirasi ham tugay boshlaydi. Barcha musulmonlar qanday yo‘l tutishni bilmay turganlarida, yuziga niqob tutgan bir kishi kirib keladi. “Men qal’ani qanday qilib ochishni bilaman. Mening aytganimni qilsangizlar, sizlarga yordam beraman”, – deydi. Shunda qo‘shin amiri: “Nima qilishni ayt – biz rozimiz”, – deydi. Niqobli kishi: “Meni palaxmonga o‘tqazib, shaharning ichiga uloqtirasizlar, men sizlarga qal’a darvozalarini ochib beraman”,– deydi. Yarim tunda askarlar uni palaxmonning kabgiriga o‘tqazib uloqtiradilar. Sog‘-omon qolgan niqobli kishi soqchilarni o‘ldirib, darvozalarni ochib beradi. Jangga shay turgan askarlar qal’aga kirib kelishadi, qal’a egallanadi, musulmonlar juda katta o‘ljalarni qo‘lga kiritadilar. Qo‘shin amiri o‘ljalarni taqsimlashni e’lon qiladi, uning eng katta qismi haligi niqobli kishiga beriladigan bo‘ldi. Ammo oradan uch kun o‘tsa ham, niqobli kishi kelmaydi. Shunda Sa’d ibn Abu Vaqqos butun qo‘shinga: “Barchaga yetkazing: amirga itoat qilmasa, Allohning oldida gunohkor bo‘ladi”, – deb buyuradi. Natijada amirning chodiriga bir kishi kirib keladi: “Ey amir, men niqob egasini taniyman, uning uchta sharti bor ekan, shularni bajarsangiz, kelar ekan va o‘zini tanitar ekan, – deydi. – Birinchisi – u siz bilan gaplashar ekan, gap faqat ikkovingizning oralarigizda qolar ekan; ikkinchisi – u odamning nomini tarix kitoblariga yozdirmas ekansiz; uchinchisi – hatto uning kimligini xalifaga ham aytmas ekansiz”. Sa’d ibn Abu Vaqqos barchasiga rozi bo‘ldilar. Shunda haligi kishi: “Men edim o‘sha niqobli odam”, – deydi.

Musulmonlar Madinaga qaytib borgach, xalifa Umar niqobli kishi haqida Sa’d ibn Abu Vaqqosdan so‘raydi, ammo Sa’d va’dasida turib, hech narsa aytmaydi.

Usmon xalifaligi davrida (644–656) Eron Sosoniylari davlatini fath etish tugallanib, Amudaryo sohillariga chiqishdi, musulmonlarning Tunis va Kavkazorti o‘lkalaridagi mavqei mustahkamlanadi. Xalifaning buyrug‘i bilan Qur’oni karim matni to‘planib, bir butun kitob shakliga keltiriladi va turli o‘lkalarga tarqatiladi. Hozirgi kunda ulardan biri muqaddas yodgorlik sifatida O‘zbekiston musulmonlari idorasida saqlanmoqda.

Xulafoi-roshidinlarning so‘ngisi – **Ali ibn Abu Tolib** xalifaligi (656–661) davrida uning hukmronligini “haq din”ning barcha vakillari tan olmagan. Alining tarafdorlari shialar, raqiblari esa xorijiylar nomini olishgan. Oqibatda Ali xorijiylar tomonidan o‘ldiriladi. 661-yilda hokimiyatni Umaviylar sulolasi asoschisi Muoviya I egallaydi.

UMAVIYLAR HUKMRONLIGI

Umaviylar davrida poytaxt Damashq shahri bo‘lib, Suriya xalifalikning markaziy viloyatiga aylanadi. Umaviylar boshqaruvi davrida xalifa lavozimi nasliy merosga aylantiriladi, davlat xazinasi hamda davlat arxivi tashkil etiladi, arab tili davlat tili deb e’lon qilinadi. Xalifalikning Jabal at-Tariq boshchiligidagi qo‘shini 711–714-yillari Pireney yarimorolidagi (hozirgi Ispaniya) Vestgot qirolligini bo‘ysundiradi. Arablarning shimolga siljishlari 732-yil Puate jangida to‘xtatiladi. Sharqda ular Tabariston,

Arablar tomonidan boshqa hududlarning egallanishi

Horun ar-Rashid

Jurjon, Movarounnahr va Hind daryosi sohiligacha (Mo‘lton qal’asi) bo‘lgan yerlarni, G‘arbda Shimoliy Afrika va Ispaniyaning katta qismini bosib oladilar. Ammo Umaviylarga qarshi bir necha bor xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tadi. Bu esa ularning hokimiyatini zaiflashtirib, Abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishlariga imkon beradi.

ABBOSIYLARNING HOKIMIYATGA KELISHI

Xalifalikdagi siyosiy vaziyat keskinlashishi natijasida VIII asr o‘rtalarida hokimiyat Abbosiylar (Muhammad (s.a.v.) ning amakisi Abbosning avlodlari) qo‘liga o‘tadi. Abbosiylar o‘z qarorgohini Bag‘dod (“Xudoning in’omi”) shahriga ko‘chiradi. Ushbu sulolaning eng mashhur xalifasi Horun ar-Rashid (786–809) bo‘lgan. Musulmon bo‘lmaganlarni xalifalikda davlat xizmatiga olishmagan va ular ko‘proq soliq to‘lashgan. Natijada ko‘pchilik Islomni qabul qilib, arab tilini o‘rganganlar, shu tariqa aholining asosiy qismi musulmon bo‘lgan.

XALIFALIKNING INQIROZI

Xalq qo‘zg‘olonlari va hokimiyat uchun kurashlar xalifalikning siyosiy inqirozini boshlab beradi. Xalifalikdan ilk mustaqil amirlik Ispaniyada 756-yili ajralib chiqadi. U X asrdan Qurdoba (Kordova) amirligi deb atala boshlanadi. IX asrdan Misr, Eron, Movarounnahr va Xuroson mustaqillikka erishadi, Abbosiylar tasarrufida faqat Yaqin Sharq va Arabiston yarimoroli qoladi. Saljuqiy turklar 1055-yili Bag‘dodni egallab, xalifani dunyoviy vazifalardan chetlatadi. Mo‘g‘ul xoni **Xuloku** 1258-yilda Bag‘dodni egallagandan so‘ng, Arab xalifaligi barham topadi.

Arab harbiylari

ATAMALAR IZOHI

Choryorlar – (forscha, “to‘rt do‘st”) to‘g‘ri yo‘ldan borgan dastlabki to‘rt xalifa.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Xaritadan Arab xalifaligi tomonidan fath etilgan hududlarni ko‘rsating.**
2. **Arab xalifaligini boshqargan sulolalar haqida so‘zlab bering.**
3. **Xalifalik inqirozining sabablari nimalarda deb o‘ylaysiz?**

10-mavzu

Saljuqiylar davlati

Sulton Malikshoh

SIZ BILIB OLASIZ:

- **o‘g‘uz qabilalarining birlashishi va yangi sulolaning vujudga kelishi;**
- **Saljuqiylar davlatining tuzilishi va taraqqiyoti;**
- **Saljuqiylarning harbiy yurishlari va ulkan saltanatning barpo etilishi;**
- **turk etnosining shakllanish shart-sharoitlari va sabablari haqida.**

Saljuqiylarning harbiy yurushi

DAVLATNING TASHKIL TOPISHI

Saljuqiylar turkiy o‘g‘uz qavmi tarkibida dastlab hozirgi Janubiy Qozog‘iston hududi va Sirdaryoning o‘rta oqimidagi yerlarda yashaganlar. Ular ko‘plab urug‘-qabilalarga bo‘linib, ko‘chmanchi hayot kechirganlar. Shimoldagi turli qabilalarning siquvi natijasida Sirdaryoning quyi oqimidagi Jand shahri atroflari (hozirgi Navoiy viloyati hududi)ga ko‘chib o‘tgan o‘g‘uzlar Saljuqbek boshchiligida islom dinini qabul qilishgan. Qoraxoniylar Movarounnahrni egallagach, saljuqiylar Mahmud G‘aznaviyning roziligi bilan 1025-yilda Xuroson yerlariga ko‘chib o‘tadilar. Qoraxoniylar bilan g‘aznaviylar o‘rtasidagi kurashdan foydalangan saljuqiylar o‘z harbiy kuchlarini birlashtirib, asta-sekin Xurosonni egallab, Saljuqiylar davlatini barpo etganlar. Ular Saljuqning nevarasi To‘g‘rulbekni hukmdor deb e’lon qiladilar.

TARIX YON DAFTARCHANGIZGA KIRITING!

***Saljuqiylar** – Xuroson, Yaqin va O‘rta Sharq, Kichik Osiyo, qisman Movarounnahrda hukmronlik qilgan turkiy sulola (1038–1308). Sulola nomi chorvador turkiy qavm – o‘g‘uzlar boshlig‘i Saljuqbek ibn Do‘kak nomidan olingan. Saljuqiylar davlatiga 1038-yilda Saljuqning nabirasi sulton To‘g‘rulbek asos solgan.*

To‘g‘rulbek ukasi Chag‘ribekni Xurosonda qoldirib, o‘zi g‘arbga yurish boshlaydi. Bu davrga kelib Eronda jangovar turkiy qabilalarga qarshi tura oladigan kuch mavjud emas edi. Natijada saljuqiylar qisqa muddatda G‘arbiy Eron, Ozarbayjon va Iroqni o‘zlariga bo‘ysundiradilar. 1055-yil Bag‘dodda To‘g‘rulbek nomiga xutba o‘qiladi, Abbosiylar saljuqiylarga tobe bo‘lib qolishadi. Xalifa Al-Qoim (1031–1075) hokimiyatni To‘g‘rulbekka topshirib, uni sulton hamda “Sharq va G‘arb podshohi” deb tan olishga majbur bo‘ladi. Shu tariqa saljuqiylar Amudaryodan Frot daryosigacha bo‘lgan hududda o‘z hukmronliklarini o‘rnatadilar.

DAVLATNING YUKSALISHI

Saljuqiylar davlati Alp Arslon va uning o‘g‘li Malikshohlar davrida yanada kuchayadi. Alp Arslon (1063–1072) davrida Kichik Osiyoga yurishlar uyushtiriladi.

Saljuqiylarning eng yuksalgan davri Sulton Malikshoh (1072–1092) hukmronlik yillariga to‘g‘ri keladi. U otasi boshlab bergan sharqqa yurishlarni davom ettiradi, Qoraxoniylarga zarba berib, 1074-yili Buxoro va Samarqandni egallaydi. So‘ngra Farg‘ona vodiysini egallab, Sharqiy Turkistongacha yetib boradi. XI asr oxirida mamlakat hududi Sharqiy Turkistondan O‘rta Yer va Marmar dengizlarigacha bo‘lgan katta hududni o‘z ichiga olgan edi. Bu davlat Vizantiya va Xitoy o‘rtasida joylashgan bo‘lib, salibchilarning Sharqqa qilgan hujumlarini qaytarishda xizmatlari katta bo‘lgan.

Malikshoh vafot etgach, taxt uchun kurash kuchayib, mamlakat zaiflasha boshlaydi. Ichki nizolar avj olib, davlat XII asr boshida sharqiy va g‘arbiy qismlarga bo‘linib ketadi.

ANATOLIYADAGI TURK BEYLIKLARI

XI asr oxirida Anatoliyani to‘liq bosib olgan o‘g‘uzlar u yerda Ko‘niya sultonligini tuzishadi. Shuningdek, Kichik Osiyo hududida saljuqiylarning bir qator beylik (beklik)lari ham tashkil etiladi. Beylar rasman Saljuqiylar sulolasi hukmronligini tan olsalar-da, amalda o‘z mulklarini mustaqil boshqarganlar.

Ko‘niya sultonligining markazi dastlab Nikeya shahri bo‘lib, keyinchalik Ko‘niyaga ko‘chiriladi. Sulton Alouddin Kaykubod davrida sultonlik taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga chiqadi. Sultonlikdagi Ko‘niya, Qaysari, Sivas shaharlari hunarmandchilik va savdo markazlari bo‘lgan.

Kichik Osiyodagi beyliklarning aholisi etnik jihatdan bir xil emas edi. 1071-yildagi Mansikert jangida saljuqiylarning vizantiyaliklar ustidan qozonilgan g‘alabasidan keyin, boshqa qarshilik yo‘qligi tufayli, bu yerga o‘g‘uz turklarining katta qismi ko‘chib kelib, o‘troq turmush tarziga o‘ta boshlaydi. O‘troq-

lashayotgan turklar o‘lkaning tub aholisi kabi dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullana boshlaydilar. Kichik Osiyo yunonlari va armanlarining bir qismi esa islom dinini qabul qilib, turkiy qabilalar bilan yaqinlashadilar. Shu tariqa Kichik Osiyoda XI asr oxiridan o‘g‘uz turklari bilan turklashgan yunonlar, forslar, armanlar va gruzinlarning qo‘shilishidan turk millati shakllana boshlaydi. Ammo 1243-yilda sharqdan mo‘g‘ullarning bostirib kelishi sultonlikni ancha zaiflashtirib qo‘yadi. Natijada 1308-yilda davlat bir nechta beyliklarga bo‘linib ketadi. Ulardan biri Usmon beyligi bo‘lib, keyinchalik u Usmonli turk imperiyasining paydo bo‘lishida asosiy rol o‘ynagan.

DAVLAT BOSHQARUVI

Saljuqiylar hukmdori Kayxusrav II tangasi

Saljuqiylar davlat boshqaruvi, soliq va yer egaligi munosabatlarini sharqdagi musulmon davlatlardan qabul qilganlar. Davlatni oliy hukmdor – sulton (sulton ul-a’zam) boshqarib, taxt otadan bolaga meros bo‘lib o‘tgan. Uning nomidan xutba o‘qilib, tanga zarb qilingan. Davlat boshqaruv tizimi ikkiga – dargoh va devonga bo‘lingan. Bosh vazir devoni (devoni a’lo) barcha devonlar faoliyatiga rahbarlik qilgan. Bosh vazir “rais ur-ruaso” deb atalib, mamlakatning ichki va tashqi siyosatidagi barcha sohalarni nazorat qilgan. Saljuqiylarning eng mashhur bosh vaziri Nizomulmulk bo‘lib, u davlat boshqaruv asoslariga oid **“Siyosatnoma”** asarini yozib qoldirgan.

Mamlakat ma’muriy jihatdan viloyatlarga bo‘linib, uni sulton tomonidan tayinlangan *voliylar* boshqargan. Ular ham o‘z mahkamalariga ega bo‘lib, viloyat hayoti bilan bog‘liq barcha sohalarga rahbarlik qilganlar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Saljuqiylar davlatining tashkil topish shart-sharoitlarini izohlang.**
2. **Turklarning ijtimoiy tuzumi haqida nimalarni eslab qoldingiz?**
3. **Saljuqiylar davlati boshqaruvi qanday bo‘lgan va uni kimlardan qabul qilganlar?**
4. **Turk xalqining shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?**

11-mavzu

Mo‘g‘ullar davlati

SIZ BILIB OLASIZ!

- **mo‘g‘ul qabilalarining ijtimoiy hayoti;**
- **Chingizxon davlatining tashkil topishi;**
- **mo‘g‘ul qabilalarining harbiy yurushlari haqida.**

Onon daryosi bo‘yidagi qurultoy

IJTIMOIY TUZUM

Mo‘g‘ul qabilalari qadimdan Janubiy Sibir, Manchjuriya va Mo‘g‘uliston hududlarida yashab kelgan. Ularning ko‘pchiligi ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullangan, o‘rmonlarda yashagan ayrim urug‘lar ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirgan.

Mo‘g‘ullar hayotida qadimgi udumlar, diniy tasavvurlarida esa ajdodlar ruhiga sig‘inish, shomonlik e’tiqodlari yaxshi saqlanib qolgan. XII asrda mo‘g‘ullarning ijtimoiy tuzumida hali urug‘chilik xususiyatlari kuchli bo‘lsa-da, lekin shu asrning ikkinchi yarmidan boshlab ularning ijtimoiy munosabatlarida yangi xususiyat – mulkiy tabaqalanish kuchaya boshlaydi. Urug‘chilik jamoalari alohida ko‘chmanchi xo‘jalik – **ayl**larga bo‘linib, har bir ayl endilikda o‘z xo‘jaligi – chorvalarining egasiga aylanadi. Urug‘-qabilalarda boy xonadonlar, bo‘lajak mo‘g‘ul zodagonlari shakllana boradi. Aksariyat urug‘ boshliqlari – no‘yonlar o‘z urug‘doshlaridan navkarlar olib, harbiy bo‘linmalar tuzadilar. Mulkiy tabaqalanish sharoitida hayotning o‘zi ularni harbiy qabila ittifoqlari-

Novgorod
Kiyev
QIPCHOQLAR
Gruziya
Tbilisi
KASPIY DENGIZI
OROL DENGIZI
Urganch
O‘tror
XORAZMSHOHLAR DAVLATI
Buxoro
Samarqand
Tabriz
Ray
Nishopur
Bag‘dod
Hirot
Sheroz
Kobul
G‘azna
Qoshg‘ar
Yorkent
Naymanlar
MO‘G‘ULLAR DAVLATI
Qoraqurum
Tatarlar
Pekin
KOREYA
Tibet
Guanchjou
Mo‘g‘ullar davlati
Mo‘g‘ullarning bosqinchilik yurishlari

ga birlashishga majbur qiladi, ularni **xonlar** boshqargan. Kuchli qabila ittifoqlari o‘zlariga tobe etilgan qo‘shnilardan boj-to‘lovlar olib turishgan. Bunday qabila ittifoqlari o‘z yig‘inlari, qurultoylarida eng muhim: urush, sulh, ittifoq tuzish, xonni saylash, ba’zan gunohkor deb topilgan ayrim no‘yonlar va hatto xonlarning o‘zlarini ham sud qilish kabi masalalarni hal etganlar.

CHINGIZXON DAVLATI

Mo‘g‘ul qabilalari orasidagi o‘zaro urushlarda **Temuchin** (1155–1227) g‘olib chiqadi. 1206-yilda Onon daryosi bo‘yidagi qurultoyda u ulug‘ xon deb e’lon qilinadi. Bosh shomon butun xalq oldida Temuchinga **Chingizxon** unvonini beradi. Chingiz so‘zi “kuchli”, “qudratli”, “toza” ma’nolarini anglatadi. Mamlakatni markazlashtirish maqsadida Chingizxon **Qoraqurum** qal’asini o‘z davlatining poytaxtiga aylantiradi.

MO‘G‘ULLAR QO‘SHINI

Mo‘g‘ullar qo‘shinni kuchaytirishga katta e’tibor qaratadilar. Mo‘g‘ullarning ko‘chmanchi chorvachilik bilan hayot kechirishlari ularga a’lo darajadagi otliq qo‘shin tuzish imkonini beradi, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi qo‘shni xalqlar esa bu otliq askarlar bilan to‘qnashishga ojizlik qilardilar. Tinch paytda chorvachilik bilan shug‘ullangan mo‘g‘ullar urush boshlanishi bilan o‘nlik tizimdan iborat muntazam qo‘shinga aylanar edi. Talonchilik bosqinlari ko‘chmanchi mo‘g‘ullar uchun asosiy mashg‘ulot hisoblangan. Xitoy bilan qo‘shnichilikda yashashlari, u yerga qilgan yurishlari mo‘g‘ullarga Xitoyning ko‘pgina harbiy uskunalari – jang qurollari bilan tanishish va ularni o‘zlashtirib olish imkonini berdi. Jumladan, mo‘g‘ullar qo‘shini devor teshadigan maxsus moslama – palaxmon va o‘t sochadigan qurollar yordamida shaharlarni ishg‘ol qilish san’atini a’lo darajada egallagan edilar. Mo‘g‘ullarning sevimli quroli kamon edi, jangchi raqibini yuzlab metrdan nishonga ola bilgan. Jangchilarning ko‘pchiligi nayza va qilich bilan qurollangan. Har bir ko‘chmanchining kundalik hayotida ham, jang paytida ham, albatta, arqoni bo‘lishi lozim edi. Ko‘chmanchilar qo‘shini odatda uchta qismga bo‘lingan: markaz va ikki qanot. Qo‘shin yuzboshi, mingboshi, tumanboshilar tomonidan boshqarilgan. Jang boshlanganda markaz yolg‘ondan chekingan, dushman uni ta’qib eta boshlasa, qanotlardan hujumga uchrar, chekinayotganlar ham to‘xtab, jangga kirishardi. Asosiy qo‘shindan tashqari, Chingizxon ixtiyorida **“keshik”** deb yuritilgan maxsus gvardiya ham tashkil etiladi. Keshik favqulodda vaziyatlar uchun doimo jangovar shay holatda turar edi.

Jangni mohirona boshqarish, kuchli va intizomli otliq qo‘shin, qo‘shni mamlakatlardagi siyosiy tarqoqlik mo‘g‘ullarga g‘alaba keltirgan.

Mo‘g‘ul jangchisi

Mo‘g‘ul jangchilari va qurol-aslahalari



Mo‘g‘ullarning rus yerlariga harbiy yurishi

ISTILOLAR

Chingizxon dastlab naymanlarni, keyinchalik uyg‘ur, yoqut, qirg‘iz va buryat qabilalarini bo‘ysundirgach, 1211-yilda Shimoliy Xitoyga qarshi urush boshlaydi. Yettisuv va Sharqiy Turkistonga qarshi 1218-yilda boshlangan bosqinlar Xorazmshohlar davlatiga uyushtirilgan 1219–1221-yillardagi bosqinlarga ulanib ketadi. Keyinchalik Afg‘oniston, Sharqiy Eron egallanib, Kavkaz orqali Dashti Qipchoqqa chiqadilar. Kalka daryosi bo‘yida qipchoqlarga yordamga kelgan ittifoqchi rus qo‘shini mag‘lub etiladi.

1224-yilda Chingizxon zabt etilgan hududlarni uluslarga bo‘lib, o‘z o‘g‘illari: **Jo‘ji, Chig‘atoy, O‘qtoy** va **Tulu**ga taqsimlab beradi. O‘qtoyni taxt vorisi etib tayinlaydi.

Chingizxonning nabirasi Botuxon 1237–1242-yillarda Sharqiy Yevropada istilochilik urushlari olib boradi. Uning qo‘shinlari dastlab Rus knyazliklarini, keyinchalik Polsha, qisman Serbiya va Bolgariyani istilo qilishadi. Istilo qilingan hududlarda Oltin O‘rda davlatiga asos solinadi. O‘rta Sharq va Old Osiyoda harbiy harakatlarni Tuluning o‘g‘li Xuloku davom ettirdi. U 1256-yilda Eronni bosib olib, Xulokuylar davlatiga asos soladi. Ikki yil o‘tib, Xuloku Arab xalifaligiga hujum uyushtirib, Bag‘dodni egallaydi. Mo‘g‘ullar shaharni uch haftadan ko‘proq talaydilar, madaniyat va san’at asarlari yo‘q qilinadi. Shahardagi katta kutubxonani yondirib, kitoblarni Dajla daryosiga tashlab yuboradilar. Aytishlaricha, daryoga shunchalik ko‘p kitoblar tashlanadiki, daryo ularning siyohidan qorayib ketadi.

So‘ngra mo‘g‘ullar Yaqin Sharqqa bostirib kirib, Suriyani egallaydilar, Halab shahrini vayron qiladilar. Bag‘dod va Halabning vayron qilinganini ko‘rgach, Damashq jangsiz taslim bo‘lib, Islom dunyosining markazi janubga – Qohiraga ko‘chib o‘tadi. Musulmonlar orasida mo‘g‘ullarning jangariligi haqida vahimali mish-mishlar tarqalib, ular yengilmas, ularni to‘xtatib bo‘lmaydi degan gap-so‘zlar paydo bo‘ladi.

Xuloku Misrga elchilarini yuborib, taslim bo‘lish shartini qo‘yadi. Misr sultoni bunga rozi bo‘lmaydi. 1260-yilgi jangda Sulton Sayfiddin Qutuz jasorati tufayli misrliklar mo‘g‘ullar qo‘shini ustidan g‘alaba qozonib, ularning Yaqin Sharq va Afrikaga yurishlarini to‘xtatib qoladilar.

TARIXIY MUSHOHADA!

“MO‘G‘ULLAR G‘OLIBI”

Sayfiddin Qutuz Xorazmshohlar avlodidan bo‘lib, Jaloliddin Manguberdining opasining o‘g‘li bo‘lgan. U Jaloliddinning mo‘g‘ullarga qarshi kurashlariga, dushman qo‘lida asir tushishlarini istamay, o‘z yaqinlarini daryoga cho‘ktirishiga majbur bo‘lib, oh-u faryod chekishiga guvoh bo‘lgan. Bu alamli xotira Qutuzning yodida bir umr muhrlanib qolgan. U mo‘g‘ullardan o‘ch olishga qasam ichgan holda, so‘nggi xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi bilan birgalikda yurt kezgan va mo‘g‘ullarga qarshi ko‘plab janglarda ishtirok etgan.

Biroq tog‘asining fojiali o‘limidan so‘ng Qutuz Damashqning qul bozorida sotib yuboriladi. Uni misrlik qul savdogari Misr sultoni As-Solih II ning mamluklar qo‘shinida xizmat qilishi uchun sotib oladi.

Qutuz mamluklar maktabida ta’lim oladi va harbiy san’at sirlarini o‘rganadi. Sobiq qul mamluklar qo‘shinida katta amir darajasiga yetadi, Misr sultoni noibi lavozimiga ko‘tariladi.

Misr taxtiga 15 yoshli Al-Mansur Ali o‘tirgach, amaldagi boshqaruv uning vasiysi bo‘lgan Qutuzning qo‘liga o‘tadi. Qutuz Misr qo‘shinining bosh sarkardasi lavozimini egallaydi.

Sayfiddin Qutuz yengilish nima ekanligini bilmay kelayotgan mo‘g‘ullarni Ayn-Jalutdagi jangda tor-mor etish orqali tarixda “Mo‘g‘ullar g‘olibi” degan sharafli nomga sazovor bo‘ladi.

ATAMALAR IZOHI

Ulus (mo‘g‘ulcha, – “*davlat*”, “*xalq*”, “*odamlar*”) – Chingizxon farzandlariga mulk sifatida bo‘lib bergan mo‘g‘ullar bosib olgan hududlar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Mo‘g‘ul qabilalari yashagan hududlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.**
2. **Mo‘g‘ullarning mashg‘ulotlari nimalardan iborat bo‘lgan?**
3. **Chingizxon davlati qay tariqa vujudga kelgan?**
4. **“Mo‘g‘ullar g‘olibi” matnini tahlil qiling.**

12-mavzu

Hindiston – “ming ajoyibotlar mamlakati”

SIZ BILIB OLASIZ:

- o‘rta asrlarda Hindiston aholisining kundalik hayoti;
- o‘rta asrlarda Hindistondagi davlatlar;
- Hindistondagi tabaqalar haqida.

ESLAB KO‘RING!

- **Qadimgi Hindistonda jamiyatning tuzilishida qanday o‘ziga xos xususiyatlar mavjud edi?**

IJTIMOIY-IQTISODIY VAZIYAT

Sizga ma’lumki, Hindistonning aksariyat qismi Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan. U yemirilgach, hind rojalaridan biri Chandragupta (320–340) Guptalar sulolasiga asos soladi. Uning vorislari davrida Hindiston jamiyatida yer egaligiga asoslangan feodal tuzum shakllanib bordi. Guptalar imperiyasi IV–V asrlarda Arabiston dengizigacha bo‘lgan hududlarni birlashtirgan.

Yevropa, Osiyoning ko‘plab mamlakatlarida bo‘lgani kabi, Gupta hukmdorlarining ham yer-mulklar in’om etishlari natijasida amaldorlar va harbiylardan iborat yirik yer egalari toifasi paydo bo‘ldi, ular aholidan soliqlar yig‘ishdan tashqari, dehqonlar mehnatidan foydalanish huquqini ham qo‘lga kiritganlar.

Gupta davlati tangasi

JAMOA-KASTA TUZULISHI

Hindistonda dunyoning boshqa mamlakatlarida uchramaydigan kasta tuzumining qadimgi an'analari saqlangan edi. Natijada qishloq jamoasining turli tabaqalarga mansubligi uning xususiy mulki oz yoki ko'p ekanligi bilan o'lchanmay, shaxsning qaysi kasta toifasiga mansubligi bilan belgilangan.

Hindistonda ilk tabaqalanish tartiblari qadimgi oriylar istilosidan so'ng rojaliklar tashkil topish davriga borib taqaladi. Kishilar kastalarga ma'lum belgilar: me'rosiy kasb-kor, etnik va diniy mansubligi, urf-odatlar xilma-xilligi va boshqalar asosida bo'lingan.

Kasta a'zolarini avvalo kasb birlashtirgan, u esa otadan bolaga o'tgan. Bir kastadan boshqasiga o'tish va turli kasta vakillari orasidagi nikoh qoralangan.

O'rta asrlarning boshlanish davrida Hindistonda qulchilik ham saqlanib qolgan. Qullar ko'p hollarda uy xizmatkorlari bo'lishgan. Hinduiylik dini aqidalariga ko'ra, qul mehnatidan dehqonchilik yumushlarida foydalanish ham mumkin bo'lgan. Xo'jayin qulni yegulik bilan ta'minlashdan tashqari, yiliga bir marta kiyim-bosh olib berishlari talab qilingan.

Guptalar imperiyasi siyosiy jihatdan mustahkam emas edi, shuning uchun VI asrda mamlakat shimoli-g'arbdan kelgan eftaliylar hujumlari natijasida parchalanib ketadi.

HINDISTONDAGI 4 TABAQA

Brahmanlar ("donishmandlar"): kohinlar, o'qituvchilar, shifokorlar.

Kshatriylar ("jangchilar"): harbiylar, davlat amaldorlari, yirik yer egalari.

Vayshilar ("erkin jamoa"): savdogarlar, chorvadorlar, dehqonlar.

Shudralar ("xizmatkorlar"): ko'nchilar, to'quvchilar, cho'ponlar, kulollar, musiqachilar.

Chandallar ("hazar qilinganlar"): chiqindilarni tozalovchilar.

Hindlarning turmush tarzi

XARSHA DAVLATI

VII asr boshlarida Hindistonning shimolida yangi imperiya – Xarsha imperiyasi tashkil topadi. Bu imperiyaga Kanudja rojasi Xarsha (606–647) tomonidan asos solingan. Imperiya Gang daryosi vodiysi bo‘ylab sharqiy Panjobdan to Bengaliya qo‘ltig‘igacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olgan.

Xarsha shoir va dramaturg bo‘lib, saroyida ko‘plab rassom hamda shoirlarni to‘plab, poytaxti – Udjayini shahrini madaniy markazga aylantiradi. U har yili dunyo olimlarining anjumanini o‘tkazib, ularga ko‘plab sovg‘alar hadya qilgan. Xarshaning ajdodlari hinduiy bo‘lsa-da, u buddaviylik dinini qabul qiladi. Buddaviylik ibodatxonalarini qurish uchun katta ishchi kuchi va mablag‘ ajratadi.

Uning davrida Markaziy Hindiston rojalari ham bo‘ysundiriladi. Vassal rojalar qirqqa yaqin bo‘lgan. Xarsha imperiyasi uzoq yashamaydi. Vassal rojalarning ayirmachilik harakati imperiyani zaiflashtiradi. Bora-bora rojalar amalda butunlay mustaqil bo‘lib oladilar. Xarsha vafotidan so‘ng davlat zaiflashib qolgan bo‘lsa-da, mamlakat XIII asrning boshlariga qadar Hindiston hududidagi so‘nggi yirik imperiya sifatida mavjud bo‘lgan.

YER EGALIGI MUNOSABATLARI

VII asrda Hindistonda bo‘lgan xitoylik tarixchi Syuan Szyanning yozishicha, unda 70 ga yaqin katta-kichik knyazliklar bo‘lgan. Knyaz-rojalar hashamatli saroylarda yashaganlar. Rojalar o‘z yaqinlari, amaldorlari va jangchilariga xizmatlari evaziga yer-mulklar in’om qilgan. O‘rta asrlarda Hindistonda kohin-braxmanlar va ibodatxonalarda ham yirik yer maydonlari bo‘lgan. O‘sha davrga oid manbalarda rojalardan biri ibodatxonalarga 1400 ta qishloqni yer-mulk sifatida in’om etgani yozilgan. Rojaning eng yaqin qarindoshlari, nufuzli amaldorlariga, ularning tutgan mavqelariga qarab, o‘nlab, ba’zida yuzlab qishloqlar berilgan bo‘lsa, oddiy rajput (jangchi)ga bitta yoki bir qishloqning yarmi ham berilgan. In’om etilgan yer “***grass”*** (“qultum” yoki “bo‘lak”) deb atalgan, uni olgan kishining asosiy majburiyati doimo harbiy xizmatga shay turish, urushlarda ishtirok etish bo‘lgan. Rojalar o‘z xonadonlariga mansub bo‘lmagan amaldorlarga yerni ma’lum xizmat muddatiga berganlar. Yer egaligining bu turi ***patta*** (“yorliqqa olingan yer”) deyilgan. Patta yeridan alohida xizmat ko‘rsatganlarni taqdirlash uchun ham foydalanilgan. Mulkchilik munosabatlarining yuksalib borishi bilan pattaga berilgan yerlar ham merosiy mulkka aylana boshlagan.

Istilochi eftaliylar asta-sekin mahalliy aholining yuqori toifalari bilan aralashib boradi hamda rajputlar kastasiga asos soladilar. Rajputlar hukmdorlari shimoliy va markaziy Hindistonning bir qismida 20 dan ortiq knyazliklar tuzib, ularni rojalar sifatida boshqarganlar. Bu knyazliklar juda katta boyliklarga ega bo‘lib, ularning xazinalari haqida ko‘plab afsonalar yaratilgan. Rajput davlatlarida hukmron din hinduiylik bo‘lgan.

BILAG‘ONLAR UCHUN!

Rajputlar (“podsholar o‘g‘illari”) O‘rta Osiyodan kelgan ko‘chmanchi eftaliylar va mahalliy zodagon gujarotlarning avlodlari bo‘lishgan. Ularning aksari Rajputanda (hozirgi Rojaston) yashaganlar. Talaygina hind knyazlari ham o‘zlarining ularga mansubligini ta’kidlashgan. Bu hind ritsarlari dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlar mehnatini mensimaganlar. Ular faqat ov va harbiy ish bilan shug‘ullanganlar, bu ishlarni kichik yoshlaridan o‘zlashtirganlar. Ular yevropalik ritsarlar singari tanalarini po‘lat zirxlarga o‘ramasdan, faqat yengil sovut kiyganlar. O‘tochar qurollarni qo‘rqoqlar quroli hisoblab, faqat qilich, nayza, xanjarlar bilan jang qilganlar. Dushman bilan yakka jang qilib, mardonavor kurashganlar. Rajputlar boshqa toifa va kastalardan o‘zlarini ustun qo‘yishgan. Ularda o‘z or-nomus qoidalari shakllanib, u hayotdan yuqori qo‘yilgan. Or-nomus qoidalari rajputni o‘z sardoriga sadoqatli, jasur, saxiy va axloqli bo‘lishini talab etgan. Rajputlar qo‘rqoqning jasadiga kalxat ham qaramaydi, deb hisoblashgan. Ularning ayollari ham jasurlik timsoli sanalganlar. G‘arbiy Yevropa ritsarlaridan farqli o‘laroq, rajputlarning aksari madaniyatli va ta’lim olgan bo‘lishgan.

Rajputlar hayoti

Hindistondagi siyosiy tarqoqlik vaqti-vaqti bilan bartaraf etilganday bo‘ladi. Ammo bu turdagi davlatlar bir necha knyazliklardan iborat bo‘lib, markaziy hokimiyat zaifligi sababli tez parchalangan. Rojalar goh ittifoqqa birlashgan, gohida yana urushlarga kirishib ketishgan. O‘zaro urushlardan zaiflashgan mamlakat yangi istilolar uchun qulay o‘lka bo‘lib qoladi. Xususan, G‘azna hukmdori Mahmud XI asrning boshlarida Hindistonning shimoliga 17 marta harbiy yurishlar uyushtirgan. Shu tariqa Hindistonning shimoliga musulmonlar o‘rnashib, ular istilo qilgan hududlarda XIII asr boshlariga kelib Dehli sultonligi tuziladi, bu voqea Hindiston kelajagida muhim o‘rin tutadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **O‘rta asrlarda Hindistonning birlashuviga qanday omillar halaqit bergan?**
2. **G‘arbiy Yevropa ritsarlari va hind rojalari o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda tafovutlarni jadval tuzib qiyoslang.**
3. **Xarsha islohotlari haqida nimalarni bilib oldingiz?**
4. **O‘rta asrlarda Hindistonni kimlar istilo qilganini xaritadan aniqlang.**

13-mavzu

Xitoy – “Osmonosti imperiyasi”: yuksalish va tushkunliklar

Tan sulolasi

SIZ BILIB OLASIZ:

- **konfutsiylik, daosiylik, buddaviylik ta’limotlari;**
- **Xitoydagi yer egaligi munosabatlari;**
- **shaharlar, hunarmandchilik va savdoning yuksalishi haqida.**



Buyuk Xitoy devori

ESLAB KO‘RING!

- **Qadimgi Xitoyda qaysi sulolalar hukmronlik qilgan?**

Mil. avv. V asrda Xitoyda donishmandlar – Konfutsiy va Lao-szilarning axloqiy-siyosiy va diniy-falsafiy ta’limotlari qaror topgan. Insonlar orasidagi munosabatlarda xitoyliklar konfutsiylik ko‘rsatmalariga rioya qilganlar: unga ko‘ra, inson uchun eng muhimi insoniylikni saqlab qolish bo‘lgan.

Buning uchun ajdodlar yaratgan marosimlarga (odob qoidalariga) qat’iyan, og‘ishmasdan amal qilish tavsiya etilgan. Agar vafot etgan marhumni shoyi matodan tikilgan kiyimda dafn etish aytilsa, yaqin qarindoshlari oxirgi pullariga bir burda non emas, aynan shoyi gazlamani sotib olishgan. Har bir kishi jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, kattalarga quloq solish, kichiklar haqida g‘amxo‘rlik qilishga intilgan. Konfutsiylik tarbiyaviy asarlar orqali imperatorni (Osmon o‘g‘lini) xalqni insonga muhabbat ruhida boshqarish, ezgulikka ezgulik, yovuzlikka esa adolat bilan javob berishga undagan.

III asrda Xan imperiyasi inqirozga uchrab, mamlakat zaiflasha boshlagach, shimol va g‘arbdan ko‘chmanchi turkiy qabilalarning hujumlari kuchayadi. Natijada Xan imperiyasi uchta podsholikka parchalanib ketadi. Biroz vaqt o‘tgandan so‘ng uch podsholik davri

Sun sulolasi tangasi

Konfutsiy ibodatxonasi

tugab, mamlakat yagona davlatga birlashadi. Biroq shimoliy dashtlarning ko‘chmanchi qabilalari IV–V asrlarda Xitoy hududiga qarab siljiy boshlashi natijasida, mamlakatda siyosiy tarqoqlik hukm surib, imperiya ko‘plab o‘zaro raqobatdagi podsholiklarga bo‘linib ketadi. Ulardan biri Vey podsholigi bo‘lib, uning poytaxti Loyan shahri edi. Bu sulola davrida Xitoyda yer egaligi munosabatlari rivojlanib, davlat chek yer tizimi shakllana boshlaydi. Unga ko‘ra, imperator mamlakatdagi barcha yerlarning egasi hisoblanib, yerni dehqonlar oilasiga — undagi mehnatga yaroqli kishilarning soniga qarab — taqsimlab bergan. Buning evaziga dehqonlar o‘zlari yetishtirgan hosilning bir qismini soliq sifatida davlatga to‘lashlari kerak bo‘lgan. Qator islohotlar o‘tkazganligiga qaramay, Vey sulolasi ham Xitoydagi siyosiy tarqoqlikka barham bera olmagan. Mamlakatga ko‘chmanchilarning hujumi davom etib, Turk xoqonligining bosqini xavfi kuchaygan.

Donishmand Lao-szi

Bunday sharoitda konfutsiylik va daosiylik donishmandlari o‘z hotirjamligini yo‘qotgan odamlarni tinchlantira olmaydilar. Ularga umid beruvchi so‘zlar Hindistondan kelgan buddaviylik rohiblaridan chiqadi. Ular hayotdagi barcha azob-uqubatlar insonlarning xohish-istaklari tufayli vujudga kelgan, inson o‘z istaklarini jilovlashi, yomonlik qilmasligi hamda o‘zaro yordam berishi kerak, deb tushuntirganlar.

Shaharlarda konfutsiylik va daosiylik ibodatxonalari qatorida buddaviylik ibodatxonalari ham qad ko‘taradi. Konfutsiylik ibodatxonalarida Konfutsiyning hikmatli so‘zlari bilan bir qatorda daosiylikdagi Lao-szi va Budda haykalchalari yonma-yon turgan.

Shu tariqa xitoyliklar ongida uch ta’limot – konfutsiylik, daosiylik va buddaviylik chirmashib ketadi.

Ayni paytda Xitoyni o‘rab turgan mamlakatlar – Koreya, Yaponiya, Vyetnam, Tibetda ilk shaharlar va davlatlar vujudga kela boshlagan. O‘zlarining yuksak taraqqiy etgan qo‘shnilaridan ular iyeroglif yozuvi, qonunlar va uch buyuk ta’limotni o‘zlashtirganlar. Bu ta’limotlar dunyoning tuzilishini ibtidoiy afsonalarga nisbatan yaxshiroq izohlab bergan. Asta-sekin Uzoq Sharqda o‘ziga xos madaniyat shakllandi, uni Xitoy yoki Uzoq Sharq sivilizatsiyasi deb nomlash mumkin. Bu sivilizatsiyaning asosi konfutsiylik, daosiylik va buddaviylikning birlashmasidan paydo bo‘lgan.

Donishmand Konfutsiy

OSMONOSTI IMPERIYASI

VI asr oxirlaridan Xitoydagi mayda podsholiklar Markaziy Osiyoda vujudga kelgan Turk xoqonligi bosqini xavfi ostida birlashadi. Osmonosti imperiyasini birin-ketin Suy (589–618), Tan (618–907), U Day (907–960) va Sun (960–1279) sulolalari hukmdorlari boshqargan. Imperatorlik taxtiga chiqqan inson “xudoning farzandi” – Osmon o‘g‘liga, butun Osmonosti saltanati hukmdoriga aylanar edi.

Oddiy insonlar Osmon o‘g‘li bilan faqat tiz cho‘kib, ko‘zlarini pastga qaratib so‘zlashishlari shart bo‘lgan. Imperatorning so‘zlari qonunga aylangan. U har bir erkin dehqonni bir xil – 80 mudan ekin maydoni bilan taqdirlagan. Dehqon yerni sotishi mumkin bo‘lmagan. Bu ekin maydoni evaziga dehqon davlatga hosilning bir qismi sifatida soliq to‘lashdan tashqari, ommaviy ishlarda mehnat qilish majburiyatini ham olgan. Ular Xuanxe va Yanszi daryolarini birlashtirgan Buyuk kanalni barpo etganlar hamda Buyuk Xitoy devorini ta’mirlashda ishtirok etganlar. Tartibga solingan xo‘jalik, osoyishtalik va intizom qishloq aholisining tez sur’atlar bilan o‘sishini ta’minlagan. Yirik shaharlar yanada yuksalgan. Tekis va ravon tosh yo‘llarda ibodatxonalar, saroylar qad ko‘targan. Qadimgi kashfiyotlardan tashqari (shoyi gazlamalar to‘qish, qog‘oz ishlab chiqarish), xitoyliklar oppoq va silliq chinni yasash sirini, iyerogliflar o‘yib chiqilgan maxsus taxtachalar yordamida kitob bosishni hamda poroxni kashf qilganlar, kompasni takomillashtirganlar.

Imperator libosining rangi u hukmdor bo‘lgan yerning ramzi bo‘lgan, kashtalardagi ajdarholar osmon va zaminni ifodalagan.

DAVLAT BOSHQARUVI TARTIBI

Imperator qonunlariga ko‘ra, barcha xitoyliklar jamoalarga (qishloq, hunarmandchilik, savdo sohalari bo‘yicha) birlashtirilgan edilar. Jamoalarni boshqarish, soliqlarni to‘plash bilan imperiya mansabdorlari shug‘ullanganlar.

Mamlakat osoyishtaligi va xazinaning to‘la bo‘lishi mehnatkashlarning farovonligi bilan bog‘liq ekanligini ular hamisha yodda tutishlari zarur edi. Shuning uchun Konfutsiy ta’limotiga ko‘ra, mansabdor nafaqat ta’lim olgan bilimli, shuningdek, go‘zal xulqlarga ega inson bo‘lishi ham kerak edi. U adolatli, beg‘araz, xalq manfaati uchun barcha narsadan voz kecha oladigan kishi bo‘lmog‘i lozim edi.

Amaldorlarning shu kabi talablarga mos keladiganlari davlat imtihonlari orqali tanlab olinganlar. Imtihonlarni har bir kishi topshirishi mumkin edi. Yuzlab talabgorlar chiroyli iyerogliflar bilan davlat boshqaruvi san’ati bo‘yicha insho yozishlari, Konfutsiy va boshqa donishmandlar asarlaridan parchalarni yoddan aytib berishlari, marosimlarni bilishlari va insoniylik burchini ko‘rsata olishlari lozim edi. Faqat eng sara insonlar amaldorlik unvoni, xizmat lavozimi va davlat soliqlari hisobidan maosh olish huquqini qo‘lga kiritganlar. Ularning aksari qishloq jamoasi bilan birlashib, iqtidorli bolalarning – kelajakda ularning homiyligiga umid qilib – ta’lim olishlari uchun moliyaviy ko‘mak berganlar.

O‘sha zamonda xalq orasida shunday maqol paydo bo‘lgan: “Davlat boshqarmalari dengiz singari chuqur, ulardagi suiiste’molliklar esa osmon singari balanddir”. X–XII asrlarda amaldorlarning suiiste’molliklari va yer tanqisligi tufayli mamlakatda dehqonlar qo‘zg‘olonlari boshlanadi. Mamlakat zaiflashishi natijasida 1279-yilda mo‘g‘ullar hukmdori Xubilay tomonidan butunlay bosib olinadi.

Shundan xulosa qilish mumkinki, Xitoy o‘rta asrlarda konfutsiylik an’analariga tayangan qudratli davlat bo‘lgan.

Mo‘g‘ul lashkarining Xitoyga hujumi

ATAMALAR IZOHI

Mu – xitoycha yer maydoni o‘lchov birligi: 1 mu taxminan 6 sotixga teng.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **O‘rta asrlarda Xitoyning shimol va shimoli-g‘arbidagi qo‘shnilari – ko‘chmanchi xalqlar bilan munosabatlari qanday kechgan?**
2. **O‘rta asrlardagi Xitoy madaniyati, dehqonlar va amaldorlar hayoti haqida so‘zlab bering.**
3. **Xitoyda III–XIII asrlarda davlat boshqaruvi qay tarzda amalga oshirilgan?**

14-mavzu

Koreya o‘rta asrlarda

SIZ BILIB OLASIZ:

- ilk Koreya davlatining vujudga kelishi;
- uch qirollikning paydo bo‘lishi;
- Koguryo, Pekche, Silla va Koryo davlatlari haqida.

Kyonbokkun saroyining asosiy darvozasi

CHOSON MAMLAKATI

Choson (koreyscha, *“Tonggi tarovat”*) mamlakati ilk koreys davlatidir. Mazkur davlatning asoschisi afsonaviy Tangun bo‘lib, u poytaxti Pxenyan bo‘lgan Choson qirolligiga asos solgan. Rivoyatlarga ko‘ra, “Samoviy hukmdorning o‘g‘li shahzoda Xvanun Txeboxsan tog‘ida ilohiy maskan qurdirgan. U odamlarni o‘qitib, dehqonchilik, tibbiyot, duradgorlik, to‘quvchilik, baliqchilik singari zarur kasb-hunarlarni o‘rgatgan. Kunlarning birida tog‘da insonga aylanish orzusidagi yo‘lbars va ayiqni uchratgan shahzoda ularga shunday degan: “Kimki tog‘da yuz kun faqat ermon (o‘simlik) va sarimsoq piyoz yeb yashasa, uning orzusi, albatta, ro‘yobga chiqadi”.

Ayiq qo‘yilgan shartni bajargach, qizga aylangan va Xvanun unga uylanib, Tangun ismli o‘g‘il ko‘radi. Yigit ulg‘aygach, Pxenbinda (Pxenyanda) **Choson davlati**ga asos solgan. Koreyslar Tangun davrini koreys xalqining tashkil topish davri deb hisoblashadi.

UCH QIROLLIK DAVRI

Qadimgi Choson davlati mil. avv. I asrda o‘zaro nizolar, ziddiyatlar hamda xitoyliklar bilan bo‘lgan janglar tufayli parchalanib, uch qirollikka – Pekche, Silla va Koguryoga bo‘linib ketadi. Bu davr koreys tarixchilari tomonidan *“Uch qirollik*

davri” deb nomlanib, qariyb yetti asr davom etadi. Mazkur davlatlarning uzoq muddat hukmronlik qilishiga yarimoroldagi siyosiy muhit va tarixiy o‘ziga xoslik bilan birga, madaniyatning umumlashuvi ham ta’sir qilgan.

Aholi odatda ikki toifaga bo‘lingan: erkin aholi va urushda asirga olingan qullar. Qullar toifasiga kiruvchilar odatda sochlari kalta qilib olingan va ular doim nazoratda bo‘lgan.

KOGURYO QIROLLIGI

Mil. avv. I asrdan Shimoliy Koreyadagi qabilalarning qayta birlashuvi oqibatida yana qirolliklar tuzila boshlanadi. Ulardan biri shimoli-g‘arbdagi Koguryo I–II asrlarda qudratli davlatga aylangan. Uning asoschisi Jumong (Tonmyon) bo‘lgan. Dastlab Koguryoning poytaxti Kunneson qal’asi bo‘lgan, V asrda Pxenyanga ko‘chirilgan. Koguryo qirolligining qo‘shini o‘zining jangovarligi bilan ajralib turgan. Ular birin-ketin qo‘shni hududlarni zabt etgan. IV asr boshlarida Koguryo xitoyliklarni o‘z hududidan batamom surib chiqaradi va har jihatdan rivojlangan qudratli davlatga aylanadi. Koguryoda zodagonlar toifasining mavqeyi yuqori ekanligi qirollar nufuzining past bo‘lishiga olib kelgan. Qirollik odatda ko‘pi bilan besh-oltita nufuzli oila vakillarining ishi bo‘lib, agar hukmdor mustaqil bo‘lishga intilsa, uni almashtirish qiyin ish bo‘lmagan. Koguryo o‘z hududini kengaytirish va mustaqilligini saqlab qolish maqsadida nafaqat Koreya yarimorolidagi qo‘shni qirolliklarga, shuningdek, Xitoydagi Xan, Suy va Tan sulolalariga qarshi tinimsiz kurashlar olib borgan. Ammo 668-yilda Tan sulolasi tomonidan Koguryo bosib olinib, hududining katta qismi Xitoyga hamda janubdagi uncha katta bo‘lmagan yerlar Silla qirolligiga o‘tgan.

PEKCHE QIROLLIGI

Koreya yarimorolining janubiy qismida III–IV asrlarda Pekche davlati vujudga keladi. Pekche qirolligi IV asrda markazlashgan davlatga aylanadi. Ilk budda tasvirlari Yaponiyaga ayni Pekche qirolligi davrida yetib boradi. O‘rta asrlarda pekchelik tabib, hunarmand va olimlar hozirgi Yaponiyaning ijtimoiy va madaniy hayoti asoslari shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatganlar. Hattoki pekchelik olim Van In Yaponiya taxt vorisi bo‘lgan shahzodaga ustozlik qilgan. Pekche sulolasi hukmdorlari orqali Koreyaga xitoy yozuvi – iyerogliflar hamda buddizm kirib keladi.

SILLA QIROLLIGI

Silla qirolligi Koreya yarimorolining janubi-sharqida joylashgan. Dastlab Uch qirollik ichida Silla qirolligi eng zaifi va kam taraqqiy etgani edi. Silla qirolligi 668-yilda Xitoydagi Tan sulolasi bilan ittifoq tuzib, Koreya yarimorolini o‘z hokimiyati ostida birlashtiradi. Lekin Koreya Xitoyga boj-yasoq to‘lab turgan. Mamlakatning birlashuvi Koreyada yer egaligi munosabatlarining uzil-kesil shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. O‘zaro urushlarga chek qo‘yilishi, qo‘shni davlatlar bilan tinchlik o‘rnatilishi mamlakatda ishlab chiqarish rivojiga yo‘l ochadi. VIII asr o‘rtalarida Silla qirolligining oltin davri boshlanadi. Ushbu davrda davlat o‘z taraqqiyoti va qudratining cho‘qqisiga erishadi.

Van Gon – Koryo davlatining asoschisi

KORYO QIROLLIGI

Uch qirollik parchalangach, lashkarboshi Van Gon tomonidan Koryo qirolligiga asos solinadi. Bu sulola mamlakatni 918–1392-yillarda boshqaradi. Bu davrda mamlakat poytaxti Sonak (Shimoliy Koreyadagi hozirgi Keson) bo‘lgan. Van Gon o‘z oldiga Koguryo qirolligining shimoli-sharqiy Xitoyda yo‘qotgan hududlarini qaytarib olish vazifasini qo‘yadi. Biroq ushbu vazifa amalga oshmay qoladi. XIII asr boshlarida Koryo qirolligi o‘zaro kurashlardan zaiflashib qoladi. Bundan foydalangan mo‘g‘ullar 1231-yilda Koryo qirolligini bosib oladi.

Koryo qirolligi tangasi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Sizning fikringizcha, hayvonlarning odamlarga aylanishi haqidagi rivoyatlar insoniyatning qaysi tarixiy bosqichida paydo bo‘lgan?**
2. **Uch qirollik haqida nimalarni bilib oldingiz?**
3. **Nima sababdan koreys qirolliklari: Choson, Pekche, Silla, Koryolar siyosiy jihatdan zaif bo‘lishgan?**

15-mavzu

O‘rta asrlarda kunchiqar mamlakat – Yaponiya

SIZ BILIB OLASIZ:

- Yaponiyaning orollarda joylashuvi uning tarixiga qanday ta’sir qilgani;
- Yaponiyada feodal davlat qanday vujudga kelgani;
- samuraylar kimlar ekanligi haqida.

Yaponiya tabiati (Fudziyama tog‘i)

YAPONIYANING GEOGRAFIK JOYLASHUVI

Yaponiya orollarda joylashgani sababli, boshqa mamlakatlarga nisbatan ajralib qolganligi, ayni davrda ko‘chmanchi xalqlardan tabiiy muhofazalanganligiga qaramasdan, Xitoyning ta’siri ostida bo‘lgan. Shunday bo‘lsa-da, uning madaniy taraqqiyoti ko‘plab o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi.

Yaponiya Xitoy va Koreyadan sharqda, bir necha minglab orollarda (ulardan to‘rttasi yirik) joylashgan. Uning iqlimi dehqonchilik qilish uchun qulay, lekin shu bilan birga qiyinchiliklarni yengishni talab etardi. Orollarning aksari tog‘lardan iborat bo‘lganligi uchun, ishlov beradigan yer maydonlari kam edi. Yaponiya chiroyli manzarali tabiati bilan ajralib turgan. Shuning uchun ham yaponlar go‘zallikni ajoyib tarzda his etgan hamda uni go‘zal she’riyat va tasviriy

TARIXIY MUSHOHADA!

Bog‘ yaratish san’ati Yaponiyada juda yuksalgan. Sayr qilish uchun ulkan bog‘lar bilan birga, faqat uydan turib, zavq olish mumkin bo‘lgan kichkina bog‘lar ham bo‘lgan. Manzarali joylarga san’atkorona ishlangan pavilionlar ham qurilgan. Ular orasida eng mashhuri – tomi yupqa oltin plastinalar bilan yopilgan “Oltin pavilion” hisoblanadi. Ko‘pchilik bog‘bonlar buddaviylik rohiblari bo‘lishgan. Ular bog‘ning tuzilishida buddaviylikning “haqiqatga erishish tabiatni anglash yo‘li bilan bo‘ladi” degan g‘oyasini birlashtirishga intilganlar.

san'atda, gullardan (ikebana) guldastalar tayyorlash-u bog'lar yaratishda namoyon etishgan.

Mamlakat tarixida geografik joylashuv ko'plab jihatlarni belgilab bergan. Uning orollarda joylashuvi Sharqning boshqa mamlakatlari tarixiga ta'sir etgan ko'chmanchilar bosqinlaridan ishonchli himoya vositasi bo'lib xizmat qilgan. Dengiz yaponlarni ozuqa bilan ta'minlagan, lekin okean sunamilari sohildagi shahar va qishloqlarni ko'p martalab vayron qilgan. Mamlakat boshqa tabiiy ofatlar – zilzilalar va vulqonlar otilishidan ham jabr ko'rgan. Asrlar davomida yaponlar tabiiy ofatlarga qarshi turishga o'rganganlar, o'zlarida ularga qarshi mehnatsevarlik va intizomlilik ko'nikmalarini shakllantirganlar.

Yaponlarning ajdodlari orollarga qit'adan ko'chib o'tganlar va shimoldagi Xokkaydo orolida yashovchi aynlar kabi mahalliy qabilalarni surib chiqarganlar. Ular xitoyliklardan choy, sholi, tibbiyot yutuqlarini, harbiy ishlarni, iyerogliflarni va yana ko'plab narsalarni o'zlashtirganlar. Xitoydan o'tgan buddaviylik yaponlarning an'anaviy dinlari bilan aralashib ketadi.

Mamlakat VII asrdan Nippon (yapon tilida, "kunchiqar mamlakat") deb atala boshlandi. Ushbu nomni anglatuvchi iyerogliflar Xitoyning janubida "ya pon" deb o'qilgan. Aynan shu sababli rus va Yevropa tillaridagi "Yaponiya" nomi kelib chiqqan.

Minamoto-no Yoritomo – Kamakuraning birinchi syoguni

MAMLAKAT TARAQQIYOTINING O'ZIGA XOSLIGI

Yaponiyada IV asrda qabilalar ittifoqi shakllanib, u bo'lajak davlat asosi vazifasini o'tadi. Ittifoq yo'lboshchisi, rivoyatlarga ko'ra, quyosh ilohidan tarqalgan taniqli urug' bo'lgan. Ilohning yerdagi vakillari imperator ***(mikado)*** unvonini olib, davrlar o'tib o'z hokimiyatini deyarli butun Yaponiyada o'rnatadi. Imperatorlar iloh hisoblangan, ammo real hokimiyatga ega bo'lishmagan. Odatda ularning nomidan davlatni eng nufuzli knyazlar boshqargan. Bu xildagi oliy harbiy hukmdorlar XII asrdan ***syogun*** unvoniga ega bo'lganlar.

Yaponiyadagi boshqaruv tizimi Xitoynikidan keskin farq qilgan va bu faqat imperator hokimiyatining zaifligida bo'lmagan. Mamlakatda zodagonlar toifasi ancha kuchli bo'lib, ko'p hollarda amaldorlar imperatorga qaraganda, ko'proq ularga qaram bo'lganlar. Vaqti-vaqti bilan markaziy hokimiyat zaiflashib, mamlakatda Yevropanikiga o'xshash siyosiy tarqoqlik hukm surgan.

SAMURAYLAR

Knyazlar xizmatida jangchi harbiylar – samuraylar bo‘lib, ular davrlar o‘tishi bilan yopiq toifani tashkil etadilar. Dastlab ular xizmatlari uchun yer-mulk olganlar, keyinchalik yer in’omi bo‘lmaganida xo‘jayinning uyida yashab, uning ta’minotida bo‘lganlar.

Harbiy ish samuraylar uchun kasb va merosiy mashg‘ulotga aylanadi. Ular bir qancha jihatlari bo‘yicha Yevropa ritsarlariga o‘xshaganlar. Samuraylar hayoti yozilmagan qonun ***(busido)*** qoidalari: o‘z burchiga sadoqat, jasurlik va sodiqlik g‘oyalariga asoslangan edi.

Ular butun hayotlari davomida harbiy mahoratlarini oshirganlar va uni yuksak darajaga ko‘targanlar. Samuraylar o‘z burchlarini hayotlaridan yuqori hisoblaganlar. O‘z xo‘jayinlarini yo‘qotsalar yoki nomunosib harakat qilishsa, o‘zlarini halok qilishgan.

XIII asr oxirida Yaponiyani mo‘g‘ullar Xitoy harbiy kemalari floti ko‘magida bosib olishga urinadilar. Dastlab dengiz to‘foni halaqit bergan bo‘lsa, keyingisida samuraylarning qat’iyat bilan oxirigacha jang qilishlari mo‘g‘ullarning Yaponiyani bosib olish rejasi amalga oshmadi.

Yapon jangchisi

Yaponlarning harbiy yurishi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Yaponiyaning geografik joylashuvi ijobiy holat edimi yoki aksincha, fikrlab javob bering.**
2. **Yaponiyada feodal davlat qachon vujudga kelgan, uning o‘ziga xosligi nimada?**
3. **Samuraylar haqida nimalarni eslab qoldingiz?**
4. **O‘rta asr Yaponiya aholisiga oid qo‘shimcha ma’lumotlarni internetdan toping.**
5. **Sizningcha, samuray uchun uning fe’l-atvoridagi qaysi jihati muhim hisoblanadi?**

16-mavzu



Amerika o‘rta asrlarda

SIZ BILIB OLASIZ:

- Amerika qit’asiga turli qabilalarning kirib kelishi;
- Mayya, Astek va Ink davlatlarining vujudga kelishi;
- Amerika aholisi madaniyati haqida.

Mayyalar davlatining ko‘rinishi

XO‘JALIK TARAQQIYOTI

Olimlarning fikricha, Amerika qit’asiga dastlabki odamlar Shimoliy Osiyodan hozirgi Bering bo‘g‘ozi orqali buyuk muzlik davrida, bundan 40 ming yil avval o‘ta boshlagan va bu jarayon uzoq davom etgan.

Natijada bu yerlarga yevropaliklar kelguniga qadar ham ko‘p sonli qabila va elatlar shakllangan. Bu qabilalarning asosiy qismi ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullangan. Ammo Markaziy va Janubiy Amerikaning tog‘ va tog‘oldi hududlarida dehqonchilik xo‘jaligi vujudga kelib, keng taraqqiy etgan. Bu hududlarda **kechua, mayya, astek, olmek** va **toltek** qabilalari yashaganlar. Ular tosh boltalar bilan o‘rmondagi daraxtlarni kesib, shox-shabbalarini yondirib, kulidan o‘g‘it sifatida foydalanishgan. Bu yerlarda yevropaliklarga ma’lum bo‘lmagan makkajo‘xori, kartoshka, kungaboqar, pomidor, kakao, tamaki ekinlari yetishtirilgan.

Amerikaning katta qismida xonakilashtirilgan hayvonlar bo‘lmagan. Ot, sigir, qo‘y va echkilar qit’aga keyinchalik Yevropadan olib kelingan. Ular uy hayvonlaridan: shimolda it, janubda tuyasimonlar oilasiga mansub lamani boqishgan. Xo‘jalikda parrandalardan kurka va o‘rdak saqlangan.

O‘YLAB KO‘RIB, XULOSA QILING!

*Amerika aholisining katta qismi urug‘chilik jamoasida yashagan. Faqat dehqonchilik bilan shug‘ullangan **mayya, astek** va **kechualar** o‘zlarining davlatlarini barpo qilganlar.*

Mayyalarga oid devoriy yozuvlar

Piktografik yozuv *(lotincha* ***pictus*** *– "rasmli" va yunoncha* ***grapho*** *– "yozaman", ya'ni rasmli yozuv) – ma'lumotning umumiy mazmunini rasm orqali yoki rasmlarning ketma-ketligi orqali eslab qolish maqsadida tasvirlash.*

Temir, omoch, g'ildirak, o'tochar qurollarni amerikalik hindular bilishmagan. Ularning mehnat va ov qurollari tosh, jez va yog'ochdan yasalgan. Aholining katta qismi urug'chilik jamoasida yashagan.

MAYYALAR DAVLATI

Markaziy Amerikaning Yukatan yarimorolida (hozirgi Meksika) qadimdan mayya xalqlari yashab kelgan. Milodiy I ming yillikda mayyalarda shahar-davlatlar vujudga keladi. Ularning har birini ***"buyuk kishi"*** – hukmdor boshqargan, uning hokimiyati merosiy bo'lgan.

Mayyalarning iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti milodiy asr boshlarida yozuvni yaratish imkonini beradi. Kohinlar qilqalam bilan iyerogliflarni bitib, rasmlar bilan bezatganlar. Mayyalar hayotida kohinlar muhim o'rin tutgan. Ular jamoa a'zolariga dehqonchilik ishlarini bajarish muddatlarini belgilab berganlar. Mayyalar eng aniq taqvimlardan birini yaratganlar. Matematikaga "nol"ni anglatuvchi belgi mayyalar tomonidan hindlardan avval kiritilgan. Mamlakat poytaxti **Chichen-Itsa**da rasadxona qurilgan. Unda kohinlar sayyoralarning quyosh tevaragida aylanish vaqtini hisoblab chiqqanlar hamda Quyosh va Oyning tutilishini oldindan aytib bera olganlar.

Mayyalar maxsus tepaliklar yasab, baland poydevorlar ustida o'zlarining zinapoyali ehromlarini, saroy va ibodatxonalarini barpo etganlar. Saroy va ibodatxonalarning derazalari bo'lmagan, ular eshiklar orqali yoritilgan. Tekis va ravon shahar ko'chalari toshdan bunyod etilgan.

ASTEKLAR DAVLATI

Markaziy Amerikaning hozirgi Meksika hududida joylashgan. Bu yerlarga shimoldan kelgan **asteklar** katta ko'l o'rtasidagi orollarda XII asrda **Tenochtitlan** shahriga asos soladilar; ular sun'iy to'g'onlar bunyod etishgan, ibodatxonalar va saroylar qurishgan.

Asteklarda yer taqchil bo'lganidan, ko'l tagidan suv o'simliklari va unumdor loyni ko'tarib, sollarda ***"suzuvchi dalalar"*** ham yaratganlar. Bu o'ziga xos ekinzorlardan yiliga bir necha marta hosil olingan.

Asteklar urug'-jamoa bo'lib yashaganlar. Jamoa boshliqlari saylab qo'yilgan. Ekin maydonlari jamoa a'zolariga taqsimlab berilgan. Hukmron qabila vakillaridan **tlatoani** – lashkarboshi saylanib, u oliy hukmdor bo'lishidan tashqari, bosh kohin vazifasini ham bajargan.

Mayya piramidasi

Asteklar xo‘jaligining asosi sug‘orma dehqonchilik bo‘lgan. Eng muhim ekin makkajo‘xori bo‘lib, undan mo‘l hosil olingan.

Asteklarda hunarmandchilikning kulolchilik, to‘qimachilik, mis va oltindan zargarlik buyumlari yasash kabi sohalari yaxshi rivojlangan. Ayni paytda ular temir ma’danini bilishmaganligi sababli, bolta va pichoqlarni toshdan yasashda davom etgan. Zargarlar qimmatbaho toshlarga ishlov berib, qadama naqshlar (mozaika) yasab, saroy va ibodatxona devorlarini bezashgan. Astek hunarmandlari ayniqsa naqshin idishlar, ajoyib gazlamalar, qush patlaridan tovus kabi tovlanadigan kashtalar tikishda mohir bo‘lganlar.

Quruvchilar to‘g‘onlar, kanallar qurib, xom g‘isht yoki toshdan yasalgan ustunlar ustida uylar bunyod etganlar. Bozorlarda mol ayirboshlash orqali savdo yaxshi rivojlangan.

Asteklar qo‘shni mayyalar ixtirosi asosida o‘zlarining quyosh taqvimini yaratganlar. Piktografik yozuv shakllangan. Asteklar dini ko‘p xudolikka asoslangan edi. Ibodatxona kohinlari xalq orasida alohida hurmat-e’tiborga ega bo‘lgan

Poytaxt Tenochtitlanda zodagonlarning farzandlari va oddiy xalq bolalari uchun alohida-alohida maktablar bo‘lgan. Xalq bolalari uchun maktablarda dehqonchilik, hunarmandchilik va harbiy ish o‘rgatilgan. Zodagonlarning farzandlari esa tarix, husnixat, o‘qish, hisoblash, astronomiya, she’riyat, notiqlik san’atlari asoslarini o‘rganishgan. Tenochtitlanda har yili madhiya, qissalar yozadigan shoir-qo‘shiqchilar musobaqalari o‘tkazilib, g‘oliblar mukofotlangan.

Suzuvchi dalalar

Ink jangchilari



INKLAR DAVLATI

Janubiy Amerikaning And tog‘lari yonbag‘irlaridagi vohalarda inklar davlati vujudga kelgan. Kechua tillarida so‘zlashuvchi inklar XII–XIII asrlarda Urubamba daryosi havzasida **Kusko** shahriga asos soladilar.

Inklar boshqa qabilalar yerlarini bosib olib, And tog‘laridan Tinch okeanigacha bo‘lgan ulkan hududda o‘z hokimiyatlarini o‘rnatadilar. Bu davlatni **Oliy Inka** boshqargan. U *“Quyoshning o‘g‘li”*, uning yerdagi ramzi sanalgan. Aholi, shuningdek, turli tabiat kuchlari, yer va suv ilohlariga ham e’tiqod qilganlar. Bosib olingan hududlar aholisiga inklar o‘z tartiblarini, madaniyatlarini o‘tkazganlar. Natijada dastlab qabila nomi bo‘lgan *“ink”* atamasi hukmron toifa – zodagonlarning umumiy nomiga aylangan.

Inklardan bo‘lmagan aholi jamoa bo‘lib yashab, hukmron toifa uchun ishlagan. Jamoa dehqonlar oilalaridan tashkil topib, ularning har biriga ma’lum yer, ekin maydoni biriktirib qo‘yilgan. Jamoalar yetishtirgan hosilning 2/3 qismini davlat va ibodatxonalarga topshirganlar. Mamlakatda rasman qulchilik bo‘lmasa-da, jamoa a’zolari shafqatsiz ishlatilgan va deyarli huquqsiz bo‘lgan.

Tog‘li hududlar dehqonchilik uchun noqulay edi. Natijada jamoa erkaklari tik qoyalar yonbag‘rini o‘yib, toshlarning ustiga unumli tuproq yoyishgan. Bunday ekinzorlar tuprog‘ini yomg‘ir yuvib ketmasligi uchun atrofi tosh devorlar bilan o‘rab chiqilgan. Inklarda asosiy ekinlar kartoshka va makkajo‘xori bo‘lgan. Dehqonlar, shuningdek, qovoq, paxta, ananas, banan ham yetishtirganlar.

Inklar shahri Machu-Pikchu – “Eski tog‘”

O‘YLAB KO‘RIB, XULOSA QILING!

Inklarda yetishtirilgan hosil uchga bo‘lingan: bir qismi ibodatxona kohinlariga, ikkinchi qismi Oliy Inkaga berilgan, uchinchi qismi esa jamoaga qoldirilgan. Davlat omborlariga to‘plangan oziq mahsulotlaridan qo‘shin va amaldorlarga berilgan. Urush, hosilsizlik yillari yoki turli tabiiy ofatlar paytida barcha jabrlanganlarga davlat zaxirasidan makka doni va quritilgan kartoshka tarqatilgan.

Xo‘jalikda chorvachilikning o‘rni ham muhim bo‘lib, lama va alpakalarni faqat go‘shti hamda juni uchun boqmasdan, ulardan yuk tashish uchun ham foydalanishgan. Inklarda kulolchilik, zargarlik, to‘qimachilik, bo‘yoqchilik, qurilish sohalari ayniqsa yuksalgan.

Poytaxt **Kusko**ni viloyatlar bilan bog‘laydigan, umumiy uzunligi 15 minglab kilometr bo‘lgan tosh yo‘llar barpo etilgan, viloyatlar orasida pochta xizmati yo‘lga qo‘yilgan. Maxsus choparlar yugurgan holda bir-birlariga xabarni yetkazib, uni uzoq masofalarga yetkazganlar.

Zodagonlarning bolalari maxsus maktablarda o‘qigan. Yozuv bo‘lmagani sababli, bolalar inklarning dini, boshqaruv tartibi, qonunlari va udumlariga oid ma’lumotlarni yodlaganlar. Inklarning o‘ziga xos ***“tugunli xati”*** (kipu) bo‘lib, uning sirlari faqat ruhoniylarga ma’lum edi.

Inklar matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, botanika bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lganlar. Ularning aniq taqvimi 12 oyga bo‘lingan. Tabiblar insonning bosh suyagida jarrohlik muolajalarini amalga oshirishni bilganlar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Amerika tub aholisining mashg‘ulotlari haqida gapirib bering.**
2. **Mayyalar tarixi va madaniyati haqida nimalarni bilasiz?**
3. **Asteklar kimlar? Ular haqida so‘zlab bering.**
4. **Inklar davlati qachon va qayerda vujudga kelgan?**
5. **Amerika xalqlarining maorif sohasidagi o‘ziga xosliklari nimalarda aks etgan?**

San-Vitale bazilikasi

Bazilika (yun. basilike – "shohona bino") yepiskop Ekkleziy tomonidan 527–548-yillarda Ravenna (Italiya)da qurilgan. Bu G‘arbiy Yevropadagi Vizantiya san'atining nodir me'morchilik namunasi sanaladi.



O‘rta asr Yevropa shaharlari

Har bir shaharda sobor, bozor va mustahkam saroylar mavjud edi. Shahar devorlari tashqarisida qishloqlar, mevali bog‘lar va shahar aholisining ekin maydonlari bo‘lgan.



Antioxiya jangi

1097-yil 20-oktyabrda Bogemond I qo‘mondonligidagi salibchilar bilan Mosul amiri Kerboga qo‘shini o‘rtasida Antioxiya uchun jang bo‘lib o‘tadi.



III BOB

O‘RTA ASR XALQLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR

17-mavzu

O‘rta asrlarda xristian olamida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar



SIZ BILIB OLASIZ:

- xristian dinining tarqalishi va uning oqimlari;
- xristian cherkovining bo‘linib ketishi va buning sabablari;
- cherkov va davlat o‘rtasidagi munosabatlar;
- dahriylarga qarshi kurash haqida.



O‘rta asrdagi cherkov rohiblari

YEVROPADA XRISTIAN DINING TARQALISHI

Xristian dini IV asrdan german qabilalari orasida ham tarqala boshlaydi. V asrning oxirida Franklar qiroli Xlodvig xristianlikni qabul qiladi. Angliya va Irlandiya monastirlaridan yetishib chiqqan serg‘ayrat rohiblar Yevropaning eng chekka joylariga ham borib, aholini xristianlikka o‘tkazadilar.

Kiyev Rusi va Bolgariya X asr oxirlarida Vizantiyadan xristianlikning pravoslav mazhabini qabul qilgan.

Xristian dini Yevropada IV asrdan boshlab tarqala boshlagan.

CHERKOVNING BO‘LINISHI

Rim imperiyasining G‘arbiy va Sharqiy Rimga ajralishi cherkov- ning ham bo‘linishiga olib keladi. Frank qiroli ko‘magida 756-yil Italiyada Rim papalari davlati – **Papa viloyati** tashkil topadi. Vizantiya cherkovi esa avvaldan davlatga bo‘ysunuvchi, Konstantinopol patriarxi boshqaradigan diniy tashkilotga aylanadi.

Sharqiy Yevropada bolgarlarni xristian diniga o‘tkazishdagi raqobat cherkovning rasman g‘arbiy katolik (“jahon”) va sharqiy pravoslav (“sof din”, “chin e’tiqod”) cherkovlariga bo‘linishiga olib keladi. 1054-yildan boshlab hozirgi kunga qadar rim-katolik va yunon-pravoslav cherkovlari mustaqil faoliyat yuritib kelmoqda. G‘arbda cherkov va’zlari lotincha, sharqda esa yunon tilida olib borilgan. Katolik cherkovi barcha ruhoniylarga uylanishni taqiqlasa (“selebat”), pravoslavlarda faqat rohiblar oila qurmagan.





Indulgensiya tartibi

CHERKOV VA DAVLAT

Yevropada V asrda boshlangan yer egaligi munosabatlariga o‘tish jarayonidan cherkov ham chetda qolmaydi. Ekinzorlarning uchdan bir qismi ibodatxona va monastirlar qo‘lida to‘planadi. Davlat soliqlaridan ozod etilgan bu yerlarda cherkovdan ijaraga yer olgan yuz minglab qaram dehqonlar mehnat qilganlar.

Undan tashqari, xristian cherkovi aholidan ushr (hosilning 1/10) solig‘ini undirgan. Aholi, shuningdek, bolani cho‘qintirganda, nikohdan o‘tganida, marhumga ta’ziya marosimi o‘tkazilganda va boshqa udumlar uchun ham pul to‘lagan. Cherkovga tushadigan daromadning ancha qismi Rim papasi xazinasiga yuborilgan. Bulardan tashqari, katolik cherkovi **indulgensiya** (lotincha, “afv”) – papa tomonidan kishilarga qilgan va hali qilmagan gunohlarini kechish uchun pulga sotilgan yoki katolik cherkovi oldidagi xizmatlari evaziga berilgan yorliqlarning hisobiga ham boyigan.

Yevropada cherkov davlatning muhim tashkilotiga aylanib, uning siyosiy va iqtisodiy faoliyatiga aralashgan, sud vazifasini ham bajargan. Cherkov qo‘llagan jazolarning eng og‘iri interdikt – mamlakatda ibodat va marosimlarning vaqtinchalik taqiqlanishi bo‘lgan.

Innokentiy III (1198–1216) papaligi davrida katolik cherkovi o‘z qudratining cho‘qqisiga chiqadi. Papaning *“Oy o‘z yog‘dusini Quyoshdan olganidek, qirol hokimiyati o‘z jilosini papalikdan oladi”* degan so‘zlari amalda bo‘lgan. Rim papasi german, fransuz va ingliz hukmdorlarini interdikt orqali tavba-tazarru qildiradi. Aholiga o‘z hukmini o‘tkazishda papa rohiblarga tayangan.

DAHRIYLARGA QARSHI KURASH

Cherkov va uning ta'limotiga qarshi kishilar yeretiklar (yunoncha, "dahriylar") deb nomlangan. O'zlarini "sof xristianlar" deb atagan bunday kishilar cherkovning boyliklari, hashamatli udum-marosimlariga qarshi chiqib, sodda cherkov g'oyasi tarafdorlari bo'lishgan. Ular katolik cherkovi katta boyliklarni qo'lga kiritib, iblisning quroliga aylanganiga ishonishgan. Shu bilan birga, cherkov boylikdan voz kechib, Iso Masihning havoriylari ergashgan "adolat va haqiqat yo'li"-dan borishi kerak deb hisoblashgan. Jamoat tomonidan qabul qilingan e'tiqod asoslaridan farqli o'laroq, "sof xristianlar" ruhoniylar kerak emasligini va har kim xudoga o'zi murojaat qilishi mumkinligini e'lon qiladilar. Shahar aholisining ko'pchiligi, dehqonlar va hatto ritsarlar katolik cherkovini tark etib, "sof nasroniylar" jamoasi bilan marosimlarni bajarishga kirishadilar. Bunday sharoitda papalik tomonidan yeretiklarga qarshi kurashish uchun cherkov sudi – **inkvizitsiya** (lotincha, "qidiruv") tuziladi. Xristian cherkovi dushmanlarini izlab topish va jazolash bilan shug'ullangan inkvizitsiya papa **Grigoriy IX** (1227–1241) davrida ayniqsa avj oladi.

O'YLAB KO'RIB, XULOSA QILING!

Yeretiklarni ushlash va jazolash uchun kelgan inkvizitorlar shahar aholisini yig'ib, har bir kishi bir necha kun ichida gunohidan ixtiyoriy ravishda tavba qilishi mumkinligini e'lon qilishgan. Bu holatda insonni yengil jazo kutardi: butun umri davomida xoch belgisini taqib yurish, har yakshanba kuni cherkovda tayoq bilan kaltaklanish, muqaddas joylarga uzoq muddatli ziyoratga borish.

Rim papasi Grigoriy IX

TARIXIY MUSHOHADA!

Inkvizitsiya sudida biror kishi qiynoqlarga chiday olmay, dahriyligiga iqror bo‘lganida, u cherkovga xizmat qilish majburiyati, umrbod qamoq yoki ustunga bog‘lab yoqish jazolariga hukm qilingan.

Inkvizitorlar jazoni ijro etuvchi kishining xizmatlari va qatl qilish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalarga cherkovdan pul ajratishgan.

Inkvizitsiya faoliyati Ispaniyada ayniqsa keng tus oladi. Papa har bir shahar va qishloqlarga inkvizitorni uning yordamchilari bilan yuborgan. Shaharlarga borib, ular aholini bir-ma-bir so‘roq qilishgan. Agar kimdir ikkita guvoh tomonidan yeretik deb e’tirof etilsa, ayblanuvchi inkvizitsiya sudiga chaqiruv olgan va qoida tariqasida zanjirband qilinib, qorong‘i zindonga tashlangan. Inkvizitorlar ularni iymondan chiqib ketganliklarini tan oldirishga intilib, ruhiy azoblar bilan qo‘rqitishgan, uning “gunohkor tanasini” qiynoqqa solishgan.

Inkvizitsiya sudi

Mahkumlarni gulxanda yondirish “autodafe” (portugalcha, “e’tiqod” yoki “din ishi”) deyilgan. Unga ko‘ra, yeretik maydonga olib chiqilgan va ustunga bog‘lanib, xalqning ko‘z o‘ngida gulxanda yoqilgan. Olov yonib ketgan odamning ruhini yomon tanadan va uning gunohlaridan tozalashiga ishonishgan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Yevropada xristian dini qachondan keng tarqala boshlagan?**
2. **Katolik va pravoslav cherkovlarining paydo bo‘lish sabablarini ko‘rsating.**
3. **O‘rta asrlarda cherkov qanday o‘rin tutgan?**
4. **Indulgensiya savdosini qanday tushundingiz?**
5. **Inkvizitsiya nima va u kimga xizmat qilgan?**

18-mavzu

Salib yurishlari

SIZ BILIB OLASIZ:

- salib yurishlari uchun qulay sharoitning paydo bo‘lishi va uning sabablari;
- salib yurishi ishtirokchilarining maqsadlari;
- salib yurishlarining o‘ziga xos farqli jihatlari;
- Vizantiyaning tiklanishi;
- salib yurishlarining tugashi va oqibatlari haqida.

SALIB YURISHLARINING SABABLARI

Salib yurishlari G‘arbiy Yevropa feodallarining Yaqin Sharqga uyushtirgan bosqinchilik va talonchilik urushlari edi. Bu yurishlar 1096–1270-yillar oralig‘ida bo‘lib o‘tgan. Sharq yerlarini egallash orqali cherkov o‘zining ta’sirini yanada kuchaytirishni maqsad qilgan. Sharqda XI asr oxirida vujudga kelgan vaziyat salib yurishlari uchun qulay sharoit tug‘dirgan. Kichik Osiyo yarimoroli deyarli to‘liq saljuqiy turklar qo‘lida edi. Bu yerdan G‘arb mamlakatlarining ziyoratchilari Falastinning muqaddas joylariga, xristianlar rivoyatlariga ko‘ra, Iso payg‘ambar dafn etilgan Quddusga boradigan yo‘llar o‘tardi. Quddus esa deyarli besh asrdan buyon musulmonlar qo‘lida edi. Mahalliy hukmdorlar va aholining ziyoratchilarga munosabati yomon bo‘lmasa-da, XI asr oxiridan boshlangan musulmon hukmdorlarning o‘zaro urushlari xristianlarning ziyoratlariga xavf tug‘dira boshlagan. Vizantiya imperatori Rim papasi bilan kelishmasa-da, xristianlar dushmanlari bilan kurashish

TARIXIY MUSHOHADA!

***Xoch**, krest, salib – xristianlikning asosiy timsollaridan biri, pravoslav va katoliklarda diniy sig‘inish buyumi. Xochga sig‘inish IV asrda rasmiy tus olgan. Xristianlar rivoyati bo‘yicha, Iso xochga tortilgan, shunga ko‘ra, xoch tasviri xristianlik timsoliga aylangan.*

Papa Urban II nutqi

uchun jangchilar yuborishini so‘rab, G‘arbga murojaat qiladi. Papa **Urban II** 1095-yilda Fransiyaning janubidagi **Klermon** shahrida cherkov yig‘iniga to‘plangan minglab ruhoniylar, ritsarlar va oddiy xalq vakillari huzurida nutq so‘zlaydi. U Quddusdagi “payg‘ambar qabrini” musulmonlardan ozod etishga chaqiradi. Papa yurishda ishtirok etganlarga ularning gunohlari kechirilishini, halok bo‘lganlar ruhining jannatga – “arshi a’loga” tushishini va’da qiladi. Urban II Falastin – “muqaddas yer”ning boyliklari va hosildor ekanligini ham eslatib o‘tadi. Falastinda *“sut va asal daryo bo‘lib oqishi, Quddus yerning kindigi, jannatmakon hosildor yerli o‘lka”* ekanligini ta’kidlaydi.

Bu so‘zlarni xaloyiq “Xudoning irodasi shu!”, “Xudoning xohishi shu!” kabi hayqiriqlar bilan qarshilaydilar. Ular matodan “xoch”, ya’ni “salib”ning aksini qirqib, o‘z kiyimlariga tika boshlaydilar. Ayni shu sababli yurish qatnashchilari “salibchilar”, yurishlarning o‘zi esa “salib yurishlari” nomini oladi.

Katolik cherkovi yurish ishtirokchilariga ayrim yengilliklarni, jumladan, dehqonlarga qarzlaridan kechilishini, ularning oilalari cherkov himoyasiga o‘tishini e’lon qiladi.

Tampliyer ritsarlarining muhri

SALIB YURISHLARI ISHTIROKCHILARINING MAQSADLARI

Papa, salib yurishlarida ishtirok etganlar gunohlardan poklanadi, deb e’lon qilgani bois, unda nafaqat ritsarlar, balki oddiy aholi, hattoki ayollar va bolalar ham qatnashganlar. Ularni umumiy maqsad – Quddusni musulmonlardan ozod qilish g‘oyasi birlashtirib turgan bo‘lsa-da, ammo har

bir salibchining alohida maqsad va muddaolari mavjud edi. Jumladan, dehqonlar salib yurishlarida qatnashish orqali o‘zlarining og‘ir hayotidan qutulib, Sharqda mulkka va baxtli hayotga erishishga umid qilganlar.

Salibchilarning ko‘pchiligini asosan ritsarlar tashkil etgan, ularning aksari boy bo‘lmagan xonadonlardan edilar. Oilaning kichik o‘g‘illari, mayorat tizimi bo‘lganidan, ya’ni meros katta o‘g‘ilga qoldirilgani sababli, ota-onalaridan qoladigan merosning katta qismiga umid qilmasalar ham bo‘lardi. Bu holatdagi ritsarlar o‘zlariga shon-shuhrat va boylik istab yo‘lga chiqqanlar.

Gersoglar, graflar va hatto ayrim qirollar hamda imperatorlar ham Sharqqa jo‘naydilar. Ular o‘zlariga yangi hududlar va fuqarolarni bo‘ysundirib, o‘zlarining yer-mulklarini yanada kengaytirib olishni maqsad qilganlar.

Qo‘shin bilan savdogarlar ham yo‘lga chiqib, ular Sharq mollari bilan savdo qilish orqali tez boyib ketishni orzu qilganlar. Albatta, salib yurishi ishtirokchilari faqat foydani o‘ylagan desa, xato bo‘ladi. Moddiy manfaat ularda “payg‘ambar qabri”ni musulmonlardan xalos etish muqaddas ish ekanligiga ishonish bilan qorishib ketgandi.

Salibchilar kiyimi



Aleksey I

BIRINCHI SALIB YURISHI

Birinchi salib yurishlarida Fransiya, Italiya va Germaniyaning turli viloyatlaridan kelgan ritsarlar qatnashadi. Ular yaxshi qurollangan, zarur ozuqa va pul bilan ta'minlangan edilar. Vizantiya poytaxti Konstantinopolda 1096-yilning kuzidan to'plana boshlagan ritsarlarni imperator **Aleksey I**, Yaqin Sharqda tuzilajak xristian davlatlari Vizantiyaga siyosiy qaram bo'lishi haqida vassallik qasamyodini qabul qildirgach, Bosfor bo'g'ozi orqali Kichik Osiyoga o'tkazib yuboradi. 1099-yilgacha davom etgan yurishlar Suriya bilan Falastinda salibchilarning o'z davlatlarini tuzishi bilan yakunlanadi. Ularning orasida **Quddus qirolligi** salibchilarning asosiy davlati edi. Salibchilar Quddusni egallash mobaynida birgina jome masjidda 10 ming musulmonni qirib tashlaydilar. Yahudiylar o'z *sinagogasi* (ibodatxona)da yoqib yuboriladi. Qirg'in paytida ko'plab ayollar va bolalar ham halok bo'ladi. Qirg'inlar harbiy zarurat bilan emas, balki faqat odamlarning qalbiga dahshat solish istagi bilan qilinadi. Salibchilar hatto sharqiy shahar aholisi bo'lgan nasroniylarni dushmanga yordam berishda ayblab, o'z uylaridan quvg'in qilishadi. Shaharliklar uyiga bostirib kirgan ritsar eshikka qalqonni osib qo'yar va bu uy barcha jihozlari bilan yangi xo'jayinga o'tganligini anglatar edi.

SALIBCHILAR YAQIN SHARQDA

Yevropadan kelayotgan ritsarlar oqimi xristianlarga istilo qilingan hududlarni 200 yilcha qo'lda saqlash imkonini beradi.

Yaqin Sharqda salibchilar mahalliy dehqonlarni qaramlikka tushiradilar. Yangi xo'jayinlar hosilning 1/3 qismini soliqqa ola boshlaydi. Bundan tashqari, aholi qo'shimcha ravishda qirolga, xristian cherkoviga ham soliq to'lashga majbur etiladi. Natijada mahalliy aholida salibchilarga nisbatan nafrat kuchayib, qo'zg'olonlar ham bo'lib turadi.

Tevton ordeni

DINIY-RITSARLIK ORDENLARI

Falastinda tashkil etilgan diniy-ritsarlik ordenlari odatdagi rohiblar ordenlaridan tubdan farq qilgan. G'arbda oddiy rohiblarning asosiy ishi ibodat va mehnat qilish bo'lsa, diniy-ritsarlik ordeni a'zolarining asosiy vazifasi urush edi. Ordenlarga salibchilar mulklarini kengaytirish va himoya qilish, mahalliy aholining isyonlarini bostirish vazifalari qo'yilgan.

1099-yilda salibchilar tomonidan Quddusning egallanishi

Dastlabki diniy-ritsarlik ordeni **gospitalyerlar** ordeni bo‘lgan. Uni **ioanniylar ordeni** ham deyishadi. Musulmonlar Falastinni qayta egallaganidan so‘ng orden dastlab Rodos oroliga, bir necha asr o‘tib Maltaga ko‘chadi.

Quddusga kelayotgan ziyoratchilarni himoya qilish uchun tuzilgan ikkinchi ritsarlik ordeni dastlab **tampliyerlar** deb nomlangan. U Quddusdagi ritsarlar joylashgan tepalik nomi bilan atalgan. Bu orden xayriya va in’omlar olishdan tashqari, sudxo‘rlik bilan ham shug‘ullangan. Yevropada ularning boyliklari haqida afsonalar to‘qilgan.

Uchinchi yirik diniy-ritsarlik ordeni Muqaddas Bibi Maryamga bag‘ishlangan. Undagi ko‘pchilik ritsarlar Germaniyadan bo‘lgani uchun, uni **Nemis** (lotincha, **Tevton**) **ordeni** deyishgan.

Gospitalyer ordeni

Tampliyer ordeni

TARIXIY MUSHOHADA!

Diniy-ritsarlik ordenlari yarim harbiy, yarim rohiblar birlashmalari edi. Rohiblik yopinchig‘i tagida: tampliyerlarda – oq matoda qizil but, gospitalyerlarda – qizil matoda oq but, tevton ritsarlarida esa oq matoda qora but tasviri bo‘lgan ritsarlik libosi kiyilgan.

Salibchilarning Salohiddin Ayyubiyga taslim bo‘lishi

Salohiddin Ayyubiy

IKKINCHI VA UCHINCHI SALIB YURISHLARI

XII asrdan musulmon amirliklari birlashib, salibchilarga qarshi kurash boshlaydilar. Saljuqiylar hukmdori Malikshohning ishonchli vakili – Imomiddin Zangiy salibchilarga zarba berib, Mosul va Halab oralig‘idagi yerlarni egallaydi. Uning o‘g‘li Nuriddin Zangiy 1146-yilda otasi o‘rniga taxtga o‘tirib, darhol salibchilarga qarshi urushga otlanadi. Ularga qarshi kurashish uchun Yevropa feodallari 1147–1149-yillarda ikkinchi salib yurishini uyushtiradilar. Fransiya va Germaniya qirollari o‘z qo‘shini bilan ishtirok etgan bu yurishlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi va Yevropaning yengilmasligi haqidagi afsonani yo‘qqa chiqaradi. Nemis salibchilari saljuqiylar tomonidan Kichik Osiyoda tor-mor etilgan bo‘lsa, fransiyaliklar Damashqni qamal qilib egallay olmay, Yevropaga qaytadilar.

Nuriddin Zangiy salibchilarni Sharqdan butunlay surib chiqarishni maqsad qilgan edi. U salibchilar tuzgan Antioxiya knyazligi hududining katta qismini egallaydi. Edessa grafligida ham o‘z hukmronligini

saqlab qoladi. 1155-yilda Nuriddin Zangiy qo‘shini Damashqni egallashi bilan Suriyada musulmonlar yagona siyosiy hokimiyatga ega bo‘ladi. Bu davrda Yaqin Sharqda qattiq qarshilikka uchragan salibchilar Misrni zabt etishga kirishadilar. Nuriddin Zangiy 1169-yilda Shirkuh va uning jiyani Salohiddin boshchiligida qo‘shin jo‘natib, Misrni egallaydi.

Shirkuh vafot etgach, uning jiyani Salohiddin Misrda hokimiyatni to‘liq qo‘lga olib, Ayyubiylar davlatini tuzadi. **Salohiddin Ayyubiy** salibchilarga qarshi kurashni davom ettirib, 1187-yilda salibchilardan Quddusni tortib oladi.

Bu voqea Yevropada uchinchi salib yurishlari (1189–1192) tashkil qilinishiga olib keladi. Ammo german imperatori, Fransiya va Angliya qirollari ishtirokidagi bu yurishlar ham muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi.

TO‘RTINCHI SALIB YURISHLARI (1202–1204)

XII asr oxirida papa **Innokentiy III** yangi salib yurishlarini tashkil etishga kirishadi.

Salibchilar Venetsiya bilan qo‘shinni dengiz orqali kemalarda Falastinga olib o‘tishga kelishib, 85 ming kumush marka pul to‘lashni zimmalariga oladilar. Kelishilgan pulning deyarli 1/3 qismini to‘lay olmagan salibchilar yurish boshlanishidanoq Venetsiyaning savdodagi asosiy raqibi – Vizantiyaga qarshi urush boshlashga majbur bo‘ladi. Urush boshlash uchun esa ukasi tomonidan taxtdan tu- shirilib, ko‘ziga mil tortilgan **Isaak II Angel**ga toj-u taxtni qaytarish bahona bo‘ladi.

To‘rtinchi salib yurishida Konstantinopol asos solinganidan buyon ilk bor dushman o‘ljasiga aylanadi. Lotinlar – vizantiyaliklar salibchilarni shunday nomlaganlar – Vizantiya xarobalarida Lotin imperiyasi deb atalgan davlat tuzadilar. Ammo mahalliy yunonlarning mardonavor qarshiligi tufayli lotinlar Vizantiya yerlarini to‘liq bo‘ysundira olmaydilar. Lotin imperiyasining o‘zi ham tez orada bir necha mayda knyazliklarga bo‘linib ketadi.

Bolalar salib yurishi

TARIXIY MUSHOHADA!

BOLALAR SALIB YURISHLARI

Fransiyaning Vandom qishlog‘idan Stefan ismli bir cho‘pon bola chiqib, 1212-yilda butun mamlakat bo‘ylab yurib, bolalarni salib yurishlariga targ‘ib qila boshlaydi. U o‘zini xudo tomonidan vakil qilib yuborilganligini hamda o‘ziga

nasroniylarga yetakchilik qilib, Falastin yerlarini egallash vazifasi topshirilganligini e'lon qiladi. Uning oldiga rohib timsolida Iso Masih tashrif buyurib, unga Quddusni ozod qilish uchun faqat bolalar ishtirok etadigan yangi salib yurishiga bosh bo'lishni topshirganini ta'kidlaydi. Cho'pon yigit o'z ortidan bolalarni ergashtirish uchun ularning orasida kuchli targ'ibotni yo'lga qo'yadi. U xuddi Misr fir'avini zulmidan qochib ketayotgan Muso payg'ambar boshchiligidagi yahudiylar oldida dengiz chekingani kabi, Falastinga boradigan salibchilar qo'shini yo'lida dengiz qurib qolishi haqida ayta boshlaydi. U o'z nutqlari va ko'rsatgan "mo'jizalari" bilan minglab odamlarni lol qoldiradi. Ota-onalarining qarshiligiga qaramasdan, minglab bolalar va qizlar yurishga otlanadilar. Agar kimdir bu aqldan ozgan bolalardan qayerga ketayotganlarini so'rasa, dengiz ortiga – Xudoning huzuriga yo'l olishgani haqida javob eshitardi.

Stefan boshchiligidagi olomon Fransiyaning janubidagi Marsel portiga yetib kelgach, ikki nafar savdogar ularni "xudoning roziligi" uchun Suriyaga yetkazib qo'yishni taklif qiladi. Natijada ular yettita kemada yo'lga chiqadilar, shundan ikkita kema yo'lda halokatga uchraydi. Qolgan beshta kemadagi bolalarni bu ikkita qulfurush Misrga olib kelib, qul sifatida sotib yuboradi. Germaniya imperatori Fridrix II keyinchalik ikkala jinoyatchi qulfurushlarni qo'lga olib, qatl ettiradi. Shuningdek, u Misr sultoni bilan bitim tuzib, bolalarning bir qismini qaytarishga erishadi.

SALIB YURISHLARINING TUGASHI VA OQIBATLARI

So'nggi salib yurishlari Yaqin Sharqdagi vaziyatni o'zgartira olmaydi. Fransiya qiroli **Lyudovik IX** ning 1269–1270-yillardagi sakkizinchi salib yurishlari so'nggisi bo'ladi. Ko'p o'tmay salibchilarning Sharqdagi mulklari birin-ketin musulmonlar qo'liga qaytadi.

Salib yurishlari to'xtatilishining asosiy sababi XIII asrning oxiridan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida boshlangan o'zgarishlar bo'ldi. Ishlab chiqarish kuchlari o'sib, dehqonchilik va hunarmandchilik yuksaladi. O'rmonlar kesilib, ekinzorlarga aylantiriladi, ekin maydonlari kengaytiriladi. Qishloq aholisining yersiz bir qismi tobora yuksalayotgan shaharlarga ketadi. Qolaversa, ularning Sharqda yer va ozodlikka erishish orzulari yurishlar davomidagi muvaffaqiyatsizliklar sababli puchga chiqadi. Qirol hokimiyatining kuchaya boshlashi va mamlakatni markazlashtirish siyosati ritsarlarga qirol qo'shinida xizmat qilish imkonini yaratadi. Savdogarlar tinch yo'l bilan savdo-sotiq olib borishning afzalligiga yana bir bor ishonch

hosil qiladilar. G‘arbiy Yevropada markazlashgan davlatlarda qirol hokimiyatining kuchayishi bilan salib yurishlarining g‘oyaviy rahbari va targ‘ibotchisi bo‘lgan Rim papalari o‘z siyosiy mavqeyini yo‘qota boshlab, yangi yurishlarni tashkil eta olmay qoladilar.

Salib yurishlari o‘zining asosiy, ya’ni Sharqda kuchli xristian davlatini yaratish maqsadiga erisha olmadi. Unda qatnashgan 100 minglab kishilar halok bo‘ldi, katta moliyaviy zarar ko‘rildi. Ammo Sharqning yuksak madaniyati bilan tanishish Yevropa aholisining turmush tarzini keskin o‘zgartiradi. Ular Vizantiya va musulmonlarning yuksak madaniyati hamda texnikadagi yutuqlarini o‘zlashtiradilar. Yevropaga limon va o‘rik mevalari hamda sholi, grechixa, tarvuz, shakarqamish kabi ekinlar keltirilib ekila boshlanadi. Texnika sohasida arbalet, temirni toblash va ayrim gazlamalarni to‘qish usullari o‘zlashtiriladi. Salibchilar Suriyada ko‘rgan shamol tegirmonlari XII asrdan Yevropada ham qurila boshlanadi. Arablardan keltirilgan aloqa kaptarlaridan ko‘plab mamlakatlarda foydalana boshlanadi. Antik davrdan so‘ng turmushdagi tozalik omillarini unutib, sovuq suvda yuvinadigan, kiyimlarni almashtirmaydigan yevropaliklar Sharqdan pokiza va issiq hammomlardan foydalanishni va kiyim almashtirishni o‘rgandilar.



So‘nggi salibchilarning o‘z yurtiga qaytishi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Salib yurishlari nima? Ularning sodir bo‘lish sabablarini izohlang.**
2. **Katolik cherkovi salib yurishlaridan qanday maqsadlarda foydalanishni ko‘zlagan?**
3. **Xaritadan birinchi salib yurishi ishtirokchilari Yaqin Sharqda asos solgan davlatlarni ko‘rsating.**
4. **Sizningcha, to‘rtinchi salib yurishining avvalgilardan farqi nimada?**
5. **Salib yurishlaridan ko‘zlangan maqsadga erishilmaganligining sabablari nimada deb o‘ylaysiz?**
6. **Bolalarning salib yurishlari haqida Siz qanday fikrdasiz?**
7. **Salib yurishlari Yevropa va Osiyo uchun qanday natija hamda oqibatlarga olib kelgan?**

19-mavzu

Yevropada o‘rta asr shaharlarining o‘ziga xosligi

Sarroflik do‘koni

SIZ BILIB OLASIZ:

- **Yevropa xo‘jalik taraqqiyoti;**
- **o‘rta asr shaharlari hayoti;**
- **tovar xo‘jaligining paydo bo‘lishi haqida.**

O‘rta asrlarda Yevropada savdo-sotiq

XO‘JALIK TARAQQIYOTI

Yevropada X–XI asrlarda ishlab chiqarish yuksalgan. Bu, eng avvalo, hunarmandchilikda kuzatildi. Mehnat qurollarining takomillashuvi, ustalar mahoratining oshishi hunarmandchilikni dehqonchilikdan alohida sohaga aylantiradi. Dehqonchilikda bo‘yinturuqning kashf etilib, plugni otga qo‘shish yer haydashni tezlashtirgan. Hosildorlikning oshishi dehqon xo‘jaligida ortiqcha mahsulotning ko‘payishiga va uni hunarmandchilik buyumlariga ayirboshlashga yo‘l ochgan. Hunarmandlar tayyorlaydigan buyumlarning turi, soni, sifati oshib borgan. Lekin qishloqda feodallar hukmronligi ta’sirida hunarmandning erkinligi cheklangan edi. Natijada ular qishloqlardan qochib, o‘z buyumlarini tayyorlash va sotish imkoniyati bo‘lgan joylarga keta boshlaganlar.

Hunarmand ish jarayonida

O‘RTA ASR SHAHARLARI

Shaharlar, eng avvalo, xavfsiz, dushman hujumidan himoyalanishga qulay, qolaversa, hunarmandlar o‘zlari yasagan buyumlarni sota oladigan joylarda paydo bo‘lgan. Yevropada shaharlarning paydo bo‘lishi va yuksalishi turli mamlakatlarda turlicha bo‘lgan. Dastlab Italiya va Fransiyaning janubidagi **Venetsiya, Genuya, Florensiya, Marsel, Tuluza** shaharlari IX–X asrlardayoq yuksala boshlagan. Bu shaharlarning dengiz savdo yo‘lida joylashgani ularning taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. X–XI asrlarda Fransiyaning shimolida, Niderlandiya, Angliya va Germaniyada, XII–XIII asrlarda Vengriya, Boltiqbo‘yi, Rus yerlarida yangi shaharlar vujudga kela boshlagan. Yevropa shaharlarining turli asrlarda paydo bo‘lishining asosiy sababi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar edi.

O‘rta asr shaharlarining ko‘rinishi

SHAHARLAR HAYOTI

Shaharlar ko‘pincha feodallar yerida vujudga kelgan. Dastlab feodallar o‘z yerlaridagi shaharlarga homiylik qilib, ko‘chib kelgan hunarmandlarni soliqlardan ozod etgan. Ammo shaharlar o‘sib, boyib borishi bilan xo‘jayinlar ulardan ko‘proq daromad olishga intilganlar. Feodallar hunarmandchilik va savdoning yuksalishiga to‘sqinlik qila boshlagan. Natijada shaharliklar senyor hukmidan ozodlikka chiqishga intilganlar. Ko‘pincha shaharlar o‘z erkinligini to‘lov, pul evaziga qo‘lga kiritgan. Bunday imkoniyat bo‘lmagan paytda ozodlik uchun qo‘zg‘olon yo‘li tutilgan. Fransiyaning qator shaharlarida XII–XIII asrlarda senyorlarga qarshi kurashlar bo‘lib o‘tgan. Monastir va qasrlarda yashovchilarning hunarmandlarga ehtiyoji, dushman xavf solganida yashirinish imkoniyatining mavjudligi ularning atrofida shaharlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan.

O‘rta asr feodallari

SHAHARLARNING KO‘RINISHI

Shaharlar atrofi minorali mudofaa devori, suv to‘ldirilgan xandaqlar bilan o‘ralgan. Qo‘riqchi-soqchilar minoralarda tun-u kun almashib turgan. Dushmandan himoyalanish maqsadida shahar darvozalari va ko‘priklari mustahkam temirdan yasalgan. Kechasi xandaqlar ustidagi ko‘priklar ko‘tarib qo‘yilgan va shahar darvozasi yopilgan. Shahar markazida bozor maydoni, uning yonida ibodatxona joylashgan. Shahar kengashi binosi – **ratusha** ham shu yerda qurilgan. Shahar mavzelari alohida dahalarga bo‘lingan. Dahalarning har birida ma’lum kasbdagi hunarmandlar yashaganlar. Shahardagi uylarning aksariyat qismi yog‘ochdan qurilgan. Ular juda zich qurilgan bo‘lib, ko‘pincha bir-biriga tutashib ketgan. Ko‘chalar tor, ayrimlari eniga ikki metrdan ham oshmagan. Tunda ko‘chalar yoritilmagan, suv quvurlari va kanalizatsiya bo‘lmagan. Chiqindilar ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chaga tashlanavergan. Aholining zich joylashishi hamda tozalikning talabga javob bermasligi yuqumli kasalliklarning tez-tez takrorlanib turishiga, ko‘plab kishilarning bevaqt o‘limiga olib kelgan. Yong‘inlar ham sodir bo‘lganda, yog‘ochdan zich qurilgan uylardan tashkil topgan ko‘chalar, mavzelar to‘lig‘icha yonib ketgan.

SHAHAR AHOLISI

Shaharlar aholisining asosiy qismini hunarmandlar, savdogarlar tashkil qilgan. Yirik shaharlarda boy zodagonlar, feodallar, amaldorlar, tabiblar, ruhoniylar ham talaygina bo‘lgan. Shahar aholisining bir qismi dehqonchilik bilan ham shug‘ullanishda davom etgan. Qal’a devori atrofida ekinzorlar, bog‘lar, poliz hamda qo‘y, qoramol, otlar o‘tlab yurgan yaylovlar joylashgan. Aholisi eng ko‘p yirik shaharlar Parij, Konstantinopol, Milan, Florensiya, Kordova, Seviliya hisoblangan.

Sexlar faoliyati

HUNARMANDCHILIK VA SEXLAR

Temirchilik ustaxonasi

Shaharlar xo‘jaligining asosi hunarmandchilik bo‘lgan. Hunarmand ishlab chiqaruvchi ish qurollari egasi bo‘lib, xo‘jaligini mustaqil yuritgan. Ular bozorlarni o‘z buyumlari bilan ta’minlaganlar. Ma’lum kasb ustalari o‘z uyushmalari – sexlarga birlashganlar. Ustalarning umumiy yig‘ilishida hamma bajarishi majburiy bo‘lgan sex nizomi qabul qilingan. Nizom talabiga binoan, buyumlar faqat ma’lum namuna bo‘yicha yasalgan. Sexni boshqarish uchun saylangan oqsoqol hunarmandlarning nizomga rioya qilishini, tayyorlangan buyumlarning sifati va sonini nazorat qilgan. Nizomda ustaning dastgohlari, o‘quvchi-shogirdlari, xalfalari soni belgilab qo‘yilgan. Bu xildagi tadbirlar ustalar uchun bir xil sharoit yaratish, raqobatga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qo‘llanilgan. Tayyor buyumlar narxi ham sex oqsoqoli tomonidan belgilangan. Xalfalik muddati kasbning murakkabligiga qarab 2–7 yil bo‘lib, nodir buyum yasash

va uni sex oqsoqoli sinovidan o‘tkazish bilan tugagan. Sexlar shaharni qo‘riqlashda, urushlar paytida uning mudofaasida alohida bo‘linma tarzida qatnashgan. Sexlarning o‘z gerbi, bayrog‘i, ibodatxonasi va ba’zida alohida qabristoni ham bo‘lgan. Dastlab ishlab chiqarishning rivojlanishiga xizmat qilgan sexlar keyinchalik unga to‘sqinlik qila boshlagan. Shaharlarda ustalarning ko‘payib borishi ular o‘rtasida raqobatni kuchaytirgan. Hunarmandlar va savdogarlar orasidan badavlat sex boshliqlari ajralib chiqa boshlaydi. Yevropada sexlarning ham tabaqalanishi ro‘y berib, zargarlik, movutchilik va boshqa boy sexlar vujudga keladi. Bu jarayonlar Florensiya, London, Bristol, Parij, Bazel kabi yirik shaharlarda boshlanadi. Hunarmandlar xalfalarning o‘sib, ustalikka o‘tishiga to‘sqinlik qila boshlaydilar. Natijada 10-12 yillab ustachilikka o‘ta olmagan xalfalar tabaqasi vujudga keladi. Bu hol xalfalarning “birodarlik” jamiyatlarini tuzib, o‘z haq-huquqlari, 14-16 soat davom etadigan ish vaqtini qisqartirib, mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun kurashini kuchaytiradi.

TOVAR XO‘JALIGINING PAYDO BO‘LISHI

Sexlar nazoratiga qaramasdan, hunarmandlarning savdo uchun tayyorlagan buyumlari soni ko‘paygan. Natijada xomashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talab ham oshib borgan. O‘z navbatida, dehqonlarning yetishtiradigan mahsulotlari ko‘payishidan manfaatdorligi ortgan. O‘z mahsulotlarini sotib, hunarmandchilik buyumlarini xarid qiluvchilar ko‘paya boshlagan. Yirik shaharlar faqat atrofdagi viloyatlar bilangina emas, chet mamlakatlar bilan ham savdo aloqalarini o‘rnatgan. Ilk o‘rta asrlardagi natural xo‘jalik o‘z o‘rnini tovar xo‘jaligiga bo‘shatib bera boshlagan.

***Tovar xo‘jaligi** – mahsulotlarni bozorda sotish yoki ayirboshlash uchun ishlab chiqaruvchi xo‘jalik.*

Savdoning jonlanishi yo‘llar yaxshilanishini talab etgan. Fransiyada qirol farmoniga binoan asosiy yo‘llarga tosh yotqizila boshlangan. Daryolar ustida yog‘och va toshdan ko‘priklar qurish ishlari yo‘lga qo‘yilgan.

O‘rta asrlarda bozor

SHARQ MAMLAKATLARI BILAN SAVDO ALOQALARI

Suriya, Misr, Eron va O‘rta Osiyogacha borgan yevropalik savdogarlar Sharq bozorlaridan shoyi gazlamalar, zeb-ziynat buyumlari, ziravorlar xarid qilardilar. G‘arb va Sharq mamlakatlari orasidagi aloqalarning yuksalishida Xitoydan boshlanib, O‘rta Osiyodan o‘tgan Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati beqiyos edi. Bu karvon yo‘li O‘rta Yer dengizining sharqiy sohiliga qadar davom etgan. Ispaniya, Italiya, janubiy Fransiyani dengiz orqali Vizantiya hamda Osiyo mamlakatlari bilan bog‘lash uchun **Levant**, shimolda Boltiq dengizi orqali London, Bryugge, Lyubek, Novgorod shaharlarini o‘zaro bog‘lash uchun **Shimoliy** savdo yo‘llari bo‘lgan. Shimoliy savdo yo‘li bo‘ylab joylashgan Germaniyaning 70 dan ortiq shaharlari **Ganza shaharlar ittifoqi**ga kirgan. Levant yo‘lida joylashgan **Venetsiya va Genuya**lar kuchli dengiz floti tuzganlar, ularning savdodagi raqobati ba’zida urushlarga ham aylanib ketgan.

Dengiz bo‘yi savdo shaharlari

O‘rta asrlar bozori

SAVDOGARLAR VA BOZORLAR

Shaharliklar o‘z foydasiga mol sotishni, kimga qarzga pul berishni, nimaga pul sarflashni yaxshi bilganlar. Tinib-tinchimas savdogarlar boyib ketish maqsadida uzoq va xatarli sayohatlarga chiqishgan.

O‘rta Yer dengizi sohillari bo‘ylab italiyalik savdogarlar o‘zlarining savdo manzilgohlari – **faktoriya**lar tizimini yaratishgan. Ularning ko‘pchiligi genuyalik va venetsiyaliklar bo‘lishgan. Bu dengiz respublikalari ajoyib savdo va harbiy flotlariga ega bo‘lishgan. Ularning kemalari Yaqin Sharqdan Yevropaga qimmatbaho mollar: shoyi matolar, chinni idishlar, turli ziravorlar va boshqa narsalarni olib o‘tardi. Venetsiyalik savdogarlar – Pololar oilasi vakillari XIII asrda mo‘g‘ullarning Osiyo ichkarisidagi qarorgohiga yetib boradi. **Marko Polo** 25 yil davom etgan sayohatining 17 yilini Xitoyni egallagan mo‘g‘ullar xoni Xubilay saroyida xizmatda o‘tkazib, yevropaliklardan birinchi bo‘lib bu sirli o‘lkalarni o‘z kitobida tavsiflaydi. Yevropaliklar faqat XIX asrdagina

dengiz orqali o‘tib, XIII asrda Marko Polo sayohat qilgan o‘lkalarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar. Marko Poloning kitobidagi Sharq mamlakatlarining afsonaviy boyliklari 200 yildan so‘ng genuyalik dengizchi **Xristofor Kolumb**da shunchalik katta taassurot qoldiradiki, u nima bo‘lganda ham Hindistonning boy sohillariga yetishga qaror qiladi. Yevropaning ko‘pchilik shaharlarida dastlab bozorlar haftada bir yoki ikki kun bo‘lgan. Doimiy bozorlar faqat yirik shaharlarda uchragan. Mol ayirboshlash va savdoning o‘sishi shaharlarda bozorlar qurilishiga ehtiyoj tug‘dirgan. Bozorlar ma’lum buyumlar yoki mahsulotlarni sotishga ixtisoslasha borgan. Shu tariqa Yevropada hunarmandchilik va savdoning yuksalishi bozor, bank, birjalarni vujudga keltirgan.

ATAMALAR IZOHI

Sex – bir yoki bir nechta o‘xshash kasb egalarini birlashtirgan savdo-hunarmandchilik birlashmasi yoki o‘rta asrlar hunarmandlarining kasbiy asosdagi uyushmasi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Yevropada hunarmandchilikning qishloq xo‘jaligidan ajralib chiqish sabablarini ko‘rsating.**
2. **Yevropa mamlakatlarida yangi shaharlarning paydo bo‘lish omillarini so‘zlab bering.**
3. **O‘rta asrlar Yevropa shaharlari hayoti, ko‘rinishi haqida nimalarni bilib oldingiz? Ularning o‘lkamizdagi XI–XII asrlarda mavjud bo‘lgan shaharlar bilan o‘xshash va farqli tomonlari haqida so‘zlab bering.**
4. **Shimoliy dengiz savdo yo‘llari haqida nimalarni eslab qoldingiz?**
5. **Bozorlar o‘rta asrlar shaharlari uchun qanday ahamiyatga ega bo‘lgan?**

20-mavzu

Osiyoning o‘rta asr shaharlari

O‘rta asr shaharlari ko‘rinishi

SIZ BILIB OLASIZ:

- **Osiyoning o‘rta asr shaharlari hayoti;**
- **hunarmandchilik;**
- **savdo-sotiq haqida.**

O‘RTA ASR SHAHARLARI

Sharq mamlakatlari o‘rta asrlarning rivojlangan davriga turli paytda o‘tganlar. Bu hol har bir mamlakatda ishlab chiqarish taraqqiyoti turli darajada bo‘lgani bilan izohlanadi.

Dastlab ma’muriy markaz yoki harbiy qal’alar sifatida tashkil topgan o‘rta asr shaharlari hunarmandchilik va savdoning yuksala borishi bilan juda tez rivojlangan.

Osiyoning eng yirik shaharlari: **Chanan, Loyan, Xanchjou, Kamakura, Kioto, Osaka, Dehli, Bag‘dod, Buxoro** va **Samarqand** edi. Ularda maktablar, kutubxonalar tashkil qilingan, olimlar, shoirlar, rassomlar, musiqachilar yashab ijod qilganlar. Osiyo shaharlari davlat yerlarida vujudga kelganidan, Yevropa shaharlaridan farqli o‘laroq, yirik zamindorlarga qarshi kurash olib bormaganlar.

Masjid qurilishi

Osiyoning yirik davlatlaridan biri Xitoyda o‘rta asrlar shaharlarining vujudga kelishi va rivojlanishi IX–XIII asrlarga to‘g‘ri keladi. Shaharlar Xitoyda imperatorga bo‘ysungan.

Shaharlarning taraqqiyotiga istilochilik urushlari to‘sqinlik qilgan. Jumladan, Hindiston va uning shaharlari o‘rta asrlarda juda ko‘p marotaba chet el bosqinchilarining hujumlariga uchragan.

Yaponiyaning o‘rta asrlar shaharlari budda ibodatxonalari atrofida, aloqa bekati va yo‘llar ustida, dengiz bo‘yida, qal’alar atrofida vujudga keladi. **Xeyyan** shahri 1177-yilda yong‘in natijasida vayron bo‘ladi. Bu shahar qayta tiklanganidan so‘ng **Kioto** nomini olib, mamlakat poytaxtiga aylanadi. **Kioto** ko‘p asrlar davomida Yaponiyaning iqtisodiy, madaniy va diniy markazi bo‘lib qoladi.

O‘rta asrlarda Yaponiya

SHAHARLAR HAYOTI

Osiyo shaharlari ham o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Jumladan, Xitoyda XI asrdayoq shaharsozlik yuksak darajaga ko‘tarilgan. Imperator va zodagonlar hashamatli saroylar qurdirgan. Mamlakatda yog‘och tanqis bo‘lganidan, qurilishda g‘isht, sopol va toshdan keng foydalanilgan.

Xitoyning yirik shaharlarida, G‘arbiy Yevropadan farqli o‘laroq, maishiy xizmat ko‘rsatish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi. Aholi sopol quvurlar orqali toza suv bilan ta’minlangan, shaharni axlat va chiqindilardan tozalash, o‘t o‘chirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Osiyo shaharlari aholisi Yevropanikiga nisbatan ko‘proq bo‘lgan. Xususan, Xitoy shaharlarida o‘rta asrlardayoq aholi juda zich yashagan.

Sharq dunyosida **Buxoro** va **Samarqand** shaharlari iqtisodiy, siyosiy jihatdan muhim markazlardan bo‘lgan. Buxoro Sharqda islom dini, madaniyat, savdo va hunarmandchilik markazlaridan biri sifatida shuhrat qozongan. Shu sababli O‘rta Osiyoda hokimiyat tepasiga kelgan sulolalar ushbu shaharlarni ma’muriy markaz sifatida tanlaganlar.

Shahriston

O‘rta Osiyoning musulmon davlatlari shaharlari umumiy reja bo‘yicha: markazida **ark** – shahar hokimi qal’asi, uning atrofida **shahriston** – asosiy aholi yashaydigan guzarlari bilan qurilgan. Shahar atrofida **rabod** bo‘lib, unda hunarmandlar guzar va mahallalari joylashgan. Sharq shaharsozligida asosiy qurilish ashyolari tosh va g‘ishtdan iborat edi. Hukmdorlar, boylar o‘z saroylari, hovli-joylarini pishiq g‘isht va marmardan, kambag‘allar esa paxsa, guvaladan qurganlar. Kambag‘allarning uylari pishiq, mustahkam bo‘lmay, tez-tez ta’mirlashni talab qilgan. Merosga qoldirilganda, buzilib, o‘rniga yangisi qurilgan.

O‘rta asrlar hunarmandchilik namunasi. Kosa

HUNARMANDCHILIK

Sharq hunarmandlari ipak gazlamalar, zeb-ziynat buyumlarining katta qismini chet mamlakatlarga sotish uchun ishlab chiqarganlar.

Osiyo va Shimoliy Afrika shaharlarida ham hunarmandchilik sexlari shaharlar bilan bir paytda vujudga kelgan. Sharqda dastlab shahar aholisi soliqlardan ozod qilingan. Vaqt o‘tib savdogar va hunarmandlardan ham turli soliqlar olina boshlangan. Arab xalifaligi, Yaponiya, Xitoyda usta va savdogarlardan soliqlarni sex oqsoqollari yig‘ib bergan.

Xitoyda barcha ustalar sex a’zosi bo‘lishlari majburiy etib qo‘yilgan. Hunarmandchilikning



Xitoy kemasi – jonka

eng muhim sohalari Xitoyda yuksak taraqqiyotga erishgan. Xususan, faqat xitoyliklar 600–700 kishi va yana ko‘plab yuk sig‘adigan yirik kemalar – **jonkalar**ni qurishgan.

Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan O‘rta Osiyo shaharlari tranzit savdo markazlari edi. Chet ellik savdogarlar Samarqand qog‘ozi va gazlamalarini, G‘ijduvon kulolchilik buyumlari-yu marvlik ustalarning gazlama va kiyimlarini yuqori baholaganlar.

O‘rta asrlarda eronlik ustalar parcha, ipak gazlamalari, jun gilamlari bilan shuhrat qozongan. Erondan savdogarlar po‘latdan yasalgan qurol-aslaha, mis va kumush idishlarni xarid qilganlar.

SAVDO

Arab xalifaligi, Tan imperiyasi kabi yirik markazlashgan davlatlarning paydo bo‘lishi savdoni yuqori daromad manbayiga aylantiradi. Uzoq Sharqdan O‘rta Yer dengizigacha bo‘lgan hududlarda faqat karvon yo‘llari orqali savdo olib borilmagan. Fors ko‘rfazi va Qizil dengizda arab, hind, xitoy savdogarlarining o‘nlab kemalari suzib yurgan. Osiyodan farqli o‘laroq, Afrikaning iqtisodiy qoloqligi, undagi tinimsiz urushlar qit’aning xomashyo, tuz, oltin, fil suyagi, ziravorlar, qisman qullar manbayiga aylanishiga sabab bo‘lgan. Osiyo bozorlari o‘zining gavjum va sershovqinligi bilan



ajralib turgan. O‘rta asrlar bozorlari ko‘pincha shahar darvozalari yaqinida joylashgan. Shahar ichida kichkina bozorlar bo‘lib, ular ma’lum mahsulotlarni sotishga ixtisoslashgan. O‘rta Osiyo va Erondagi yirik bozorlar bir qancha rastalarga bo‘lingan. Har bir rasta ma’lum turdagi mol bilan shug‘ullanadigan savdogarlarni yoki turli hunarmandlarni birlashtirgan. Ilk o‘rta asrlardayoq Bag‘dod, Ishbiliya (Sevilya) va G‘arnota (Granada, Ispaniya)da mardikorlar bozorlari bo‘lgan. Sharq bozorlarida hunarmandchilik ustaxonalari, do‘konlari ham joylashgan. Ayrim hollarda ko‘chma bozorlar ham tashkil qilingan. Unga sayyor savdogarlar va atrofdagi qishloqlarning o‘z mahsulotlarini sotish ehtiyoji bo‘lgan aholisi to‘plangan. Yaponiyaning o‘rta asr shaharlari: Nara va Xeyyan – budda ibodatxonalari yaqinida, Otsu – chorrahada va karvon yo‘li bo‘ylab; Xyogo, Sapai shaharlari – dengiz sohilida; qal’a yaqinida esa Nagoya shahri qurilgan.

Xitoyda chinni ishlab chiqarish

Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab harakatlanayotgan karvon

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Xaritadan Osiyo mamlakatlarining o‘rta asrlardagi yirik shaharlarini ko‘rsating.**
2. **Osiyo va Yevropa shaharlarining paydo bo‘lishi hamda yuksalishida qanday umumiylik mavjud?**
3. **Osiyo shaharlari hayoti haqida nimalarni o‘qidingiz? Hikoya qilib bering.**

21-mavzu

Yevropaning o‘rta asrlar madaniyati

SIZ BILIB OLASIZ:

- Buyuk Karl nima sababdan xalq maktablarini tashkil etgani;
- Eyngardni nega chumoliga qiyoslashgani;
- Vizantiyada maorif va ilm-fan qanday rivojlangani haqida.

KAROLINGLAR DAVRI MADANIYATI

Ulkan hududlardan iborat mamlakatlarni boshqarish uchun Buyuk Karlga savodli amaldorlar, soliqchilar, sudyalar zarur edi. U Rim imperiyasini tiklash uchun madaniyatini, eng avvalo antik ilmlarni qayta tiklash kerakligini anglagan. Uning davrida “Karolinglar uyg‘onishi” deb nomlangan madaniy yuksalish boshlanadi.

Karl o‘z saroyiga Italiya, Ispaniya, Angliya, Irlandiyadan bilimdon kishilarni taklif qilgan, yirik mansabdorlarga “xalq maktablari” ochishni buyurib, maktablarni anglosaks olimi, rohib Alkuinga topshiradi. Alkuin ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yibgina qolmasdan, ilk darsliklarni ham yozgan.

Karlning Axendagi saroyida yunoncha “Akademiya” tashkil etilib, unda hukmdor va uning oilasi, saroy xodimlari, o‘qituvchilar va o‘quvchilar cherkov hamda antik mualliflar, “saroy akademiya”si a’zolari yaratgan asar-

Tarixchi Eyngard

larni muhokama qilishgan. Olimlardan biri tarixchi Eyngard asaridan biz Buyuk Karl hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarni olamiz. Eyngardni ilmga chanqoqligi va tirishqoqligi uchun zamondoshlari **"mehnatsevar chumoli"** deb ataganlar. Karl Italiyadan ikki taniqli qo'shiqchilarni taklif etib, saroyda qo'shiqchilar xori (dastasi)ni tuzdirgan. Imperator lotin va yunon tillarini bilgan, yostig'ining tagida doim mum surilgan yozuv taxtachasi bo'lgan: bo'sh paytlarida harflarni chiroyli yozishga urinigan, lekin yozishni o'zlashtira olmagan. Karlning farmoni bilan toshdan bir qator saroylar va ibodatxonalar qurilgan, ulardan faqat Axendagi saroy kopellasi (katoliklarning kichik ibodatxonasi) saqlanib qolgan.

VIZANTIYA MADANIYATI

TARIXIY MUSHOHADA!

Rus knyazi Vladimir X asr oxirida xalqi uchun dinni tanlay boshlaganda, uning elchilari Konstantinopoldagi Ayo Sofiya (Avliyo Sofiya) ibodatxonasi haqida quyidagicha eslaydilar: "Ular bizni o'z xudolariga sig'inadigan joyga olib kirdilar: biz yerdamizmi, osmondamizmi – bilmas edik, chunki yer yuzida bunday ajoyib manzara va go'zallik yo'qki, u haqda qanday gapirishni ham bilmaymiz, faqat bir narsani bilamizki, u joyda xudo odamlar bilan birga bo'ladi". Kiyev knyazining xristianlikni Vizantiyadan qabul qilishida bu voqea hal qiluvchi o'rin tutgan bo'lishi ehtimol.

O'rta asrlarning aksariyat davrlarida Vizantiya o'ziga xos yuksak madaniyati bilan Yevropaning eng ilg'or mamlakati bo'lib qolgan. Sababi shuki, Vizantiya o'z daxlsizligini saqlab qolgani uchun, uning madaniyati G'arbiy Yevropaniki singari inqirozni boshdan kechirmagan. Ayni paytda uning madaniyati xristian dini ta'sirida o'zgara bordi. Antik falsafa majusiylik deb qoralanib, uning o'rnini ilohiyot egallagan. Maktablar ta'lim darajasining yuqoriligi bilan ajralib turgan. Sharqiy Rim imperiyasining iqtisodiy yuksalishi yangi o'quv va ilmiy markazlarni vujudga keltiradi. Konstantinopolda IX asrda Magnavr oliy maktabi, XI asrning o'rtalarida huquqshunoslik va falsafa fakultetlari bo'lgan universitet ochilgan. Poytaxtda oliy tibbiyot maktabi ham faoliyat yuritgan. Vizantiyaliklar geografiyadan ko'plab bilimlar to'plaganlar. Ular xaritalar va shaharlar loyihalarini chizganlar. Savdogar va sayyohlar turli mamlakatlar va xalqlar tavsifini qoldirganlar. Vizantiyada tarixiy asarlar yaratishga katta e'tibor qaratilgan. Kesariyalik Prokopiy (VI asr), Lev Diakon (X asr) kabi tarixchilar yorqin qiziqarli asarlar yozishgan.

Ayo Sofiya (Avliyo Sofiya) ibodatxonasining ichki ko‘rinishi

Hunarmandchilik, dengizchilik, savdo, tibbiyot, harbiy soha, qishloq xo‘jaligining yuksalishi uchun xizmat qiladigan tabiiy fanlar: matematika, astronomiya, kimyo taraqqiy etgan. Jumladan, VII asrda ixtiro qilingan “yunon olovi” (oltingugurt, selitra, turli qatronlar aralashmasi) dengiz janglarida uzoq yillar ustunlikni ta’minlagan.

Mozaika (koshin tosh, yog‘och, marmarlar, rangli shishalardan ishlangan naqsh, tasvir), freska (nam suvoq ustiga tushurilgan rangli tasvir) va ikonalar (odatda yog‘ochning qattiq turlaridan ishlangan xudo, Bibi Maryam, Injil sahnalari, avliyolar tasviri) ning ibodatxona va monastirlar me’morchiligida qo‘llanilishi Vizantiya madaniyatining eng mashhur sohasi bo‘lgan tasviriy san’atni yuksak darajasiga ko‘tardi. O‘zining mozaika va freskalari bilan mashhur Xori monastiri (hozirgi Istanbulning Qahriya masjidi) ajoyib me’morchilik yodgorligidir. Yustinian I imperatorligi davrida Konstantinopolda (532–537-yillarda) bunyod etilgan Ayo Sofiya (Avliyo Sofiya) ibodatxonasi, hech shubhasiz, ilk o‘rta asrlarning eng mahobatli me’morchilik inshootidir. Uning ulkan gumbazi (diametri 31,5 metr) bo‘lib, 40 ta derazalar gulchambari bilan qurshalgan. Ibodatxona gumbazi bino ichida pastda turgan kishiga osmon gumbazi singari havoda muallaq turgandek tuyuladi.



Grek olovi



MAORIF

O‘rta asrlarda maorif

O‘rta asrlarda Yevropada ta’lim tizimi antik (qadimgi) davrdan meros bo‘lib qolgan an’analar asosida tashkil etilib, boyitilib, yangi sharoitlarga moslashtirilib borilgan. Bu davrda cherkov (monastir, yepiskoplik va cherkov maktablari) hamda dunyoviy maktablar ochilgan. Bunday maktablarda zodagonlar, shaharliklar, ruhoniylar va boy dehqonlarning bolalari o‘qigan. Maktablarda “yetti erkin san’at” deb nom olgan grammatika (barcha fanlarning onasi hisoblangan), ritorika (notiqlik), dialektika (mantiq deb atalgan), arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa o‘qitilgan. G‘arbiy Yevropadagi barcha maktablarda o‘rta asrlarning oxirigacha o‘qitish lotin tilida olib borilgan. XIV asrga kelib har bir mamlakatning o‘z milliy tilida o‘qitiladigan maktablar ochila boshlangan. O‘rta asr maktablarida o‘qish yengil kechmagan. Bilim olish jarayoni yaxshi xotirani, temir iroda va salomatlikni talab qilgan. Ta’lim mavzu bo‘yicha diniy qarashlarga asoslangan edi. Maktabda o‘quvchilar yosh bo‘yicha sinflarga bo‘linmasdan, yosh bolalar ham, kattalar ham bir sinfda o‘qigan. Maktabdagi bolalarga qattiqqo‘llik bilan munosabatda bo‘lishgan: ularga baland ovozda gapirish, qo‘shiq aytish, o‘ynash taqiqlangan, har qanday noto‘g‘ri xatti-harakatlar uchun jazolangan. Agar dars davomida intizom borasida muammo yuzaga kelsa, yordamga xivich olingan va itoatsiz o‘quvchilar qattiq kaltaklangan. Xususan, Germaniyada o‘quvchilar ustozlari boshchiligida har yili bir necha bor o‘rmonga xivich tayyorlagani borishgan.

Yevropada markazlashgan davlatlarning tashkil topishi bilan ilm-ma’rifatli kishilarga bo‘lgan talab oshib borgan. Qirollarga davlatning boshqaruv ishlarini yuritish uchun malakali amaldorlar, tajribali huquqshunoslar kerak edi. O‘z tadbirkorlik faoliyatini yanada muvaffaqiyatli olib borish istagida bo‘lgan shaharliklar, savdogarlar va hunarmandlar esa matematika, astronomiya va tibbiyotdan ko‘proq bilimga ega bo‘lishni xohlaganlar. Biroq cherkov va monastirlarda mavjud bo‘lgan maktablar bunday odamlarni tayyorlay

olmagan. Shu bois zamonaviy va sifatli bilim beruvchi, turli bilim sohalari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlari – universitetlar (o‘qituvchi va talabalar jamoalari) ochila boshlangan. Yevropada birinchi universitetlar XI–XII asrlarda paydo bo‘lgan. Ular davlatga ham, mahalliy cherkov hokimiyatiga ham bo‘ysunmaganlar. Universitetlar faqat Rim papasiga bo‘ysunib, uning homiyligida bo‘lgan.

Yevropadagi dastlabki universitetlar Italiyadagi Boloniya va Fransiyadagi Parij universitetlari hisoblanadi. Keyinchalik Angliyada Oksford va Kembrij, Ispaniyada Sevilya, Valensiya, Fransiyada Tuluza va Italiyada Neapol universitetlari tashkil etilgan. Universitetlar odatda san’at, tibbiyot, huquqshunoslik va ilohiyot kabi to‘rtta fakultetdan iborat bo‘lib, ularning har birini dekan boshqargan. Hamjamiyat tepasida esa saylangan rektor yoki hokimiyat tomonidan tayinlangan kansler turgan.

O‘rta asrlarda universitet talabalari asosan tibbiyot, huquq va ideologiyani o‘qishgan. Darslar lotin tilida olib borilib, professor (malakali o‘qituvchi) ma’ruza davomida lotin tilida yozilgan qo‘lyozma va kitoblarni baland ovozda o‘qib, matndagi qiyin parchalarni talabalarga tushuntirgan. Talabalarning ko‘pchiligi universitet, cherkov yoki boy odamlar tomonidan boshqariladigan kollej yotoqxonalari (kollegiya)da yashagan. Kollegiyaga kira olmagan talabalar shahar aholisidan uy-joyni ijaraga olishga majbur bo‘lishgan. Vaqtlar o‘tib, Angliya va Fransiyada kollegiyalar yangi o‘quv muassasalari – kollejlarga asos bo‘lgan.

Magnavr oliy maktabi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **O‘ylab ko‘rib javob bering: nima uchun Buyuk Karl saroy akademiyasini tashkil etgan?**
2. **Vizantiyada (Sharqiy Rim imperiyasida) maorif va ilm-fan yuksalishining sabablari nimalardan iborat edi?**
3. **Avliyo Sofiya ibodatxonasi deyarli bir asr davomida muzey bo‘lgan. Hozirda u qanday vazifani bajarayotganini internet manbalaridan aniqlab gapirib bering.**
4. **Yevropadagi dastlabki universitetlarning hozirgi universitetlardan farqli yoki o‘xshash tomonlarini aytib bering.**

22-mavzu

Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati

SIZ BILIB OLASIZ:

- **nima sababdan arablar o‘zlari egallagan mamlakatlardan fan va madaniyatni o‘zlashtirganliklari;**
- **buyuk allomalarimiz: Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolarning hayoti va faoliyati;**
- **Sharq mutafakkirlari – Abulqosim Firdavsiy va Umar Xayyomlarning ilmiy merosi;**
- **Arab xalifaligi me’morchiligi, adabiyoti, she’riyati, aholining turmush sharoitlari va udumlari haqida.**

ILM-FAN

Arablar zabt etilgan mamlakatlardagi ilm-fan yutuqlari va an'analarni o'zlashtiribgina qolmasdan, ularni yaxlit holatga keltirib, islom dini va arab tili asosida yangi cho'qqilarga olib chiqqanlar. Sekin-asta arab tili zabt etilgan mamlakatlar tillarini chetga surib, maorif, fan va madaniyat tiliga aylanadi. Arab tilida hujjatlar rasmiylashtirilgan, muzokaralar olib borilgan, namoz o'qilgan. Yana bir muhim jihati: antik davr mutafakkirlari – Aristotel, Gippokrat va Yevklid asarlari arab tiliga tarjima qilingan. Qadim yunon mualliflarining ko'plab asarlari bizgacha faqat arab tiliga tarjima qilingan holda yetib kelgan. Shu davrda yetishib chiqqan matematik, astronom va yana ko'plab olimlar ilm-fan yuksalishiga ulkan hissa qo'shganlar.

Ushbu davrda aniq va tabiiy fanlar – matematika, astronomiya, geografiyaning rivojlanishi kuzatilib, iqtisod, hunarmandchilik va savdoning yuksak taraqqiyoti natijasi o'laroq namoyon bo'ldi, bu fanlar o'z navbatida jamiyatning keyingi taraqqiyotiga zamin tayyorladi. Vatandoshimiz **Muhammad al-Xorazmiy** (783–850) matema-

Al-Farg‘oniy tomonidan Misrda qurilgan Nilometr

tika tarixidagi yangi soha – algebraga asos solgan; hind raqamlari asosida hozirgi arab raqamlarini soddalashtirgan, kengaytirgan va birinchi marta arab tilida bayon etib, uning keng tarqalishiga hissa qo‘shgan. Yana bir vatandoshimiz **Ahmad al-Farg‘oniy** (797–865) avval Bag‘doddagi rasadxonada ish olib boradi, so‘ngra Ma’mun topshirig‘iga binoan, Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o‘rnini aniqlash, yangicha zij (astronomik jadval) yaratish ishlariga rahbarlik qiladi. Al-Farg‘oniy yunon astronomlari, jumladan, Ptolemeyning “Yulduzlar jadvali“ asarida berilgan ma’lumotlarni ko‘rib chiqish hamda o‘sha davrdagi barcha asosiy joylarning geografik koordinatalarini yangidan aniqlash yuzasidan olib borilgan muhim tadqiqotlarda faol ishtirok etadi. Bulardan tashqari, u ayrim astronomik asboblarni ixtiro qilish, falakiyotshunoslikka doir arab tilidagi boshlang‘ich bilimlarni belgilash va tartibga solish ishlariga ham muhim hissa qo‘shadi. **Abu Rayhon Beruniy** (973–1048) Yerning dumaloqligini aniqlaydi, koinot markazi Yer emas, Quyosh ekanligi, Yer esa uning atrofida aylanishi haqidagi farazni ilgari suradi. Yerning kattaligini o‘lchashda yangi usul qo‘llab, bir gradus meridian yoyning uzunligini hisoblab, shu asosda Yerning meridian aylanasining uzunligini hisoblab chiqargan. Beruniy trigonometrik usullardan foydalanib, tog‘ balandligini o‘lchashda avvalgi astronomlardan ham aniqroq natijaga erishgan. Tibbiyot sohasida mashhur hamyurtimiz **Abu Ali ibn Sino** (980–1037) ayniqsa shuhrat qozongan. Uni Yevropada Avitsenna deb atashgan. U antik dunyo hind va o‘rta osiyolik tabiblar tajribalarini umumlashtirib, o‘zining “Al-qonun fit-tib” shoh asarini yaratadi.

Geografiya fanini yuksaltirishga ulkan hissa qo‘shgan sayyohlar: **Al-Ma’sudiy, ibn Dast, ibn Fadlan va ibn Batutalar** dunyoni Atlantikadan Tinch okeanigacha, Afrikadan Rusga qadar kezib, u joylarning aholisi, tabiati, o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida ko‘plab ma’lumotlar qoldirganlar. Ularning kemalari ishonchli va mustahkamligi, xaritalari hamda dengiz asbob-uskunalari aniqligi bilan ajralib turgan.

G‘arbiy Osiyoning qadimgi yuksak madaniyatli o‘lkalariga kelgan arablar dastlab yunonlar, yahudiylar, suriyaliklar, forslar, sug‘diylarga nisbatan qoloq edilar. Ammo ushbu xalqlar madaniyatini o‘zlariga singdirib, yanada yuksakroq madaniyatning vujudga kelishiga sharoit yaratdilar.

Ilm-fanning yuksalishi

Arab xalifaligi davrida VIII asrda Tunisda “Zaytuna”, IX asrda Bag‘dodda “Bayt ul-hikma”, Fesda (Marokash) “Qaroviyun”, X asrda Qohirada “Al-Azhar” kabi ilm dargohlari tashkil etiladi. Sivilizatsiya cho‘qqisi xalifa Horun ar-Rashid va uning vorisi Ma’munlar davrida mamlakat poytaxti Bag‘dodda “Bayt ul-hikma” – “Donishmandlik uyi”ning tashkil etilishi bo‘ldi. Musulmon olamidagi bu ilm dargohlarining aksariyati ming yildan ortiq vaqt mobaynida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

BUNI YODDA SAQLANG!

“Bayt ul-hikma” olimlarni birlashtirgan ilmiy muassasa bo‘lib, uning tarkibida juda katta va boy kutubxona mavjud bo‘lgan. Kutubxonada hind, yunon, arab, fors tillarida 400 ming jild qo‘lyozma asarlar saqlangan. Muassasani qadimgi yunonlarning Aflotun (Platon) akademiyasi bilan qiyoslash mumkin.

Olimlarning ilmiy izlanishlari

Arablarda yozma tarix islom dini bilan bir paytda vujudga kelgan. Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning hayoti, faoliyati, islom dinining qanday vujudga kelganligi haqidagi rivoyatlar, ma’lumotlar unga asos bo‘lgan. Tarixchilar arablar egallagan hududlar nomini olamga yoyganlar, shu bilan bir qatorda, Rim, Vizantiya, Eron hukmdorlari tarixini ham qisqacha bayon etganlar.

Arablar Xitoydan choy yetishtirishni, qimmat pergament o‘rniga arzon qog‘oz tayyorlashni, porox va kompasdan foydalanishni o‘rganganlar. Dengiz orqali arab savdogarlari Hindistonga boradigan “ziravorlar yo‘lini” o‘zlashtirib, hindlar bilan savdo-sotiq olib borganlar. Hindlardan arablar raqamlarni (tarixga arab raqamlari sifatida kirgan), shakarqamishdan shakar olishni, apelsin va limon yetishtirishni o‘rganganlar.

ADABIYOT

Musulmon adabiyoti dastlab arab tilida yaratiladi. Keyinchalik X asrga kelib, u fors tiliga tarjima qilingan hamda fors tilida yozila boshlangan. Musulmon she’riyati yuksak darajaga erishib, uning ko‘plab turlari shakllanadi. Arab savdogarlari va sayyohlari uzoq o‘lkalardan faqat g‘aroyib buyumlarnigina emas, ajoyib sarguzasht hikoyalar, o‘zga xalqlar afsonalari, ertaklarini ham olib kelganlar. Ularni xalifa va zodagonlar saroylarida, bazmlarda, bozor va ko‘chalarda, bag‘dodliklar uylarida so‘zlab yurganlar. Ana shu xildagi ertak, rivoyat, afsonalar asosida keyinchalik

butun dunyoga mashhur arab adabiyotining ajoyib durdonasi – “Ming bir kecha” yaratildi, u o‘zida ko‘plab xalqlarning og‘zaki ijodini qamrab olgan.

Arablarda islom dini vujudga kelishidan oldin ham boy she’riyat bo‘lib, u o‘zida ko‘chmanchi aholining hayoti va urf-odatlarini namoyon etgan edi. Har bir qabilaning taniqli shoirlari bo‘lib, ular barcha bayramlarda chiqishlar qilishgan. Bu shoirlar jasur jangchilarni, o‘z so‘ziga sodiq va sahiy insonlarni madh etgan. Istilo qilingan xalqlar madaniyati bilan tanishuv arablarning qiziqishlarini o‘zgartiradi. Endilikda shoirlarni abadiy mavzular: ezgulik va yovuzlik, hayot va o‘lim, boylik va yo‘qsillik, muhabbat va xoinlik, dunyoning go‘zalligi-yu uning g‘am-tashvishlari ilhomlantira boshlaydi.

ME’MORCHILIK



Xalifalikda san’atning barcha sohalariga qaraganda me’morchilik yuksak taraqqiy etgan. Xalifalik tarkibidagi mamlakatlarda muhtasham saroylar, masjid-u madrasalar, qal’alar bunyod etilgan. Ispaniyaning Granada shahridagi Al-Hamro saroyi, Sevilyadagi masjid va Al-Qasar qasri, Kordovadagi masjid, Misrning Qohira shahridagi Hasan masjidi, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi arab xalifaligi davri me’morchiligi durdonalari hisoblanadi.

Har bir musulmon shahrida maxsus oliy maktablar – madrasalar qurilgan. Ularda, avvalo, Qur’on o‘rganilgan. Musulmonlar nazdida, bu bilim Allohning insonlarga in’omi sifatida tasavvur etiladi. Uni anglash juda murakkab, chunki arabcha so‘zlar mazmun-ma’nosi ko‘plab ohanglarga ega, qolaversa, inson o‘zida butun koinot buyukligini jamlashi mumkin emas. Ayni paytda insonlarga merosni taqsimlash, shartnomalar tuzish, yer maydonlarini hisoblash, kanallar qurish, namoz va ro‘za vaqtlarini aniqlash uchun zarur edi. Masjid va madrasalardagi ikki minora – Allohga e’tiqodda ko‘tarilgan inson qo‘llari ramzi. Masjid hovlisidagi hovuzdagi suvdan

Al-Hamro saroyi arxitekturasi

Olimlar munozarasi

tahorat qilgan musulmon masjid ostonasidan o‘tar ekan, Alloh belgilagan makonga kiradi. Sig‘inayotgan kishi yuzini Makka tomonga (uni devordagi tokcha belgilaydi) burib, tiz cho‘kib namoz o‘qiydi. Makka go‘yoki yorqin marvarid – Alloh yaratgan ilk manzilgoh. Islom inson va jonivorlar suratini chizishni taqiqlaydi, chunki inson rassom tasvirlagan jonzotlarga jon ato eta olmaydi. Shuning uchun masjid-madrasalar devorlari Qur’on oyatlarini jamlagan chiroyli arab alifbosidagi harflar bilan bezatiladi.

TURMUSH TARZI

Xalifalikning boyliklari, uning iqtisodiy yuksalishi kishilarning, ayniqsa, boylarning kundalik hayotlari uchun yangi qulayliklar yaratadi. Vizantiya va forslar turmushining ko‘pgina an’analarini o‘zlashtirgan arablar o‘zlarining turmushlari va vaqtichog‘liklarini chiroyli tashkil qila oldilar. Hashamatli buyumlar: nafis matolar, shisha vazalar ishlab chiqarish yuksalgan. Saroylarni bezash, bog‘lar yaratishda arablarga teng keladiganlar bo‘lmagan. Ular kitobni sevganlar. VIII asrda qog‘oz yasashning o‘zlashtirilishi kitoblarning arzon va hammabop bo‘lib borishini ta’minlay boshlaydi. Yirik kutubxonalar faqat Damashq va Bag‘doddagina bo‘lmagan, xususan, X asrda Qurdoba xalifasi kutubxonasida 400 ming qo‘lyozma saqlangan.

Arablar ziyofati nafisligi bilan ajralib turgan. Dasturxon atrofida o‘zini tutishning nozik odob-me’yorlari, taomlarni tortish, qo‘llarni ovqatlanishdan oldin va keyin yuvish, tishlarni tozalash tartiblari joriy qilinadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Nima uchun xalifalik ilm-fani va madaniyati arab sivilizatsiyasi deb nomlanadi?**
2. **Xalifalikda ilm-fan va madaniyat yuksalishida qaysi omillar ta’sir ko‘rsatgan?**
3. **O‘rta osiyolik allomalardan xalifalik davrida faoliyat ko‘rsatganlari haqida so‘zlab bering.**
4. **Adabiyot, me’morchilik va san’at sohalaridagi qaysi yutuqlar bugungi kungacha saqlanib qolgan?**

23-mavzu

Xitoy, Koreya, Yaponiya va Hindiston xalqlari madaniyati

SIZ BILIB OLASIZ:

- xitoyliklarning urf-odatlari va an’analari;
- Koreya madaniyati;
- Yaponiya madaniyati;
- Hind madaniyati haqida.

XITOYLIKLARNING URF-ODAT VA AN'ANALARI

Xitoyliklar shifti bo'lmagan uylarda yashaganlar. Uyda bo'yralar ustida o'tirganlar, ovqatlanganlar va uxlaganlar. Hovli kichik qal'ani eslatgan. Ruxsatsiz o'zgalar hovlisiga kirish taqiqlangan. Xitoyliklar oddiy, bir xil ko'rinishdagi kiyim kiyishgan. Oziq-ovqatlarni tanlamasdan, deyarli barcha narsalarni yeganlar. Xitoyliklarda ovqatdan so'ng suv ichish odat bo'lgan. III–IV asrlarda xitoyliklar choy o'simligini bilganlaridan so'ng, bu dorivor o'simlikka ishqiboz bo'lib qolganlar. Choyni shoirlar madh etishgan, u haqida kitoblar yozishgan. XIV asrga qadar choyni suyuq taom singari pishirishgan.

Xitoyda bayramlarni juda xush ko'rishgan. Ularning eng katta bayrami Yangi yil hisoblangan. Eski yilni kuzatish va yangi yilni kutib olish kunlarida quloqlarni qomatga keltiruvchi do'mbira va bonglarning ovozlari ostida turli afsonaviy mavjudotlar shaklida kiyingan kishilar to'planganlardan sovg'alar so'raganlar. Undan tashqari, xalq karnavali – "fonuslar bayrami"ni o'tkaz-



Xitoy dehqonchiligi

ganlar. Butun shaharni chiroyli fonuslar bilan bezashgan. O‘sha tunda barcha olovlar o‘chirilib, sovugan taomlar iste’mol qilingan va yangidan olov yondirilgan. Hosil bayrami ham tantanali nishonlangan.

Xitoydagi eng ommaviy o‘yin o‘n kishidan iborat bo‘lgan jamoalarning koptok bilan o‘ynaladigan o‘yini bo‘lgan. Bu o‘yinni zamonaviy futbolning uzoq ajdodi deyish mumkin. Xitoyliklar chovgon o‘yinini ham sevib o‘ynaganlar.

Xitoyda choy yetishtirish

DIN VA MADANIYAT

Milodiy I ming yillik o‘rtalaridan Xitoyning yuqori tabaqa vakillari orasida buddaviylik dini tarqala boshlaydi. Lekin oddiy xalq abadiylikni va’da qiluvchi, hokimiyat, boylik va shon-shuhratga ruju qo‘yishni qoralaydigan, tenglikka chaqiruvchi **daosizm**ni yoqlagan. Ayni paytda mamlakatda konfutsiylikning nufuzi ortadi. Konfutsiylikka ko‘ra, xitoylik rahmdil, boshqalarga yomonlik qilmaydigan, kattalarni, ayniqsa, ota-onalarini hurmat qilishi kerak. Ushbu axloq qoidalarini qat’iy qonunlarga aylantirgan xitoyliklar o‘z hayotlarini u yoki bu darajada tartibga solganlar.

Davlat ta’lim haqida g‘amxo‘rlik qilgan. Chunki unga ta’lim olgan amaldorlar zarur edi. Ma’lumotli sanalish uchun o‘qish, yozish, hisoblashdan tashqari, kamondan o‘q otish, jang aravasini boshqara olish mahoratini va musiqani bilish talab etilgan. Ayrim monastirlarda jang san’ati – “u-shu” ham o‘rgatilgan. Xitoyliklar matematika, astronomiya, tibbiyotda yuksak yutuqlarga erishganlar. Ular porox (undan avval mushakbozlikda foydalanishgan), kompas va seysmografni ixtiro qilganlar. Xitoyda IX asrdayoq ilk bo‘rtma iyeroglifli kitob bosmadan chiqarilgan. Ilk gazeta chop etilgan. Ulkan kutubxonalar ochilgan. Tarix va geografiya fanlari yuksalgan. 11000 tomlik, 900 ming varaqdan iborat ulkan ensiklopediyalar tuzilgan.



Qog‘oz tayyorlash jarayoni

KOREYS MADANIYATI

Uzoq o‘tmishda koreyslar ham boshqa xalqlar singari tabiat kuchlarini ilohiylashtirib, ular qatoriga turli ruhlar va g‘ayritabiiy kuchlarni qo‘shishgan. Xitoyda keng yoyilgan konfutsiylik ta’limotining qo‘shni mamlakatlarga, xususan, Koreyaga ta’siri kuchli bo‘lgan. Bu yerda konfutsiylikka e’tiqod qilish qadimdan boshlangan bo‘lsa-da, aniq vaqti uch qirollik davrida: III asrda Koguryo, undan so‘ng IV asrda Pekche va nihoyat VI asrda Sillada kuzatiladi.

Koreyada buddizmning tarqalishi IV asrning oxirlariga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, buddaviylikning Koreyadan oldin qadami yetgan makonlari ichida Surxondaryo ham bo‘lgan. Vohadagi buddaviylik ibodatxonalarining qurilish uslubi Xitoyda ham qo‘llanilgan. Demak, buddaviylik O‘rta Osiyo hududidan Xitoyga va undan to Koreyaga o‘tguncha turli diniy e’tiqodlar muhitiga moslashib borgan. Shuning uchun ham Budda ta’limoti Xitoydagi singari, Koreyada ham nisbatan tez tarqalgan. Yangi e’tiqodning mahalliy hukmdorlar nazariga tushganligi rohiblarni mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy va jadal faoliyat ko‘rsatishlariga sharoit yaratgan. Silla qirolligida qirol maslahatchisi lavozimiga bosh buddaviy rohib tayinlangan. Bu esa buddaviylik yo‘riqnoma va ko‘rsatmalarini saroy orqali tarqatishga imkon bergan. Unga misol qilib quyidagi besh va yetti farmoyishlar matnini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

BESH FARMOYISH:

1) do‘stlik sadoqatini o‘rganish;
2) jang maydonidan chekinmaslik;
3) sababsiz qon to‘kishdan saqlanish;
4) qirolga sadoqat bilan bo‘ysunish;
5) ota-onaga sadoqat bilan xizmat qilish.

YETTI FARMOYISH:

1) har qanday tirik jonzotga ziyon-zahmat yetkazmaslik;
2) dangasa bo‘lmaslik, fahshga berilmaslik;
3) so‘zlashda mulohazasiz va beparvo bo‘lmaslik;
4) sarmast qiluvchi ichimliklarga ruju qo‘ymaslik;
5) o‘zini boshqalardan hech qachon yuqori qo‘ymaslik;
6) xushbo‘y tarqatuvchi giyohlardan foydalanmaslik;
7) gullar va huzur-halovatdan doimo uzoqroq yurish.

Koreya bozori

Buddaviylik davlat maqomiga erishgan paytda mo‘g‘ul xonlari istilolari boshlanadi. Mo‘g‘ullardan mag‘lub bo‘lish sabablarini saroydagilar buddaviylikdan ko‘rganlar. Kechagina soliqlardan ozod buddaviylik ibodatxonalari davlat tomonidan inkor etilgan. Rohiblarning shaharda yashashlari hukmron toifaga malol kelgach, ular tog‘lar bag‘ridan makon izlab, o‘sha yerlarda o‘z ibodatxonalarini qura boshlaydilar. Natijada Koreyada XIII asrdan so‘ng qurilgan ibodatxonalar aynan borish mushkul bo‘lgan joylarda bunyod etilgan.

Koreys budda ibodatxonasi

Islom dinining Koreya zaminiga kirib kelishi VII–X asrlarda arab savdogarlarining dengiz yo‘llari orqali Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatish davriga to‘g‘ri keladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, bu yangi o‘lka va uning aholisi arablarga ma’qul kelib, keyinchalik yarimorolda musulmon savdo rastalari paydo bo‘lgan. Jumladan, IX asrga tegishli arab dengizchilariga oid hujjatda: *“Xitoy ortidagi dengizning narigi tarafidagi tog‘li yerlarda oltinga boy Silla mamlakati bor”,* deb yozilgan. Arab savdo kemalarida Koreyaga asosan dorivor o‘simliklar, dori-darmonlar, mis, uzum va uzum sharbati keltirilgan. Savdogarlar bu yerda o‘z mollarini oltin, kumush hamda kiyim-kechaklarga ayirboshlaganlar. Arablarning Koreyaga tashriflari davrida o‘zlari bilan olib kelgan musulmon madaniyati, ilm-fan yutuqlari ichida koreyslar uchun eng qimmatli va noyobi – bu quyosh va oyning tutilishi vaqtlarini aniqlaydigan musulmon taqvimi edi. Koreya haqidagi dastlabki arab yozma ma’lumotlari yevropaliklarnikiga nisbatan to‘rt-besh asr avval bitilganligi bilan qimmatli. Arab va koreys savdo-madaniy aloqalari to Koryo sulolasining tanazzuligacha davom etgan.

O‘RTA ASRLAR YAPONIYA MADANIYATI

O‘rta asrlar Yaponiya shahar aholisi

Xitoydan kirib kelgan buddaviylik Yaponiyaning ma’naviy madaniyatiga, urf-odatlari va aholining odob-axloq me’yorlariga katta ta’sir ko‘rsatgan. Mamlakatda ilm ahllari deb buddaviylik rohiblari aytilgan. Lekin VIII asrdanoq Yaponiyada zodagonlarning bolalari uchun maktablar tashkil etila boshlanadi. Shunga qaramasdan, yoshlarning bir qismi qonunlarni va adabiyotni o‘rganish uchun Xitoyga borishgan. O‘qimishli yaponlar qadimdan Xitoy iyerogliflari bilan yozganlar. IX asrning o‘rtalarida yapon alifbosi kashf qilingan. U xitoy yozuviga asoslansa-da, yozish uchun birmuncha qulay bo‘lgan. Yaponiyada ham she’r yozish va musiqa asboblarini chalish o‘qimishli kishilar uchun zaruriyat sanalgan. Shaharliklar orasida shoirlar talaygina bo‘lgan, hatto ularning musobaqalari ham o‘tkazilgan.

Yapon musiqachilari

HIND MADANIYATI

O‘rta asrlar Hindistonda tabiiy fanlar ancha yuksalgan. Hindlar hozirgi arab raqamlari deb ataluvchi hisobning o‘nlik tizimini yaratganlar. Bizning maktab arifmetikasi ham hindlar ixtirosi hisoblanadi. Hindlarning qadimgi shifobaxsh o‘simliklar bilan davolash usullarini hozirgi kunda ham zamonaviy shifokor-olimlar o‘rganishadi. Bu davrda sanskrit tilidagi adabiyot rivojlanadi. Buyuk dramaturg ***Kalidasa***ning pyesa va asarlari ko‘plab zamonaviy tillarga o‘girilgan. Musulmonlar davrida mamlakatda fors tilidagi adabiyotlar ham vujudga keladi.

Hindistonning Ajanta shahridagi g‘or-ibodatxonalari

BILAG‘ONLAR UCHUN!

Sanskrit – Hindistonning qadimgi va o‘rta asrlar adabiy tili. Hind usta-quruvchilari qoyalarni o‘yib yoki toshdan buyuk ibodatxonalar barpo etganlar. Bu ibodatxonalar relyef, haykal va naqshlar bilan bezatilgan. Dehli sultonligida ajoyib musulmon masjidlari qurilgan. Hindlar musiqa va raqsni sevishgan. Ular raqsga faqat raqs sifatida qaramasdan, u orqali muhabbat, ilohlar va afsonaviy qahramonlarni hikoya qilganlar. Ularning raqsida har bir tana harakati, har bir imo-ishora (ayniqsa qo‘l barmoqlari orqali) chuqur ma’no-mazmun ifoda etiladi. Raqqos yoki raqqosa kasbi yillar davomida egallangan.

Kalidasa

Hindlar ham o‘ziga xos qurilish va me’morchilik an’analariga ega bo‘lib, bu sohada katta yutuqlarga erishganlar. Ular barpo etgan inshootlar orasida eng mashhuri ***Ajanta*** buddaviylik ibodatxonasi bo‘lib, u to‘qqiz asr (mil. avv. II – milodiy VII asr) davomida qurilgan. Me’morlar tomonidan ushbu ibodatxona qoyalarga o‘yib ishlangan 29 ta xonadan iborat bo‘lib, xonalarning devorlari relyeflar bilan qoplangan, haykallar va o‘ymakor naqshlar bilan bezatilgan.

Hokimiyatga musulmonlarning kelishi bilan shimoliy Hindistonda yangi masjid, madrasa, maqbara, minoralarning geometrik naqshlar va arab yozuvlari bilan bezatilgan gumbazlari qad ko‘taradi. Xususan, poytaxtda balandligi 70 metrlik Qutb Minor minorasiga ega masjid qurilgan. Musulmonlar hokimiyati payti-

da hind qishloq jamoalari eski kasta qonunlari bo‘yicha yashashda davom etgan. Hukmdorlar saroylarini hind quruvchilari bunyod etishgan, soliqlarni hind mirzolari hisoblab, tangalarni ham hindlar zarb qilganlar. Dehli sultonligi saroyida braxman-astrologlar yashab, xayrli kunlarni bashorat qilganlar, braxman-tabiblar kasallarni davolaganlar.

TARIXIY MUSHOHADA!

O‘rta asrlarda Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoda hinduiylik, buddaviylik va islom dinlari o‘rtasidagi kurashda hind sivilizatsiyasi shakllangan.

KUNDALIK HAYOT, URF-ODATLAR, AN’ANALAR

Badavlat hindlar yirik hovli-manzillarda yashagan. Uy jihozlaridan suyanchiqli yumshoq kursilar, karavotlar bo‘lgan. Polga bo‘yra, gilamlar yoki hayvon terilari yopishgan. Kambag‘allari qamish kulbalarda hayot kechirganlar. Erkaklar va ayollar kiyimlari juda oddiy edi. Erkaklar ko‘chaga chiqqanda uzun ko‘ylak va yopinchiq tashlab olishsa, ayollar tanalarini yopib turuvchi bir necha metr uzunlikdagi matodan o‘rama kiyim (sari) kiyganlar. Musulmonlar ta’sirida keyinchalik ko‘ylak kiyganlar. Hindlar zeb-ziynatlar va atir-upalarni juda xush ko‘rganlar. Xotin-qizlar bayramlarda o‘zlarini gulchambarlar bilan bezatishni yoqtirganlar. Hindlarning aksari sutli va o‘simliklardan tayyorlangan taomlar bilan oziqlanganlar. Mol go‘shti va spirtli ichimliklarni deyarli iste’mol qilmaganlar. Sababi – ular din tomonidan taqiqlangan. Ular shaxmatni kashf etganlar, oshiq o‘yinidan maroq olishgan. Sport o‘yinlariga keraklicha ahamiyat berishgan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Xitoyliklarning kundalik hayoti, uy-joyi, kiyimlari, taomlari haqida gapirib bering.**
2. **Xitoy madaniyatining o‘rta asrlardagi asosiy yutuqlarini aytib bering.**
3. **Koreyada tarqalgan konfutsiylik, buddaviylik va islom dinlariga qiyosiy baho bering.**
4. **Yaponiya madaniyati haqida nimalarni bilib oldingiz?**
5. **Hind sivilizatsiyasi taraqqiyoti darajasiga baho bering.**

MUNDARIJA

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Kirish 3

I BOB.
O‘RTA ASRLARDA YEVROPA XALQLARI (V-XIII asrlar)

1-mavzu: German qabilalari va Rim imperiyasi.....6
2-3-mavzu: Franklar davlati: qirollikdan imperiya sari.....12
4-mavzu: Britaniyadan – Angliyaga 22
5-mavzu: Muqaddas Rim imperiyasi.....30
6-mavzu: Vizantiya: G‘arb va Sharq orasida.....36
7-mavzu: Slavyan davlatlarining tashkil topishi.....42

II BOB.
V-XIII ASRLARDA OSIYO VA AMERIKA

8-mavzu: Yangi din beshigi.....50
9-mavzu: Arab xalifaligi: islom dunyosining barpo etilishi.....56
10-mavzu: Saljuqiylar davlati.....62
11-mavzu: Mo‘g‘ullar davlati 66
12-mavzu: Hindiston – “ming ajoyibotlar mamlakati”.....72
13-mavzu: Xitoy – “Osmonosti imperiyasi”: yuksalish va tushkunliklar.....78
14-mavzu: Koreya o‘rta asrlarda 84
15-mavzu: O‘rta asrlarda kunchiqar mamlakat – Yaponiya.....88
16-mavzu: Amerika o‘rta asrlarda 92

III BOB.
O‘RTA ASR XALQLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR

17-mavzu: O‘rta asrlarda xristian olamida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar 100
18-mavzu: Salib yurishlari 106
19-mavzu: Yevropada o‘rta asr shaharlarining o‘ziga xosligi.....116
20-mavzu: Osiyoning o‘rta asr shaharlari 124
21-mavzu: Yevropaning o‘rta asrlar madaniyati 130
22-mavzu: Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati 136
23-mavzu: Xitoy, Koreya, Yaponiya va Hindiston xalqlari madaniyati 142

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Jahon tarixi [Matn]: 7-sinf uchun darslik / Tursun Salimov, Laziz Nasrullayev, Nurhayot Hakimov, Sanjar Kushbekov, Bahodir Mahmudboyev - Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2022. – 152 b.

ISBN 978-9943-7813-8-2 UO'K 78(075.3)

ББК 85.31я72

O'quv nashri

Tursun Salimov, Laziz Nasrullayev,
Nurhayot Hakimov, Sanjar Kushbekov, Bahodir Mahmudboyev

JAHON TARIXI

Darslik umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinflari uchun

Muharrir Ilhom Qosimov

Musahhih Orifjon Madvaliyev

Texnik muharrir Akmal Sulaymonov

Rassom Tolipov Firdavs Samad o'g'li

Saxifalovchi-dizayner Artur Nurullayev

Bosishga ruxsat etildi __.__.___. Bichimi 60x84 1/8.

«Arial» garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.

Shartli bosma tabog'i __. Nashriyot-hisob tabog'i __.

Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ___.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						
7						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Bar-cha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.